

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN MUXANDISLIK –TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**KIMYO TEXNOLOGIYA FAKULTETI**

**OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI KAFEDRASI**

**TEXNOLOGIK FIZIK- KIMYOVİY  
NAZORAT**

**fanidan**

**O'quv uslubiy majmua majmua**

**Namangan- 2020**

**“Texnologik va fizik kimyoviy nazorat”** fanidan o’quv uslubiy majmuasi  
5231000 – Oziq ovqat texnologiyasi (Yog’ moy texnologiyasi bo’yicha) ta’lim  
yo’nalishi uchun mo’ljallangan .

Tuzuvchilar:

PhD. D. O’ktamov  
ass. O’.Nishonov.

Taqrizchi

B. Norinboev.

O’quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik texnologiya institutining  
ilmiy uslubiy kengashida ko’rib chiqilgan va o’quv jarayonida foydalanish uchun  
tavsiya etilgan. — - yig’ilish bayoni, \_\_\_\_ 2020 yil.

## Mundarija

I	<b>O'quv materiallari</b>	
III.	<b>Mustaqil ta'lif mashg'ulotlari</b>	
IV.	<b>Glossariy</b>	
V.	<b>Ilovalar</b>	

## **1 – MA’RUZA. KIRISH. XOM ASHYO VA TAYYOR MAHSULOT SIFATINI STANDARTLASHTIRISH SISTEMASI**

**Reja:**

- 1.1. Fanning maqsadi va vazifalari.**
- 1.2. Texnologik va fizik-kimyoviy nazoratning ishlab chiqarishdagi roli.**
- 1.3. Xom ashyni standartlashtirish sistemasi.**
- 1.4. Yog’ - moy sanoati mahsulotiga bo’lgan talab**

**1.1 Fanning maqsadi va vazifalari.** Bizning Respublikamiz Yog’-moy korxonalarini mutaxassislari oldiga o’simlik moylari ishlab chiqarishda, ishlab chiqarish unumini oshirish, ishlab chiqarishning uzlusiz va asosiy texnologik jarayonlarini mexanizatsiya va avtomatizatsiya qilishning yuqori samarasini oshirish, mahsulotning sifatini yaxshilash va chiqish unumini oshirish hamda ishlab chiqarishda xom ashyni yo’qolishini kamaytirish borasida muhim masalalar qo’yilgan.

Tayyor mahsulot standarti talablariga rioya qilish, mahsulot unumini oshirish va texnologik jarayonning har bir bosqichida texnologik va fizik-kimyoviy nazoratni sistemali raviida olib borish, shu bilan birga ayrim mashina va uskunalarini xolatini nazorat qilish bilan uzviy bog’liqdir.

Buni amalga oshirish uchun xom ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlardan namunalari olishni va taxlillarni to’g’ri olib borilishini hamda nazoratni to’g’ri yo’lga qo’yilishini tashkil etish lozim.

Ushbu nazoratlarni yog’-moy korxonalarida olib borilishi maxsus ishlab chiqilgan va rasmiy ravishda tasdiqlangan standartlar, uslubiy qo’llanmalar, me’yoriy xujjalari, yo’riqnomalar hamda texnologik reglamentlar asosida olib boriladi. Yillar o’tishi bilan bu qo’llanma va yo’riqnomalar qayta ko’rib chiqilib, ishlab chiqrishga joriy etiladi.

Ushbu fanni o’rganishdan maqsad yog’-moy ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyni qabul qilishdan tortib saqlash, ishlab chiqarishga berish, qayta ishlab tayyor mahsulot xoliga keltirib, iste’molchilarga jo’natishgacha bo’lgan barcha texnologik jarayonlarni to’g’ri nazorat qilish va xom ashyo, yarim tayyor, tayyor hamda chiqindilarni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri taxlil qilishni o’rgatadi. Yog’-moy korxonalar bo’yicha hisob-kitoblarni to’g’ri olib borilishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mahsulotlarni chiqish unumini oshiradi va ularni sifatini yaxshilaydi.

**1.2. Texnologik va fizik-kimyoviy nazoratning ishlab chiqarishdagi roli.** Xom ashyni qabul qilishda fizik - kimyoviy nazoratlarni olib borish va ularni sifat ko’rsatkichlarini to’g’ri tahlil qilish, sifatli xom ashyo qabul qilishni to’g’ri tashkil qilish, uning konditsion vaznnini to’g’ri aniqlashga, chigitlarning navlarini va ularning narxlarini to’g’ri o’rnatishga yordam beradi. Masalan, qabul qilib olinayotgan chigitlarni sifat ko’rsatkichlariga qarab bir navdan boshqa navga o’tkazish va h.k

Moyli urug’larni saqlash davridagi nazoratlarni esa urug’larni buzulishiga yo’l qo’yilishini oldini olish va ularni ishlab chiqarishga sifatli va benuqson qilib berilishiga yordam beradi.

Ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni nazorat qilish ishlab chiqarilayotgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni hamda ishlab chiqarish chiqindilarini sifatini yaxshilashga, ularni isrofgarchilagini oldini olishga va ishlab chiqrish unumini oshirishga qaratilgan. To'g'ri olib borilgan tahlillar asosida bajarilgan hisob-kitoblar natijasi asosida ish yuritishga o'rgatadi.

Texnologik va fizik - kimyoviy nazorat ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi va korxona bo'yicha olib boriladigan sarf - harajatlar va olinadigan daromadlar ushbu nazoratlar asosida olib borilgan hisob-kitoblar natijasidan kelib chiqadi.

**1.3. Xom ashyni standartlashtirish sistemasi.** Standartlashtirish bizning mamlakatimizda va chet elda mahsulot sifatini me'yorlash asoslari bo'lib xizmat qiladi. Amaldagi davlat SI sistemasi mahsulotni sifatini boshqarish sistemasini yaratishni uslubiy asosi bo'lib hisoblanadi.

**Standartlashtirish** – bu ma'lum bir tarmoqda faoliyatni belgilash maqsadida, umumiyl optimal iqtisodiyotga erishishga qaratilgan qoidalarni o'rnatish va qo'llash demakdir. Bunda qiziquvchi tomonlar ishtiroki va foydasi, hafsizlik shartlari ko'zda tutiladi.

Standartlashtirish fanning, texnikaning va ilg'or malakaning umumiyl yuksalishiga asoslangan bo'ladi. Bu faqat hozirgi davrga asoslanmay balki kelajakdag'i rivojlanishga asoslangan bo'ladi va tarakqiyot bilan birga rivojlanishi kerak bo'ladi.

**Standart** - bu ma'lum bir organ tomonidan tasdiqlangan, standartlashtirish ob'ektiga kompleks me'yorlar, qoidalalar va talablar qo'yadigan standartlashtirishning me'yoriy – texnik hujjati hisoblanadi.

Standart hozirgi fanning, texnikaning va ilg'or malakaning yuksalishiga asoslanib tuziladi va jamiyat uchun optimal masalalarni yechishni ko'zda tutishi kerak.

Standartlar ayrim materiallarga (mahsulot, etalonlar, moddalar namunalari va boshqalar) va tashkiliy - metodik va umumtexnik xarakterdag'i ob'ektlarga quyiladigan me'yorlar, qoidalalar, shartlarga qarab tuziladi.

#### **Standartlashtirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:**

- Texnika taraqqiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarishni va mehnat unumdarligini oshirish, shu jumladan boshqarish va injenerlikni oshirish;
- Mahsulot sifatini yaxshilash va uni optimal darajasini ta'minlash;
- Jahon bozori talablariga javob beradigan yuqori sifatli eksport tovarlari ishlab chiqarilishini ta'minlash, halq ho'jaligi boshqaruvini tashkil qilishni takomillashtirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ratsional nomenklaturasini o'rnatish;
- Ishlab chiqarish fanlari va iqdisodiy materiallar va mehnat resurslarini ratsional ishlatish;
- Mahsulot ishlab chiqarish va loyihalash sohasida;
- Aholi sog'lig'i va ishchilarni mehnat hafsizligini qo'riqlashni ta'minlash;
- Xalqaro iqtisodiy, texnikaviy va madaniy xamkorlikni yo'lga qo'yish;

**Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:** - Tayyor mahsulot sifatini belgilovchi kompleks standartlashtirish sifat ko'rsatkichlariga asosan va uni ishlab chiqarishda kerak bo'lган xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa kerakli materiallarni yuqori sifat ko'rsatkichlariga va unumli qayta ishlanishiga asoslangan talablarni o'rnatish;

- Mahsulot sifati ko'rsatkichlarini aniq bir sistemasini, usullarni va nazorat turlari va tajribalarni aniq bir sistemasini aniqlash;
- Mahsulot ishlab chiqarish va korxonalarini loyihalash tarmoqlarida uni optimal sifatiga erishishini ta'minlashdagi me'yorlar, shartlar va usullarni o'rnatish;
- Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashni, avtomatlashtirishni, almashinish darajasini oshirishni, ishlatish natijalari va remont qilishni takomillashtirish;
- Ishlab chiqarishda davlat etalonlarini, fizik ko'rsatkichlarni, usullarni va yuqori aniqlikda ishlaydigan o'lchash asboblarini tashkil etish va rivojlanirish;
- Fan va texnika sohasida va halq xo'jaligidagi sohalarda zarur bo'lgan aniq bir terminlar va belgilashlarni o'rnatish;

- Mehnatni muhofaza qilish standartlar sistemasini o'rnatish;
- Tabiatni muhofaza qilish sohalarida va tabiiy resurslarni ishlatalishni yaxshilash standartlarni sistemasini o'rnatish;
- Tashqi savdo, madaniyat va fan-texnika aloqalarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratish;

**Standartlarning sinflanishi.** Standartlar ishlatalish sohasiga, tarkibiga va tasdiqlanganlik darajasiga qarab halqaro, regional va milliy standartlarga bo'linadi.

**Halqaro standarlarni** standartlashtirish xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

**Regional standartlar** iqdisodiy va siyosiy qiziqishiga asosan birlashgan bir gurux davlat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

**Milliy standartlar** alohida bir davlat tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

SHu bilan birga milliy standartlar davlat standartlari, sohalararo standartlar, respublika standartlari va korxonalar standartlariga bo'linadi.

**DST, (GOST) - Davlat standartlarini** - standartlashtirish davlat komitetlari tomonidan tasdiqlanadi.

**Davlat standartlari** - halq ho'jaligining hamma sohalari uchun zarur hisoblanadi.

**SST, (OST) - Sohalararo standartlar** - ayrim bir soha uchun ishlab chiqilgan va o'sha sohaning vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo'ladi. Sohalararo standartlar ana shu sohaning hamma korxonalarini va tashkilotlar uchun zarur me'yoriy xujjat hisoblanadi va boshqa sohadagi korxona va tashkilotlar uchun ham (agar ular o'sha sohani mahsulotini ishlab chiqarayotgan bo'lsa yoki ishlayotgan bo'lsa) zarur hisoblanadi.

**RST - Respublika standartlari** respublikadagi hamma korxona va tashkilotlar uchun zaruriy hisoblanadi. Bu standartlarni Vazirlar mahkamasi yoki Davlat rejalashtirish mahkamasi tasdiqlaydi.

**KST, (STP)-Korxonalar standartlari** - faqat o'sha korxona hududida kuchga ega bo'ladi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

**Mahsulot sifatining asosiy ko'rsatkichlari:**

**Mahsulot sifati** – ishlab chiqarishni yaxshilanishini birdan bir zaruriy shartidir. SHuning uchun ham ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini doimiy oshirib borish muammosi bor edi va u boshqarishning birdan bir asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

**Mahsulot sifati ko'rsatkichi** – bu mahsulotni sifatini tashkil qiluvchi bir yoki bir necha xususiyatlarning miqdoriy tavsifidir.

Oziq - ovqat sanoati mahsuloti boshqa sohalar mahsulotidan o'zining sifatligi bilan ajralib turadi.

Oziq – ovqat mahsulotlarining sifati ko'pgina xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ular boshqa mahsulotlar uchun aniqlanishi shart bo'limgan xususiyatlar - **mahsulot ta'mi va hidi ko'rsatkichlari** bilan ajralib turadi.

Yog' - moy sanoati mahsulotlari **iste'mol uchun tayyor bo'lgan** oziq - ovqat mahsulotlari (margarin, mayonez, o'simlik va salat moylari), **oziq - ovqatga mo'ljallanganmahsulotlar** (atir va xo'jalik sovunlari, yuvuvchi moddalar), Yog' - moy sanoatida yoki xalq xo'jaligining boshqa sohalarida **qayta ishlash uchun mo'ljallangan xom ashyolar** va materiallar (tozalangan va tozalanmagan o'simlik moylari, gidrogenlangan yog'lar, glitserin, yog' kislotalari, texnik yuvuvchi moddalar) ga bo'linadi.

**1.4. Yog' - moy sanoati mahsulotiga bo'lgan talab.** Yog' - moy sanoati mahsulotiga bo'lgan talab 2 xil tarzda bo'ladi:

1. Qayta ishlashga mo'ljallangan mahsulotga bo'lgan talab.
2. Aholini iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulotga bo'lgan talab.

Bular bir - biridan birmuncha farq qiladi.

Yog'-moy sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati 2 guruh omillarga qarab aniqlanadi. (korxonalar faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'limgan omillar).

**Korxona faoliyatiga bog'liq bo'lgan omillarga quyidagilar kiradi:**

- texnikaviy reglamentlarga va retsepturalarga qat'iy rivoja qilish;
- ishlab chiqarish va sanitar me'yordaga amal qilish;
- qabul qilinayotgan xom ashya sifatiga nazoratni kuchaytirish;
- tayyor mahsulot sifatiga nazoratni kuchaytirish;
- korxonadagi xizmat va ishlarni bir me'yorda ishlashini ta'minlashlar kiradi.

Korxona faoliyatiga bog'liq bo'limgan omillarga qayta ishlashga kelgan xom ashya va materiallarning past sifatligi kiradi.

Davlat standarti umumiy qoidalarga asoslanib yog'-moy sanoati mahsulotlariga quyidagi sifat ko'rsatkichlari qo'yilgan:

- belgilash ko'rsatkichlari, saqlash ko'rsatkichlari, texnologik, transport, standartlashtirish, huquqiy patent, ekologiya va hafsizlik ko'rsatkichlari.

**Belgilash ko'rsatkichlari** - mahsulotni ishlatish hususiyatlarini asosiy funksiyalarini xarakterlaydi.

**Saqlash ko'rsatkichlari** - mahsulotni ma'lum bir vaqt mobaynida o'zining ozuqaviy va iste'mol hususiyatlarini saqlanishini xarakterlaydi.

**Texnologik ko'rsatkichlari** - ishlab chiqarishda kam harajatlarga erishib, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni xarakterlaydi.

**Transport ko'rsatkichlari** - mahsulotni iste'moli va ishlatilishiga bog'liq bo'limgan ma'lum muhitda aralashib ketishligiga moyilligini xarakterlaydi.

**Standartlashtirish ko'rsatkichlari** - mahsulotni standartlar bilan to'yinmaganligini (taminlanganligi) xarakterlaydi.

**Huquqiy patent** - ko'rsatkichlari mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilgan texnik masalalarni o'zlashtirilish rejasini, ularning patent ximoyasini va mahsulotni realizatsiya qilganda uning dahlsizligini xarakterlaydi.

**Estetik ko'rsatkichlari** - mahsulotni ishlab chiqarishda ishlatilishini takomillashtirish va ratsional shakllarini xarakterlaydi.

**Ekologiya ko'rsatkichlar** - atrof muhitga ta'sir darajasini xarakterlaydi. Bu ta'sirlar mahsulotni ishlab chiqarishda va iste'molida paydo bo'ladi.

**Hafsizlik ko'rsatkichlari** - mahsulotni ishlatishda va iste'mol qilishda uni inson salomatligiga havfsiz ekanligini ta'minlashni hamda mahsulotni saqlash va jo'natishdagi havfsizligini ta'minlashni xarakterlaydi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Standartlashtirish, sandart, saqlash ko'rsatkichi, texnik ko'rsatkichi, belgilash ko'rsatkichi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Standartlashtirishning mohiyati va maqsadi nimalardan iborat?
2. Sandartlarning sinflanishi qanday amalga oshiriladi?
3. Mahsulot sifatining asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
4. Yog'-moy sanoati mahsulotiga qanday talablar qo'yiladi?

## **2 – MA’RUZA. MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH. MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHDA KOMPLEKS SISTEMALAR**

**Reja:**

- 2.1. Mahsulot sifati darajasini oshirish.**
- 2.2. Mahsulot sifatini boshqarishda kompleks sistemalar.**
- 2.3. Mahsulot sifatini nazorat qilish turlari.**
- 2.4. Yog’-moy sanoatida mahsulot sifati darajasini baholash.**

**2.1. Mahsulot sifati darajasini oshirish.** Mahsulot sifatini me’yorlash darajasi ko’p vaqt o’zgarishsiz qolishi mumkin emas. Fan va texnika rivojlanishi bilan ishlab chiqarish o’sadi, yangi texnologiyalar joriy qilinadi. Mahsulotni kerakli hususiyatlarini ishlatish kengayadi. Uning sifatiga yangi talablar qo’yiladi. Halq xo’jaligida mahsulot sifatini oshishi, aholining shu mahsulotga bo’lgan talabini qondiradigan yuqori darajali ishlab chiqarishni yo’lga qo’yishdan iboratligi bilan aniqlanadi.

**Oziq – ovqat mahsuloti sifatini oshishi** bu sotsial - iqdisodiy masalalarni yechish orqali aholi ehtiyojini qondirishni yo’lga qo’yish demakdir. Bunda mehnatkashlarning bo’sh vaqtлари ko’payishi ro’y beradi. Mehnatkashlarni vaqtini tejalishida asosiy rolini mahsulotni qadoqlangan holda ishlab chiqarilishi, tez tayyorlanadigan tayyor mahsulot holda chiqarilishi va aholi uchun qulay qilib qadoqlanishi va boshqalar o’ynaydi. Bunday mahsulotga talab mehnatkashlarning salomatligini saqlash, ish unumini oshirish, vaqtini tejash imkonini yaratadi.

**Mahsulot sifatini rejalashda** mahsulot ishlab chiqarish ko’rsatkichlarini aniqlash vazifasi birinchi o’ringa qo’yiladi. Bunga halq ho’jaligida ma’lum bir vaqt mobaynida erishiladi.

**Mahsulot me’yoriy va sifat darjasи** xom ashyo va materiallarni me’yori mavjud standart va me’yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda o’rnataladi.

**Ilgarilayotgan standartlashtirish** standartlashtirish ob’ektlari ko’rsatkichlarini boshqarishning asosiy omili hisoblanadi.

Ilgarilayotgan Standartlashtirishning ob’ektlari bo’lib, mahsulot va jarayonlarni amal qilish muddati davrida o’zgaradigan ko’rsatkichlari, mahsulot va jarayonlarga qo’yiladigan me’yorlar, qoidalar, shartlar xizmat qiladi.

**Mahsulot sifatini doimiy oshirish zaruriyatи** fan va texnika taraqqiyoti rivojlanishi ta’sirida mahsulot ishlab chiqarishni o’zlashtirilgan usullarini eskirishi bilan izohlanadi. Oziq – ovqat mahsulotlarini eskirishi – bu aholini o’sha mahsulotga talabini pasayishiga va shu mahsulotga raqobat- bardosh yangi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi bilan izohlanadi. Bu sanoatning boshqa tarmoqlari ishlab chiqaradigan mahsulotga nisbatan sekin boradi. Lekin bu kelajakda oziq – ovqat mahsulotlarini iste’mol ko’rsatkichini oshirish va ularning mazalilik xususiyatlarini oshirish muammosini yechilishini ko’zda tutishni talab etadi.

**Mahsulotni sifatini oshirishni rejalash** fan va texnika taraqqiyotini iste'molchi talablariga mos ravishda to'liq qo'llashni, mahsulotni ishlatish shartlari va belgilanishini, texnika xafsizligi talablarini va iqtisodiy maqsadlarni ko'zda tutadi. SHuning uchun mahsulotni sifatini oshirishdagi vazifalar va amalda qilinadigan ishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini analiz qilish natijalarini hisobga olib, ishlab chiqiladi. Bu esa halq ho'jaligi taraqqiyotining asosiy yo'naliishlari, texnika rivojlanishi, standart talablar va mahsulotni sifatini aniqlashda davlat iste'mol talabidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

**Mahsulot sifatini rejalashda** korxonaga yoki butun tarmoqqa quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Yuqori sifatli yangi mahsulot xillarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- Yuqori sifatli mahsulotning aniq chiqish miqdorini amalga oshirish. (Yog'-moy sanoati uchun - oliv navli va yuqori sifatga ega bo'lgan mahsulot olish)
- Kelajakda muhim bo'lgan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish miqdorini oshirish.

**2.2. Mahsulot sifatini boshqarishda kompleks sistemalar.** Mahsulot sifatini sistemali ravishda oshishi (ko'tarilishi) davlatning milliy boyligini oshirishda va iste'molchi talabidagi mahsulot ishlab chiqarishda 1 chi o'rinni tutadi.

Hozirgi ishlab chiqarishda va tarmoqda boshqarishning kompleks sistemasini tashkil qilmasdan turib, mahsulot sifatini oshirish vazifasini, ishlab chiqarishni har bir bo'g'inini xilma-xil elementlarini o'sish natijalarini, uni boshqarish va tashkil qilish qiyinchiliklarini, tarmoqlararo aloqalarni har hil xarakterda ekanligini aniq yechish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas.

Boshqarishning kompleks sistemalari ko'pincha Oziq-ovqat sanoatida mahsulot saqlash talablari va shartlariga javob beradi. Bu kompleks sistemalar standartlar bo'yicha yuqori boshqarish organi bo'lgan Davlat standart qo'mitasi va «Yog'moytamasanoat» uyushmasi bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sifatini boshqarish mahsulot sifatini oshiradigan quyidagi 4 omilga ta'sir qiladi:

- **Xomashyo omillariga;**
- **Texnik va texnologik omillarga;** Bunga texnologik jarayonlarni texnik jihatdan yuksalish darajasi mashina va apparatlar, texnologik nazorat va sinovlar, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayonlari darajasi kiradi.
- **Tashkil qilish omillari;** bular ishlab chiqarishni mehnat va material resurslari bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni tashkil qilish usullari, hodimlar malakasi darajasi;
- **Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish sistemasi,** aholining farovon turmush darajasi.

Bu omillarning bittasini yo'lga qo'yish orqali ishlab chiqarishda mahsulotni sifatini oshirishga erishib bo'lmaydi. Faqat mahsulot sifatini kompleks boshqarish sistemasigina ishlab chiqarishda mahsulotni sifatlari qilib olish imkonini yaratadi.

**Mahsulotni boshqarish sistemasini** oziq-ovqat sanoatini yaratish quyidagilarga bog'liq bo'ladi; bular qishloq ho'jaligi ishlab chiqargan xom ashyo sifati, yordamchi materiallar sifati, qadoqlash materiallari sifati va boshqalar hisoblanadi.

Bularni tashkil qilish bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

**Mahsulot sifatini ta'minlash** texnologik, metrologik, texnik, iqdisodiy, tashkiliy, ma'lumotlar olinishi va hodimlar jihatidan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

**Mahsulot sifatini texnologik ta'minlash** o'z ichiga quyidagi talablar majmuasini oladi:

Yangi yutuqlarga asoslangan texnologik jarayonlarni takomillashtirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotni hamma turlari sifatini uzluksiz ravishda oshirishni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini hamma bosqichlarida sifatni nazorat qilish sxemalarini tuzish va takomillashtirish.

**Metrologik ta'minlash quyidagi tadbirlar majmuasidan iborat:**

O'lchash vositalari va o'lchovchi asboblarni tanlash va ishlatish qoidasi, yangi uskunalarni metrologik ta'minlash, Davlat standart organlari bilan kelishilgan holda o'lchovchi uskunalar va o'lchash usullarini qo'llashni ta'minlash.

**Texnik ta'minlash** – bu ishlab chiqarishni hamma texnik vositalari bilan ta'minlashda mahsulot sifatini boshqarish va nazorat qilish tadbirlari majmuasidir.

**Tashkil etish va iqtisodiy ta'minlash** - korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotni sifati haqidagi ma'lumotlarni qayta ishslash, hisoblash va yig'ish sistemalarini tashkil etish, mahsulotni sifatini oshirish moddiy va ma'naviy sistemalarini tashkil etish, sifatini boshqarish sistemasini joriy qilish orqali iqdisodiy natijalarni hisoblashni va mahsulotni sifatini oshirishda muxandis – texnologlar va ishchilarning mehnat faoliyatlarini baholashni amalga oshiradi.

**Ma'lumotlar olishni ta'minlash** - izlanish olib borish, analiz va tarmoqda o'zimizdag'i va chet eldagi fan-texnika taraqqiyoti haqida ma'lumotlar berish sistemasini yaratish, ma'lumot beradigan materiallar nashr qilish (ekspress ma'lumot obzorlar, referatlar, biliografiya va boshqalar) va tarmoq mutaxassislariga ma'lumotlar xizmatini olib borishda o'z aksini topadi.

**Hodimlar jihatidan ta'minlash** hodimlarni o'z vaqtida tayyorlash va qayta tayyorlash masalalarini yechish, malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishni va mahsulot sifatini boshqarish kompleks sistemalari halq xo'jaligida keng tarqalmoqda.

Hozirgi vaqtida halq ho'jaligini boshqarish, uning rivojlanishini keng yo'lga qo'yish, bu tarmoqni hamma elementlarini eng maqbul tarzda muvozanatlashni faqat boshqarishni uzlusiz ravishda takomillashtirish usullarini yo'lga qo'yish orqali amalga oshirish mumkin. SHuning uchun mahsulot sifatini boshqarishni kompleks sistemalari va ishlab chiqarishni bir butun takomillashuvi davom etmoqda va boshqarishning eng maqbul yo'llari izlanishi davom etmoqda.

**2.3. Mahsulot sifatini nazorat qilish turlari.** Mahsulot sifatini nazorat qilishning quyidagi turlari mayjud:

**Mahsulotni tayyorlash jarayonida texnologik nazorat qilish.** Bu, o'z ichiga hamma yordamchi, tayyorlov va texnologik operatsiyalarni oladi.

**Mahsulotni iste'molida ekspluatatsion nazorat qilish.**

Ishlab chiqarish bosqichidagi nazoratlar **kirishdagi nazorat**, ya'ni buyurtmachiga kelayotgan mahsulotni nazorati;

**operatsion nazorat** – mahsulot yoki jarayonni ishlayotgandagi yoki texnologik operatsiyani tugashidan keyin qilinadigan nazorat;

**qabul qilishdagi nazorat**, keltirilayotgan xom ashyo nazorati, inspeksion nazorati – maxsus xodimlar tomonidan bajarilayotgan nazoratlarga bo'linadi.

Yana nazoratning ko'pgina turlari mayjud: Bular:

**umumiyy nazorat** – mahsulotni har bir miqdori nazorat qilinadi, **tanlab nazorat qilish** – ayrim joylardan olingan mahsulot nazorati, **davriy nazorat** – aniq belgilangan vaqtarda qilinadigan nazorat.

Nazorat ob'ektiga ta'siriga nisbatan, nazorat buzadigan va buzmaydigan turlarga bo'linadi. Nazorat qilish uskunalarini ishlatilishiga qarab o'lchovchi, yozib boruvchi, organoleptik va vizual' nazoratlarga bo'linadi.

Davlat standartlari mahsulot sifatini aniqlashni quyidagi usullarini ko'zda tutadi: O'lchovchi, yozib boruvchi, hisoblash, organoleptik, eksport va sotsial.

**O'lchovchi** – bu sifat ko'rsatkichlarini texnik o'lhash asboblarida aniqlashni o'z ichiga oladi.

**Yozib boruvchi usul** - kuzatish va jarayonlarni hisobga olish, predmetlar va harajatlarni asoslash orqali amalga oshiriladi.

**Hisoblash usuli** - mahsulotni sifat ko'rsatkichlarini nazariy asoslarga va ularni parametrlarini o'zgarishini asoslab hisoblash orqali yo'lga qo'yiladi.

**Organoleptik usulda** - sifatni baholash bilan ma'lumot olishga (Odamning sezgi organlari yordamida) asoslangan. Bu usul boshqa texnik asboblarni ishlatilishini ta'qiqlab qo'ymaydi. (mikroskop, lupalar)

**Ekspert usuli** – mahsulot sifati ko'rsatkichlari ekspertlarni qabul qilgan qarorlariga asosan aniqlanadi.

**Sotsial usul** - Bu usul mahsulot sifatini ma'lumotlar yig'ish va uning analizi, keltirilgan qiyamatlarni aniqligini so'rovi, savollarni tarqatish, konferentsiyalar, ko'rgazmalar va majlislar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Yog'-moy sanoatida mahsulot sifati nazoratini keng tarqalgan usuli, bu o'lchash usuli – laboratoriya usulidir.

**Laboratoriya usuli** ham sifati aniqlanayotgan yoki baholanayotgan mahsulotni tekshirish uskunasining ishslash printsipiga va ishlatilayotgan reaktivlarga qarab fizikaviy, kimyoviy, fizik - kimyoviy va biologik turlarga bo'linadi.

Aniqlashning laboratoriya usullari aniq va qiyoslash mumkin bo'lgan natijalarini beradi. Bunda bajarilgan ishlar hamma bosqichlarda davlat standarti organlari talablariga mos kelishi kerak. Oziq - ovqat mahsulotlari uchun laboratoriya usulidan tashqari organoleptik usul ham keng qo'llaniladi. Bu usul mahsulotni sifatini iste'mollik darajasini aniqlash imkonini beradi. Oziq - ovqatlarning hidi va ta'mi – ularning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy parametrlaridan hisoblanadi.

SHuning uchun ham davlat standartlariga organoleptik ko'rsatkichlarning hammasi kiritilgan. Aniqlash usullari standartlariga esa laboratoriya usullari bilan birga organoleptik usullar ham yoziladi.

**2.4.Yog'-moy sanoatida mahsulot sifati darajasini baholash.** Mahsulot sifatini miqdoriy jihatdan baholash usullari mustaqil fan –kvalimetriyaga birlashadi. **Kvalimetriyaning asosiy vazifalari** – mahsulot sifati ko'rsatkichlari nomenklaturasini asoslash, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini ishlab chiqish, ularni optimallash va ularni mahsulot sifatini boqarish va standartlashtirish vazifalari ishlatilishini asoslash hisoblanadi.

**Mahsulot sifati darajasini baholash-** bu baholanayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasini tanlashni, ana shu ko'rsatkichlarni aniqlashni va ularni asosiyлари bilan solishtirishni o'z ichiga olgan operatsiyalar majmuidir. Bu vazifani texnikaviy nazorat bajaradi. Bu nazorat o'rnatilgan texnikaviy shartlarga texnikaviy nazorat qilinayotgan ob'ektning to'g'ri kelishini tekshirishdan iborat.

Texnikaviy nazorat ob'ekt bo'lib, faqat nazorat qilinadigan mahsulot emas, yana uni ishlab chiqarish jarayoni, ishlatilishi, yuklanishi, saqlanish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlanishi va texnik hujjatlar ham xizmat qilishi mumkin.

Har qanday nazoratning afzalligi 2 ta asosiy bosqichni o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. Nazorat qilinayotgan ob'ektni holati haqida aniq ma'lumot olish. (Birlamchi ma'lumot). Birlamchi ma'lumotni oldindan qo'yilgan shartlar, me'yorlar, kriteriyalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini tekshirish. (Ikkilamchi ma'lumot).

Yog'-moy sanoatida mahsulot sifati darajasini belgilovchi amaldagi baholalash qoidalari mavjud. Bu qoidalarga **a'lo sifatli mahsulot va oliv nav mahsulot** talablaiga javob beradigan qoidalari kiradi. Bu qoidalari ishlab chiqarishda mahsulot sifati va texnik darajasini baholash uchun yaratilgan metodik qo'llanmalar majmuasidan iborat. (RD 50-149-79).

**Yuqori sifatli mahsulot** oziq-ovqat va biologik darajasiga va o'z ta'miga munosibligiga qarab baholanadi. **Yem-xashak mahsulotlari** esa ozuqaviylik darajasiga qarab baholanadi. Bu esa mahsulotni ishlab chiqarishda ishlatilayotgan xom ashyo va materiallarning sifatiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

**Sifatni baholash** yog' - moy sanoatida amal qilayotgan davlat standartlari va texnikaviy shartlarga asosan yo'lga qo'yildi. Mahsulotni sifatini baholash natijalari o'sha mahsulotni sifati darajasini oshirishni rejalshtirish, mahsulot sifatini oldindan belgilab olish va yangi mahsulot turlarini yaratish imkonini beradi.

**Yuqori sifatli mahsulot ko'rsatkichlariga** belgilash ko'rsatkichlari, estetik ko'rsatkichlar va havfsizlik ko'rsatkichlari kiritiladi.

Yog'-moy mahsuloti sifat darajasini baholashda birinchi navbatda **belgilash ko'rsatkichlarini** aniqlash olib boriladi. Bu ko'rsatkichlarga: asosiy mahsulot miqdorini aniqlash, foydali mahsulotlar miqdorini aniqlash, mahsulotni biologik darajasini oshiradigan qo'shimchalar miqdorini aniqlash, erish va qotish harorati, rangliligi yoki rangi va boshqa ko'rsatkichlari (sindirish ko'rsatkichi, yog' kislota sostavi va boshqalar) aniqlashda halaqit beradigan aralashmalar miqdorini aniqlash ko'rsatkichlari kiradi.

**Havfsizlik ko'rsatkichlaridan** zararli yoki zaharli moddalar miqdorini aniqlash

(xlororganik zaharli ximikatlar, og'ir metall tuzlari va boshqalar), konservantlar massa ulushi, erituvchining qoldiq miqdori, oksidlovchi moddalar miqdori, uch atsilglitseridlarning gidrolizlanish darajasini (erkin yog' kislotalar miqdori) aniqlash olib boriladi.

**Estetik ko'rsatkichlardan** mahsulotni tashqi ko'rinishi, uni ta'mi, hidi, rangi, shakli, konsistensiyasi va tiniqligini baholash olib boriladi. Estetik ko'rsatkichlar mahsulotni o'sha ko'rsatkichlari yozilib qo'yilgan me'yoriy xujjatlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish asosida aniqlanadi.

### **Yuqori sifatli mahsulot 2 xil bo'ladi:**

Oliy navli mahsulot va sifati yaxshilangan mahsulot.

**Oliy navli mahsulotni** sifat darajasini baholashda o'sha oliy nav, guruhrar va xillarga bo'lishga to'g'ri keladigan, mahsulotni aniq xillarini qabul qilishga qaratilgan talablar hisobga olinadi.

**Sifati yaxshilangan mahsulotni** baholash navlarga, guruhlarga va xillarga ajratmasdan amalga oshiriladi.

**Yuqori sifatli mahsulot** ishlab chiqaruvchi korxona ishlab chiqarishda mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni sifatini doimiy ravishda nazorat qilib turish, ishlab chiqarishni texnologik jarayonlari ishini nazorat qilish va davlat standartlari va me'yoriy-texnik xujjatlarga amal qilish ishlarini olib borishi zarur. Buning uchun korxona ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishi, nazorat turlarini ko'paytirishi, ishlab chiqarishni metrologik ta'minlashni, sifat darajasini doimiy oshirishni, ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori darajada ishslashini ta'minlashni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Ana shunda korxona yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqori sifatli mahsulot chiqarishdagi albatta bajarilishi kerak bo'lgan shartlar korxonani sifatli xom ashyo va yordamchi materiallar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarishni doimiy ishslash imkonini beradi.

Yog'-moy sanoatida uzluksiz va avtomatik ishlab chiqarish liniyalarini keng qo'llanilishi qayta ishlanayotgan xom ashyo va materiallarning sifatiga bo'lgan talabni ko'chaytirilishini taqozo etadi. Faqat shundagina texnologik jarayonlarda bir xillikka erishish va tayyor mahsulotni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarishiga imkoniyat yaratiladi.

Korxonalardagi texnologik jarayonlarni, sanitar - texnik me'yirlarni, tayyor mahsulot sifatini nazorat qiladigan davlat inspeksiya organlari tuzilgan. Davlat inspeksiya organlari korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sanitar me'yirlarga va davlat standartlariga to'g'ri kelish yoki kelmasligini tekshiradi. Bu organlar kerak bo'lgan taqdirda mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatishi, korxonaga ishlab chiqarayotgan mahsulotini sifatli ishlab chiqarilishini ta'minlashga ko'rsatmalar berishi mumkin.

**Davlat inspeksiyasining vazifasiga** yana korxonalardagi texnologik va mikrobiologik nazoratlar olib boruvchi laboratoriyalari ishlarini tekshirish ham kiradi.

Yog'-moy sanoati mahsuloti sifati va texnik darajasi metodik ko'rsatmalar RD 50-149-79 shartlariga to'g'ri kelmasa, bu mahsulot 1 navli va past navli mahsulotga o'tkazilishi kerak bo'ladi.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Mahsulot sifati, birlamchi ma'lumot, ikkilamchi ma'lumot, o'lchovchi usul, yozib boruvchi usul, hisoblash usuli, organoleptik usul, ekspert usul sifat darjasasi, sifatni boshqarish, metrologik ta'minlash, texnik ta'minlash, kompleks sistemasi,

### **Takrorlash uchun savollari.**

1. Mahsulot sifatini me'yorlash darajasi o'zgarishi qanday amalga oshiriladi?
2. Mahsulot sifatini oshirishni rejalaq deganda nimani tushunasiz?
3. Mahsulot sifatini boshqarishda kompleks sistemalari nimalardan iborat?
4. Mahsulotni sifatini boshqarish sistemasini oziq – ovqat sanoatida yaratish nimalarga bog'liq bo'ladi?
5. Kvalimetriyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Mahsulot sifatini nazorat qilish turlari nimalardan iborat?

7. Davlat standartida maxsulot sifatini aniqlashda foydalanadigan usullar turlari qanday?
8. Belgilash ko'rsatkichlarini aniqlash qanday amalga oshiriladi?
9. Davlat inspeksiyasining vazifasi nimalardan iborat?

### **3 – MA’RUZA. MAHSULOTNI ANALIZ QILISH UCHUN NAMUNALAR OLİSH VA ULARНИ TAXLİL QILISH USULLARI**

**Reja:**

- 3.1. Xom ashyo qabul qilish, saqlash va qayta ishlashda na'munalar olish.**
- 3.2. Suyuq, qattiq moylar va Sovunlardan namuna olish.**
- 3.3. Kunjaradan, shrotidan va gorchitsa kukunidan namunalar olish.**
- 3.4. Moyli urug'larni namligini analiz qilish usullari.**
- 3.5. Moyli urug'lar va meva danaklarini mineral va organik aralashmalar hamda moyliligini analiz qilish.**

**3.1. Xom ashyo qabul qilish, saqlash va qayta ishlashda na'munalar olish.** Ishlab chiqarishdagi xom ashyo va materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, chiqindilarni sifatini nazorat qilish uchun ular analiz qilinadi. Analiz natijasida sifat ko'rsatkichlari va ularning miqdoriy xossalari aniqlanadi.

Namuna olish va qisqartirish - Yog'-moy korxonalariga keltirilayotgan urug'lar sifatining standart talablariga mosligi, hamda ularni qayta ishlash jarayonida olinayotgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni tekshirish uchun ishlab chiqarishda texno-kimyoviy nazorat olib boriladi. Texno-kimyoviy nazoratdan olingan ma'lumotlar tayyor mahsulotlar va chiqindilarni chiqish unumini hisoblash, keltirilayotgan xom ashyo, tayyor mahsulot va ishlab chiqarishdagi yaroqli chiqindilarining sifat ko'rsatkichlarini namoyon qiluvchi jadvallar tuzish uchun ishlatiladi. Bu nazorat natijalarining aniqligi ko'pincha namunalarni olish va qisqartirishni to'g'ri bajarilganiga bog'liq, chunki mahsulotdan olingan ozgina namuna laboratoriyada analiz qilinib, undan olingan natijalar saqlashga yoki qayta ishlashga keltirilgan hamma xom ashyonini, hamda olingan tayyor mahsulot yoki ishlab chiqarish chiqindilarining sifatini o'zida namoyon qilishi kerak.

Ma'lumki, har bir turkum urug', shrot va kunjaralarni qandaydir darajada bir jinsli tarkibga ega deb bo'lmaydi. Masalan: korxonaga keltirilayotgan urug'lar tarkibi yirik va mayda fraktsiyalardan hamda iflos aralashmalardan iborat. Urug'larni avtomashinalarda yoki vagonlarda tashish jarayonida o'z-o'zidan xillarga ajralishi yuz beradi: bir muncha kichik va yengil fraktsiyalar chet qismlarda katta va og'ir fraktsiyalar o'rtada yig'iladi, bu esa maqbul namuna olishni qiyinlashtiradi. Xuddi shunday holat, urug'larni qayta ishlash jarayonida, masalan chaqilma, mag'iz, qobiqlarni transportyorlarda tashishda ham hosil bo'ladi. SHuning uchun, sifat butun turkumning sifatiga mos keladigan namunani ajratib olish maqsadida namuna olish qoidalari ishlab chiqilgan.

Namunani miqdori va namuna olishning davriyligi materialni turiga (urug', uni qayta ishlashdagi oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulot) bog'liq bo'ladi.

Namunalar moyli urug'lar, kunjara va shrotning har bir turkumidan olinadi. Ulardan boshlang'ich namuna tuziladi, undan esa o'rtacha namuna olinib analiz qilinadi.

Ishlab chiqarishni nazorat qilishda oraliq mahsulotlar (chaqilma, yanchilma, qovurma, mistsella va boshqalar), chiqindilar (shulxa), tayyor mahsulotlar (moy) dan olingan namunalar ham birlashtiriladi va o'rtacha namunagacha qisqartiriladi.

Yog', erituvchi va mistselladan olingan namunalar bir idishga quyiladi va kerakli miqdorgacha qisqartiriladi.

**Xom ashyonini qabul qilishda namuna olish-** Yog'-moy sanoatida saqlash va qayta ishlash uchun kelayotgan o'simliklarning moyli xom ashylarini sifatini nazorat qilish katta ahamiyatga ega. Urug'larni qabul qilish va saqlashdagi texnik nazoratning maqsadi korxonani amaldagi Davlat standartlari talabalariga javob beradigan sanoat moyli xom ashysi bilan ta'minlashdir.

Har bir vagon, yoki alohida urug' navining turkumidan qo'lda yoki ko'chma namuna olgich yordamida kamida **20** joydan turli chuqurlikda namuna olinadi. O'rtacha xom ashyo namunasining umumi og'irligi **2** kilogrammdan kam bo'lmasligi kerak. Avtomashina yoki pritseplardan kamida **4** joydan namuna olinadi.

Agar chigit qo'shni paxta korxonasidan transportyor lentasi yordamida uzlusiz kelib tursa har 2 soatda **400-600** g atrofida namuna ajratib olinadi.

Olingen va kerak miqdorgacha qisqartirilgan namunalar qopqoqli bankalarga joylashtirilib, banka etiketkasiga ta'minlovchi tashkilot nomi, chigit navi va turi, turkum raqami yoki temir yo'l hujjatlari raqami, kun va namuna olingen joy yozib qo'yiladi.

**Saqlanayotgan xom ashyodan namuna olish**-Saqlash uchun moyli urug'lar qabul qilinganda alohida urug'lar bilan emas balki moyli urug'larning katta massasi bilan ish ko'rildi. Urug'li massa o'simliklarning botanik turkumidan tashkil topgan bo'lib uning nomiga binoan nazorat qilinayotgan partiya nomi belgilanadi. Urug'lar partiyasi bu bir xujjat bilan qayd qilingan va qabul qilishga, topshirishga yoki bir omborxonada saqlashga yoki omborxonaning bir qismida saqlashga mo'ljallangan hamda birlamchi urug'larning miqdoridir. Urug'lar partiyasi uchun ikki narsa xosdir: birlamchilik va miqdoriy aniqlik. Xaqiqiy massa aniq bo'lmasligi mumkin, lekin urug' massasi egallagan hajm chegaralari aniqlangan bo'lishi kerak (misol uchun urug'lar etalon yoki guruxi va b.).

Qishloq xo'jaligi o'simliklarining moyli urug'lari xalqaro sotuvida qo'llaniladigan xalqaro analiz qoidalariga muvofiq partiyadagi urug'lar soni cheklangandir (o'lchami bo'yicha bug'doy urug'iga o'xshash yoki undan katta urug'lar 20 t dan oshmasligi kerak, undan kichkina bo'lgan urug'lar uchun -10 t). Belgilangan me'yordidan ko'p bo'lgan urug'lar zaxirasini aloxida partiyalarga bo'lism ruxsat etiladi. Bu narsa urug'lar partiyasi sifatini yanada aniqroq aniqlash uchun taklif qilingan. Urug'lar partiyasi belgilari bo'yicha (urug'larning botanik turkumga tegishliligi, boshqa aralashmalarning mayjudligi) aralashma deb ko'riliши zarur.

Masalan: agar urug'ning botanik turkumga tegishliligin oladigan bo'lsak unda asosiy toza o'simlik urug'laridan tashqari boshqa o'simliklar va ularning urug'lar, iflosliklar mavjud bo'ladi.

Partiyani umumiy qilib olganda ko'rsatilgan to'rt komponent aralashmasi desa ham bo'ladi. Ideal birlamchi partiyada aralashmalar partiya bo'ylab bir tekisda tarqalgan bo'lar edi va buning natijasida partiyaning xoxlagan yeridan olingen nuqtali na'muna partiyaning boshqa joyidan olingen va nazorat qilinayotgan (taxlil qilinayotgan) namuna bilan bir xil bo'lar edi. Xaqiqiy sharoitlarda urug'larning sifati xar xil bo'lganligi tufayli urug'lar partiyasining bunday ko'rinishlari uchramaydi. Xattoki asosiy o'simlikning urug'lari o'lchami, tashqi ko'rinishi, namligi, moyliligi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha bir xil emas. Urug'lar massasi komponentlari tasodifiy bo'linish qoidasiga binoan tarqalgan deb xisoblash qabul qilingan. SHuning uchun ishlab chiqarishda nuqtali na'muna olishning seriyasi qo'llaniladi.

Urug'li massadan nuqtali na'munalar qo'lda konusli, pnevmatik va tsilindrli namuna oldagi qurilmalar yordamida yoki mexanizatsiyalashgan usulda avtomatik, pnevmatik va mexanik qurilmalar yordamida olinadi.

Urug'li massaga shchuplar yopiq holda kiritiladi. Kerakli chuqurlikda shchuplarning ushlaydigan joyidagi uzugi tortilib ochiladi va u moyli urug'lar bilan to'ldiriladi. Keyin shchup yopilib urug'li massa ichidan olinadi.

SHchuplar yordamida nuqtali namunalar olish juda murakkab va ishslash quvvati kam bo'lgan mexnatdir, shuning uchun belgilangan na'muna olish qoidalaridan cheklanishlar yuz beradi. Urug'lar avtomashinalarda kelganda nuqtali namuna olish shchuplar yordamida namuna olishdan tashqari pnevmatik namuna oluvchi qurilmalar (PSHD, PPD, UirNIIMP va b.) yordamida bajarilishi mumkin.

Paxta chigit yopiq omborlarda va ochiq maydonchalarda piramida holida saqlanayotganda ulardan elementar namunalar maxsus shchuplar yordamida olinadi.

Elementar namunalar piramidaning barcha tekisliklaridan har **4m<sup>2</sup>** yuzadan bittadan **10 sm, 1 va 2 m** chuqurlikda olinadi.

Yopiq omborxonalardagi chigitdan ham elementar namunalar shchup yordamida har **25 m<sup>2</sup>** yuzadan uch chuqurlikda, mahsulot sathidan 10 sm chuqurlikda, shchupning yarim va to'liq uzunligiga teng chuqurliklardan olinadi.

Ajratib olingan namunalar aralashtirilib, **2 kg** atrofida laboratoriya namunasigacha qisqartiriladi.

**Xom ashyodan ishlab chiqarishda namuna olish**-Sanoatda elementar namunalarni qo'lida yoki avtomatik namuna tanlagichlarda olinadi.

Elementar namunani qo'lida olishda urug oqimining kengligi va qalinligi bo'yicha tushish joylaridan kesib chiqish yo'li bilan ajratiladi.

Yirik korxonalarda elementar namunani smena davomida kamida 6 marta olinadi; qolgan korxonalarda smena davomida kamida **4** marta olish tavsiya etiladi. Elementar namunalardan smenaning bosh namunasi tuziladi va uni diagonal bo'lish yo'li bilan laboratoriya namunasigacha **/2 kg** atrofida/ qisqartiriladi.

**Analiz uchun tortmalarni ajratish**-Analiz uchun tortmalarni o'rtacha namunadan ajratiladi. Laboratoriya va o'quv-tadqiqot ishlarini bajarganda talaba tadqiqoti uchun berilgan namuna o'rtacha namuna hisoblanadi.

Tajriba uchun urug' namunasi diagonal bo'lish usuli yoki **D-2** uskunasi yordamida ajratiladi. Bo'lish uskunasida **50g** va undan ko'p tortma ajratib olinadi. Kichik namunalarni olish uchun ajratilgan namunani diagonal bo'lish usulidan foydalilanadi.

Agar ajratilgan tortmada talab etilganga nisbatan **10%** ko'p urug' bo'lsa, u holda ortiqcha urug'ni quyidagicha olib tashlanadi. Tortmani tekis yuzaga to'kiladi, yupqa qatlam qilib tekislanadi, ortiqcha urugni kurakcha bilan turli joydan olinadi.

**3.2. Suyuq, qattiq moylar vasovunlardan namuna olish.** Yog'-moy korxonalariga qabul qilinayotgan o'simlik va hayvon yog'lari va moylar (oziq-ovqat va texnik) nazorat qilinishi kerak bo'ladi. Nazorat qabul qilinayotgan yog' va moylarni alohida-alohida partiyalarga bo'lib ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Yog' va moyni partiyalarga bo'lish deb, ularni bir xil naviga, turiga, bir vaqtida qayta ishlanganiga va ishlab chiqarilganiga, bitta transportda jo'natilganiga va sifat ko'rsatkichlari bitta xujjatda ko'rsatilganiga qarab bo'lishga aytildi.

Masalan: yog' va moylarni jo'natish temir yo'l vagonlarida yoki avtotsernalarda amalga oshirilganda, o'sha har bir avtotsisterna **1** ta partiya deb qabul qilinadi.

Har bir nuqtadan namunalar olish **GOST 5471-83** bo'yicha yog' va moylarni qabul qilib olishda va ularni korxonadan jo'natishda amalga oshiriladi.

Ammaliyotda namunalar olishda ko'p qo'llaniladigan hol – bu yog' va moylarni idishlardan trubao'tkazgichlar orqali bir joydan ikkinchi joyga haydashda turg'un namuna olgich shtutserlar orqali namuna olishdir.

Namuna olish haydash vaqtı davomida uzliksiz va bir me'yorda olib boriladi. Olingan namunalar berilgan moy partiyasining o'rtacha namunasi hsoblanadi. Olingan o'rtacha namunalarni VNIIJ – **9** ajratgich uskunasiga solib, undan analiz uchun ajratib olinadi.

Olingan **11** namuna oldindan yaxshilab yuvilgan va quritilgan **2** ta butilkaga solinadi.

**1 ta butilka qopqog'i yopilib 40 kun** qorong'i va quruq joyda saqlash uchun olib qo'yiladi. 40 kundan keyin bu butilka qayta analiz qilish uchun ishlatiladi.

**2 chi butilkadagi moy analiz qilish uchun beriladi.** Analizga berilgan butilkada yog'ni nomi, navi, kuni va analiz uchun olingan namuna joyi, namunani olgan shaxslarning familiyasi va imzosi yozilgan yorliq bo'lishi kerak. Agar namuna boshqa joyga jo'natilayotgan bo'lsa, unda yuqoridagilarga yorliqqa bajaruvchining nomi va transport hujjatining raqami yoziladi.

Yog' va moylarni baklardan namunalarini olish uchun trubali namuna olgichlar ishlatiladi. Ularni ishlashi quyidagicha: uzunligi **2 m** cha bo'lgan truba yog' yoki moyga botiriladi va pastki qismidagi qopqog'i yopilib analiz trubaga yig'ib olinadi.

Bulardan tashqari vertikal appartlardan namunalar olish uchun avtomatik namuna olish uskunalarini keng qo'llaniladi.

**Qattiq yog'lardan namunalar olish (margarin, konditer yog'lari, kulinar yog'lari)** Qattiq yog'larni ishlab chiqaruvchi korxonada uni sifatini nazorat qilish uchun ulardan analiz uchun namunalar olinadi.

Olinadigan namunalar **har 1 yoki 2 t mahsulotdan 1 pachka** margarin yoki yog' miqdorida bo'ladi.

Bu namunalar agar margarin yoki yog' pachkalarda qadoqlangan bo'lganda olinadi. Agar margarin boshqacha (**20 kg** li korobkalarda qadoqlangan bo'lsa) qadoqlangan bo'lsa unda har bir tonna mahsulotdan **200 gr** cha namuna olinadi. Agar **6 t dan** kam partiya bo'lsa, umumiy qilib **4 ta** qadoqlangan miqdorida olinadi. Pachkalarga qadoqlangan margarin yoki qattiq yog'dan olinadigan namuna partiyasi **4 t dan** oshiq bo'lganda, har **1 t uchun 1 pachka** miqdorida, partiyasi **4 t dan** kam bo'lganda **4 ta pachka** miqdorida namuna olinadi. Margarin namunalari shchuplar yordamida olinadi. SHchupda olingan barcha namunalar bankaga solinadi va qopqog'i yopilib eritish uchun issiq suvga (**40-50°S li**) solib qo'yiladi. Agar olingan margarin yoki yog' namunasi **200 gr.** dan oshib ketgan taqdirda ular laboratoriya aralashtirgichiga solinadi va u yerda yaxshilab aralashtirilib analiz qilish uchun **200 g** miqdorida ajratib olinadi. Olingan namunalarni saqlanish muddati sovitgichda harorat **0°dan 4° S gacha bo'lganda 5 kundan** oshmasligi kerak.

**Qattiqsovunlardan namuna olish-** Qattiqsovun partiyasi deb, bir vaqtida ishlab chiqarilgan, bir xil navli, bir xil nomdagi va bitta korxona ishlab chiqargan va bir vaqtida ishlatishga tavsiya etilgan aniq bir miqdoriga aytildi.

Sovunlarni sifatini tekshirish uchun ularni ishlab chiqarilgan har bir partiyasidan analiz qilish uchun namunalar olinadi. **Atirsovuni uchun 3 % upakovka birligida** namuna olinadi. **Kirsovun uchun – 1% upakovka birligida** namuna olinadi. Har bir partiya uchun olinadigan namuna **3 upakovka** birligidan kam bo'lmasligi kerak. Analiz uchun har bir upakovka birligidan o'rtasidan **atirsovun uchun 1 bo'lak, kirsovun uchun esa 3 bo'lak** namuna olinadi. Har bir partiya uchun olingan namunalar miqdori (analiz qilishda) **o'rtacha 600 g** ni tashkil qilishi kerak. Sovundan namuna olishda metall trubka (**uzunligi 100 mm va diametri 5-10 mm**) ishlatiladi. Metall trubka yordamidasovun bo'lagidan:

Atirsovun uchun 4 joyidan: o'rtasidan 2 ta va chekka qismlaridan 2 ta namuna olinadi.

Kirsovundan o'rtasidan 1 ta va chekka qismidan 1 ta namuna olinadi.

Sovunlarni analizi uchun namuna olishni yana bir usuli ularni bo'lagini yarmini maydalash va ularni diagonal bo'lish orqali analiz uchun kerakli qismini olishdan iborat.

**3.3. Kunjaradan, shrotdan va gorchitsa kukunidan namunalar olish.** Kunjara va shrotdan namunalar olish ularni vagonlarga ortishda yoki tushirishda avtomatik namuna olish uskunalarini orqali amalga oshiriladi. Yana namuna olish ombordan kelayotgan kunjara yoki shrotdan vagonlarga tushish joyidan amalga oshiriladi. Namuna har bir tonna **kunjara yoki shrot uchun 250 g** miqdorida olinadi. Lekin umumiy olingan namuna har bir partiya uchun **2,5 kg dan** kam bo'lmasligi kerak. Agar kunjara qoplarga yuklangan bo'lsa, namuna har bir beshinch qopdan **0,5 kg** miqdorida olinadi. Namuna qopdan konussimon shchup yordamida ustki qismidan, o'rtasidan va pastki qismidan olinadi. Olingan namunani umumiy miqdori **1 t uchun 1 kg** dan kam bo'lmasligi kerak.

SHrotdan namuna olish har bir **10 chi** upakovkadan amalga oshiriladi. SHrotdan ham xuddi kunjaradagi kabi namuna olinadi.

**Gorchitsa kukunidan namuna olish-Har** bir partiya gorchitsa kukunidan **15 % upakovka birligida** namuna olinadi. Har bir partiyadan olinadigan namuna miqdori **4 ta upakovkadan** kam bo'lmasligi kerak. Pachkalarga qadoqlangan gorchitsa kukuni har bir partiyadan kamida **10 pachka** namuna olinadi. Olingan namunalarni pachkalari ochilib, ular yaxshilab aralashtiriladi. Agar gorchitsa kukuni qoplarga joylangan bo'lsa, ularni har bir qopidan shchup yordamida **100 g gacha** namuna olinadi.

Olingan kunjara **100 mm** qalinlikda yoyilib, diagonal bo'lish orqali analiz uchun **2,5 kg** kunjara ajratib olinadi. Olingan namuna laboratoriya tegirmonida teshiklari **3 mm** bo'lgan elakdan o'tadigan bo'lguncha maydalanadi.

SHrotni va gorchitsa kukunini namunasini qisqartirish xuddi yuqoridagidek usulda olib boriladi, lekin ular yanchilmaydi va elanmaydi.

**3.4. Moyli urug'larni namligini analiz qilish usullari.** Namlik moyli xom ashyoning sifatini baxolashda eng muxim ko'rsatkich xisoblanadi. quruq urug'larnigina saqlash mumkin. urug' massasida namlik oshishi bilan, undagi mikroorganizmlar rivojlanishi birdan oshadi, urug'ning nafas olishi kuchayadi.

Xom ashyoning ortiqcha namligi, uni qayta ishlashga ham yomon ta'sir qiladi. Material namligi har hil usullar bilan aniqlanadi (pryamoy – bevosita, kosvennoy – bilvosita).

**Bevosita usulda** - namligi aniqlanayotgan material tarkibidagi namlik bug' holatga o'tkazilib miqdori aniqlanadi yoki material tarkibidagi namlikning kimyoviy reagentlar bilan ta'siriga qarab baholanadi.

**Bilvosita usul** - bevosita usulga nisbatan **bilvosita usul** oddiy va qulay hisoblanadi. Bunda namlik emas balki quruq modda miqdori yoki material namligiga funktional bog'langan ko'rsatkich baholanadi. Bunday usullarga quritish usullari (termografimetrik usullari); refraktometrik usullari; material zichligini o'lchamiga asoslangan usullari; elektrik usullari; materiallarning dielektrik singdiruvchanligini yoki uning elektr o'tkazuvchanligiga asoslangan.

**Namlikni aniqlashda** - materiallarni quritish uchun keng ko'lamda qo'llaniladi. Bunda namlik bug' holatiga o'tkazilib, keyin havo bilan chiqarib yuboriladi. Ko'pgina materiallarni uchun namlikni bug'ga aylantirish oddiy sharoitda qizdirish bilan olib boriladi. Texnik mustahkam bo'limgan mahsulotlarni qizdirish mumkin emas, shuning uchun ularni past yoki xona xaroratida yoki vakuumda quritiladi. Mahsulotning namlik miqdori olingan mahsulot og'irligi va shu mahsulot quritilgandan keyingi og'irligi farqiga nisbatan topiladi.

Mahsulotni quritilayotganda suv bug'lari bilan yengil uchuvchan moddalar ham chiqib ketadi: past malekulali organik kislotalar, yog'li efirlar, korbonat angidrid **SO<sub>2</sub>** va boshqalar. Aniqlanayotgan materiallarning oksidlanayotgan qismiga kislород birikadi, birinchidan to'yinmagan yog' kislotalariga. Ayniqsa quritish shkaflarida yuqori xaroratda moyga boy mahsulotlar quritilganda oksidlanish jarayoni kuchli ketadi. Mahsulotdan issiqlik yordamida namlik bug'latilganda uning bilan quruq moddalar ham yo'qoladi va shuning hisobiga uning og'irligi boshida kamayib ketadi. Kislород birikishi natijasida qurigan modda miqdori oshadi. SHuning uchun ham ishlab chiqarishda namlikni aniqlash usullari o'ziga hos xarakterga ega, ularning natijalari bir – biridan farq qiladi.

Oksidlanish jarayoniga yo'l qo'ymaslik uchun quritishni inertsiz atmosferasida olib borish kerak. Namligi tekshirilayotgan materialni quritishda gidrolitik va oksidlanish jarayonlarining oldini olish uchun, oldindan muzlatib qo'yilgan mahsulotni vakuumda quritib liofil' quritishni tashkil qilish kerak. Bunday vaqtida ham liofil' quritish suv bug'lari bilan birga boshqa uchuvchan moddalar uchmasligini kafolatlay olmaydi.

SHuning uchun ham moyli urug'larni, ularni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarni, yog' moy korxonalarining tayyor mahsulotlari va chiqindilarini namligini aniqlashga kuchli talab, yechilmaydigan masala hisoblanadi. Bu suvning biologik sistemadagi gidrofil' va hidrofob komponentlari bilan bir hil bog'lanishlar hosil qilishi bilan tushuntiriladi.

SHuning uchun oldimizga maqsad qilib qo'yilgan natijalarni olish uchun, quritish sharoitlarini kuchli kuzatishimiz kerak: quritish xarorati, namuna og'irligi, quritilish vaqt, mahsulotning maydalanganligi, o'lchash uchun ishlatiladigan stakan (byuks)ning o'lchami va shakli, quritish shkafida havoning tezligi va yana quritish shkafi yoki qurilmaning turi va o'lchamlari. Bu hamma shart – sharoitlar Davlat standarti tomonidan mos keluvchi reglament holiga keltirilgan.

**Quritishga asoslangan usullar.** Quritishga asoslangan usullar quydagi usullarga ajraladi: standartda ko'rsatilgan vaqt mobaynida quritish usullari va mahsulotni o'zgarmas og'irlikkacha quritish usullari.

Tez oksidlanadigan materiallar uchun doimiy og'irlikkacha vakuum ostida ( $\pm$  inert gaz) **68–70°C** gacha yoki past xaroratda quritish usulidan foydalaniladi.

**Refraktometrik usullar.** O'zida suvni yaxshi erituvchi materiallardan namlikni ajratishga,

suyuqlikdagi suv eritmasining koeffitsientini aniqlashga asoslangan.

Dina va Starka uskunasi yordamida namlikni bevosita haydash usuli. Erituvchi tarkibidagi namligini aniqlash uchun ishlataladi. Bu usulni bajarish oson va kam vaqt talab etadi, agarda namuna miqdori ko'p olinsa yetarlicha aniq natijalar beradi.

Kamchiliklari: suv va suyuqlikning aralashib ketishi namunani ko'p miqdorda ishlatalishi.

**Psixrometrik usullar.** Tekshirilayotgan modda orqali o'tayotgan havo namligini o'zgarishiga asoslangan. Urug' qatlami orqali o'tayotgan havo namligi va qatlamga kelayotgan havo orasiga dinamik muvozanat o'rnatiladi. Tekshirilayotgan material orqali o'tayotgan havo oqimi tezligi, xarorati va material xarorati orqali material namligi aniqlanadi.

Laboratoriyada moyli urug'lar namligining massa ulushini turli xil usullar, quritish shkafida quritish orqali va namo'lchagich (vlagomer) yordamida aniqlanadi.

**Namlikning massa ulushini quritish shkafida quritish orqali aniqlash- Umumiy tushunchalar.** Bu aniqlashni ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: urug'larni quritish shkafida, standartga mos ravishda, ma'lum bir vaqt davomida ushlab turish va shuningdek, urug'larni quritish shkafida doimiy og'irlikkacha quritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Analiz uchun olingan tortmani elektr quritish shkafida 40 daqiqa davomida,  $130^{\circ}\text{C}$  haroratda quritish, moyli urug'lar namligining massa ulushini aniqlashning asosiy usulidir. Yeryong'oq, kanakunjut va soya urug'larini quritishdan oldin 2mm qalinlikdagi bo'laklarga bo'llib, keyin quritiladi. Boshqa hamma moyli urug'lar butunligicha quritiladi.

Moyli urug'lar namligi (chaqilmagan yeryong'oq, meva danaklari, pal'ma mag'zi va kokos yong'og'inining mag'zi bundan mustasno) 18%dan oshsa, ularni oldindan biroz quritib olib, keyin aniqlanadi.

Kokos yong'og'inining mag'zi va pal'ma mag'zidagi namlikning massa ulushini quritish shkafida,  $70^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'limgan haroratda, doimiy og'irlikkacha quritish orqali aniqlanadi.

**3.5.Moyli urug'lar va meva danaklarini mineral va organik aralashmalar hamda moyliligini analiz qilish.** Saqlash va qayta ishlash uchun kelayotgan moyli urug'lar tarkibida iflos va moyli aralashmalar bo'ladi. Iflos aralashmalar mineral (tuproq, qum, tosh) va organik (puch chigitlar, shoxchalar, barglar, urug' qobig'lari, yot urug'lar) aralashmalarga bo'linadi.

Moyli aralashmalarga zararlangan moyli urug'lar, noto'g'ri saqlash va quritishda buzilgan urug'lar, boshqa yog'li urug'lar kiradi.

Zararlangan va buzilgan urug'lar o'zining tashqi va ichki kamchiliklari bilan ajralib turadi.

Tashqi kamchiliklari bo'lgan urug'larga o'z-o'zidan qizish natijasida buzilgan, mog'orlangan, zararkunandalar tomonidan zararlangan, kuygan, singan urug'lar kiradi. Bunda hamma urug'lar moyli aralashmalar tarkibiga kiradi. SHuning uchun ham moyli aralashmalarning tashqi kamchiliklарини aniqlash uchun, uni ajratish taxtasiga yoyib qo'lda mexanik zararlangan va buzilgan urug'larni ajratib olamsiz, qolgan urug' massasini tortib umumiyl massaga nisbatan foizini hisoblaymiz.

Ichki kamchiliklarni bilish uchun urug' chaqilib quritilishi kerak.

**Iflos va moyli aralashmalarining massa ulushini aniqlash**-Ishlab chiqarishga kelayotgan urug'lar tarkibida bir mucha miqdorda iflos va moyli aralashmalar bor. Iflos aralashmaga mineral (tuproq, qum, tosh, shlak, mayda tosh) va organik (cho'p, barglar, poyalari, boshqa moyli urug'lar, luzga, shulxa, puch urug'lar, o'z-o'zidan qizish natijasida kuygan urug'lar) aralashmalar kiradi. Moyli aralashmalarga ezilgan, urilgan, zararkunandalar tomonidan zararlangan, mog'orlangan, kasalliklarga uchragan urug'lar kiradi.

**Urug'larni hajmiy (uyma) og'irligini aniqlash-** Hajmiy (uyma) og'irlik deb, ma'lum bir hajmdagi to'kiluvchan material og'irligiga aytildi. Parallel aniqlashlar orasidagi farq **10g/l** dan oshmasligi kerak.

**Meva danaklari va urug'larining moyliligi**-Xom ashyo tarkibidagi lipidlar miqdoriga qarab moyli xom ashyoning sifati, uni qayta ishlash usullari aniqlanadi. Aniqlangan lipidlar miqdori, lipidlarning miqdorini aniqlash, ularning fizik xossasiga asoslangan, yani organik erituvchida erish qobiliyatiga.

**Lipid deb** – suvda umuman erimaydigan, polyar emas yoki kam polyarli erituvchilarda

**(geksan, benzin, dietil va petroleyn efirlari, xloroform, to'rt xlorli uglerod, benzol)** yaxshi erimaydigan birikmalarga aytildi.

Lipidlarning polyar emas kam polyarli organik erituvchilarda yaxshi erishini va moyli xom ashvo tarkibidagi organik birikmalardan asosan ajralishini ta'minlaydi. Moyli xom ashvo (urug') va uning mahsulotlari (yanchilma, qovurma kunjara, shrot) ni qayta ishlaganda lipidlarning bir qismi, xom ashyoning lipidmas qismiga (oqsil, uglevod) kuchli kimyoviy bog' bilan bog'langan bo'ladi, bu bog'ni uzish uchun yog'sizlantirilgan materialni qo'shimcha ishlash kerak.

Lipidlarni qayta ishlash, ularni urug'larning lipidmas qismi bilan bog'lanish kuchiga qarab tez ajraluvchan (erkin), qiyin ajraluvchan (bog'langan) va kuchli bog'langan holatlarga bo'linadi. Agar erkin lipidlarni ajratib olish uchun, moyli xom ashyonini maydalab xona xaroratida polyar emas erituvchi bilan qayta ishlash yetarli bo'lsa, bog'langan va kuchli bog'langan lipidlarni ajratish uchun, lipidlarning urug'lar lipidmas qismi va yana oqsillar, uglevodlar orasidagi kimyoviy va fizik – kimyoviy bog'larni buzish kerak. Bunga erishish **uchun maydalangan mahsulotni etil spirti, xloroform atseton yoki ularni eritmalari bilan** qayta ishlash kerak. Lipid va lipidmas komponentlar orasidagi bog'larni qisman buzish uchun issiqlik va namli issiqlik bilan maydalangan mahsulotga ishlov berish kerak. Lipidlarni eng ko'p ajratib olish uchun, ya'ni kimyoviy bog'langan lipidlar bog'larini uzish uchun yuqori xaroratda spirtli ishqor eritmasida maydalangan material qayta ishlanadi. Bu xolatda ishqor va lipid birikmasi gidrolizga uchraydi va ekstraktga gidroliz mahsuloti ya'ni erkin yog' kislotalari ishqoriy metallar tuzlari ko'rinishida o'tadi.

Moyli mahsulotdan olinayotgan lipidlarning tarkibi va miqdori yog'sizlantirishga tayyorlashga, yog'sizlantirish usullari va shartlariga, ishlatilayotgan erituvchi turiga qarab ko'p miqdorda o'zgarishi mumkin. Urug'lardagi asosiy lipid massasini erkin lipidlar tashkil etadi. Ular moyli material bilan kuchsiz bog'langan bo'ladi. Moyli xom ashymda erkin lipidlardan tashqari fiziologik roli, kimyoviy tuzilishi va tarkibi har hil bo'lgan strukturali lipidlar ham bor. Strukturali lipidlar urug'larning lipidmas qismi bilan bog'lagan, bular bog'langan va kuchli bog'langan lipidlar hisoblanadi.

Ular ichida ko'pgina muhim biologik birikmalar, fosfolipidlar, yog'da eruvchi vositalar (tokoferol, vitamin K), provitaminlar (karotinoid, sterol), yog'da eruvchi pigmentlar bo'ladi.

Qayta ishlayotgan urug'larga texnologik ta'sir natijasida, moyli materiallar tarkibidagi struktura lipidlari va lipidmas qism orasidagi bog'lanish energiyasi kamayadi. Urug'larga xaroratning ta'siri struktura lipidlari bog'larining kuchsizlanishiga olib keladi va ularni oson ajralib chiqadigan shaklga o'tkazadi. Ishlab chiqarishda presslash usulida yuqori bosim bilan siqish, ekstraksiya usulida esa organik erituvchilar ta'siridan foydalilaniladi. Aksinchalik, erkin lipidlar texnologik qayta ishlanganda oksidlanib qisman gidrolizlanib qiyin ajraladigan xolatga o'tadi. Bu lipidlar urug'larni qayta ishlashda hosil bo'ladigan qoldiq moyni tashkil qiladi. Moyli urug'larda va ularni qayta ishlashda xosil bo'lgan mahsulotlarda, tarkibida moy bo'lgan material va yog' xamda yog'-moy korxonalarini chiqindilari tarkibidagi lipid miqdorini aniqlashning juda ko'p usullari ma'lum.

Ishlab chiqarish amaliyotida moylilik deganda hamma lipidlar yig'indisi tushiniladi, ya'ni triatsilglitserinlar va ularga ergashib keluvchi moddalar (fosfolipidlar, karotinoidlar, sterollar, tokoferollar). Lipidlar yig'indisini ekstraksiyalashda ko'pincha dietilefirdan foydalilaniladi, chunki uning qaynash xarorati past ( $35,0^{\circ}\text{C}$ ), aralashmalardan tez ajraladi regeneratsiyalanadi. Erituvchi yordamida aniqlanayotgan modda o'zgaruvchan tarkibli erkin va struktura lipidlari aralashmasidan iborat, bu tarkib erituvchi tabiatini va tozaligiga ham bog'liq. Erituvchi hamda moyli material takibidagi suv moylilikni aniqlash natijalarini oshiradi, bu struktura lipidlarining ekstraktga yepishib va lipidlar bilan bog'langan oqsillar, uglevodlar, mineral elementlar va boshqalarni suvli eritmada erishi hisobiga bo'ladi. Moyli material moyliligini to'g'ri aniqlash uchun ekstraksiyadan oldin moyli material va erituvchidagi suv miqdorini yo'qotish, ya'ni quritish kerak. Moyli mahsulotlar ekstraksiyadan oldin quritish o'rniga suvni o'ziga tortuvchi birikmalar bilan ishqalanadi (**Cu SO<sub>4</sub>, alibastr**).

*Tayanch so'z va iboralar.*

Namuna olgich, avtomashina, transportyor lentasi, omborxona, yopiq omborxona, analiz uchun tortmalar, suyuq, qattiq moylar, sovunlar, kunjara, shrot, gorchitsa kukuni, bevosita usulda, bilvosita usul, refraktometrik usullar, psixrometrik usullar, meva danaklari va urug'larining moyliligi.

#### **Takrorlash uchun savollar.**

- 1.Xom ashyo va materiallardan namuna olish qanday olib boriladi?
- 2.Suyuq yog' va moylardan namuna olish usullarini tushuntirib bering?
3. Qattiq yog'lardan namunalar olish qanday amalga oshiriladi?
- 4.Qattiq sovunlardan namuna olish usullari qanday?
- 5.Kunjajaran, shrotdan va gorchitsa kukunidan namunalar olish qanday olib boriladi?
- 6.Moyli urug'larni min.organik iflosligi qanday aniqlanadi?
- 7.Moyli urug'larning namligi va moyliligi qanday aniqlanadi?

#### **4- MA'RUZA. O'SIMLIK MOYLARINI ISHLAB CHIQARISHNI ASOSIY JARAYONLARINI NAZORAT QILISH**

##### **Reja:**

- 4.1. Moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va saqlashni nazorat qilish.**
- 4.2. O'simlik moylarini ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari.**
- 4.3. Moyli urug'larning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish.**
- 4.4. Paxta tozalash korxonalaridan keltirilgan paxta chigitini konditsion vaznini hisoblash.**

**4.1. Moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va saqlashni nazorat qilish.** Yog'-moy sanoatida qayta ishlanayotgan barcha moyli urug'lar korxonalarga to'g'ridan-to'g'ri shirkat va fermer xo'jaliklaridan olib kelinadi. paxta chigit esa yog' ishlab chiqarish korxonasiga paxta tozalash korxonalaridan yetkazib beriladi. keltirilgan har bir urug' turkumi o'zining sifat ko'rsatkichlari namlik, nuqsondorlik, moylilik, paxta chigit esa tukdorlikka ega bo'ladi. bular urug' sifatini belgilaydi.

Qabul qilingan har bir urug' turkumidan olingan namunalar analiz qilinadi. Olingan laboratoriya analizi natijalari urug'likning sertifikatidagi ko'rsatgichdan farqli bo'lsa, xomashyo yuboruvchi va qabul qiluvchi tashkilot o'rtasida bu farq o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agar ikkala tomon bir fikrga kelisha olmasa, bu masala orbitraj orqali hal qilinadi.

Moy ishlab chiqaruvchi korxonalarga kelayotgan urug'lar turli namliligi va iflos aralashmalar miqdorining har xilligi bilan xarakterlanadi. Urug'lar yetishtirilgan hududda ob-havo sharoiti va turiga qarab namligi **6 dan 20,0%** gacha, iflos aralashmalar miqdori **1,5** dan **10,0%** gacha bo'ladi. Moyli urug'lardagi aralashmalar quyidagilarga bo'linadi: iflos aralashmalar (mineral va organik), moyli aralashmalar va metall aralashmalar. Mineral aralashmalarga tosh, qum, tuproq va b., organik aralashmalarga barg, o'simlik poyasi, qobiq, lat yegan (mag'izi qora rangli, buzilgan) urug'lar, boshqa yovvoyi va madaniy o'simliklarni urug'lari, puch urug'lar kiradi. Moyli aralashmalarga butunlay yoki qisman maydalanib ketgan asosiy madaniy o'simlik urug'lari, zararkunandalar tomonidan yemirilgan, urilgan, ezilgan, o'z-o'zidan qizib ketishi natijasida buzilgan, mog'orlagan, kuyishi natijasida mag'iz rangi o'zgargan, pishmagan (qirqilganda yashil rangli urug' pallasi bo'lgan) urug'lar kiradi. Urug'larni tarkibidagi namlik va iflos aralashmalar miqdorining ortishi ularni saqlashda va qayta ishslashda zararli hisoblanadi. namlik va iflos aralashmalar miqdori urug'larni saqlashda buzilishi jarayonini tezlashtiradi, qayta ishslash texnologik jarayonlarini olib borishni qiyinlashtiradi, olinayotgan tayyor mahsulotlarning sifatini

pasaytiradi. SHuning uchun ham urug'larni saqlashga va qayta ishlashga berishdan oldin tozalash va quritish kerak. Quritish qoida bo'yicha kritik namlikdan **0,2÷0,5%** kam bo'lguncha olib boriladi. Urug'ning kritik namligi ( $V_{kr}$ ), uning moyliligiga bog'liq va u quyidagi formula bo'yicha aniqlaniladi.

$$V_{kr} = \mathbf{14,5 (100-M)/100}$$

bu yerda: **M** – absolyut quruq modda hisobidagi urug'dagi moyning massa ulushi, % , **14,5** – urug'ning gel (moysiz) qismini kritik namligi, %

Urug'lar toza, quruq holatda, namligi kritik namlikdan **1-2%** kamroq bo'lsa, yaxshi holatda saqlanadi. Uzoq muddat saqlanadigan urug'larning namligi: kungaboqar – **6-8%**, paxta chigit – **9%**, soya – **12%**, raps – **8%** bo'lishi kerak. Urug'larni saqlashda doim harorat nazorat qilib turiladi.

Urug'larni tozalashdan maqsad – iloji boricha iflos aralashmalarni yo'qotish, paxta chigitida esa shu bilan birga puch chigtlarni ham yo'qotishdan iborat.

Qator tadqiqotlar, hamda ba'zi bir yog'-moy korxonalarida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, kungaboqar, soya, kanakunjut urug'larini o'lchamlari bo'yicha fraktsiyalarga ajratish yoki aerodinamik xususiyatlari bo'yicha tozalash maqsadga muvofiqdir. Bu operatsiyalarni qo'llash orqali urug' tarkibidagin saqlash uchun chidamsiz bo'lgan mayda fraktsiyalarni, xom va muzlagan urug'larni iflos va moyli aralashmalarni ajratib olinadi. Ajratib olingan mayda fraktsiyalarni birinchi navbatda qayta ishlash tavsiya etiladi. Aralashmalardan tozalangan yirik fraktsiya esa talabga javob beradigan sharoitda sifati buzilmasdan uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

Urug'larni o'lchami bo'yicha fraktsiyaga ajratish operatsiyasi tayyorlov tsexlarini ayrim texnologik operatsiyalar (chaqish, chaqilmani ajratish va b.)ni optimallashga sharoit yaratilishi hisobiga, ishini yaxshilaydi. Bundan tashqari urug'lar saqlashga va qayta ishlashga berishdan oldin tarozida tortiladi.

Paxta chigit murakkab tarkibga (qobiq ustidagi momiq, mag'zida mavjud bo'lgan rang beruvchi modda gossipol va boshqalar) ega bo'lgani uchun qabul qilish, saqlash va qayta ishlashda alovida texnologiyalarni qo'llashga to'g'ri keladi. Boshqa moyli urug'lardan farqli holda paxta chigit korxonaga keltirilganda uni namligi qayta ishlash uchun zarur bo'lgan optimal namlikdan past bo'ladi. SHuning uchun ishlab chiqarishga berishdan oldin u namlanadi. SHuningdek boshqa moyli urug'lar kabi tarozida tortiladi va iflos aralashmalardan tozalanadi.


O'simlik moylarini ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyasi moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va saqlashni, urug'larni siqib yog'ini olishga tayyorlashni, presslash va ekstraktsiyalash operatsiyalarini hamda moylarni birlamchi va kompleks tozalashni, shrotni qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

Xozirgi kunda moyli xom ashyodan 2 usulda moy olinadi:

Birinchi presslash usuli bilan taxminan umumiy moyning 3/4 qismi olinadi. Qolgan moy esa ekstraktsiya usuli bilan erituvchi yordamida olinadi.

**4.2. O'simlik moylarini ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari.** O'simlik moylarini ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari quyidaiglardan iborat: Transportda keltirilgan moyli urug'larni qabul qilish, yet jinslardan tozalash, namligini kamaytirish (quritish), saqlash, ishlab chiqarishga uzatish, yet jinslardan tozalash, urug'larni namligi va o'lchamiga qarab konditsiyalash, urug'larni chaqish va qobig'ini ajratish, yanchish, namlovchi-bug'lovchi shneklerda issiqlik va namlik bilan qayta ishlash, moyni presslab siqib olish, ekstraktsiyalanadigan lepestokli strukturani olish, presslangan moyni birlamchi tozalash, kunjarami ekstraktsiyalash, mistsellani qayta ishlash, shrotni qayta ishlash, quyqa ushlagich yordamida yog'ni tozalash, fil'trlash, shrotni qayta ishlash.

## Moyli urug'




Moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va qayta ishlash moyli xom ashyni qabul qilishdan, tortishdan, yetkazib berishdan; issiq havo yordamida quritishdan va urug'larning o'lchamlariga qarab fraktsiyalashdan iborat. Moyli xom ashylar fizik-mexanik tarkibiga qarab xar xil tipdagi omborlarda saqlanadi. Urug'larni saqlashdan maqsad ishlab chiqarishga to'xtovsiz ravishda xom ashyni yetkazib berish.

Korxonaga keltirilgan moyli xom ashylar, o'simliklarning urug'i va danagi sifati Davlat standarti tomonidan nazorat qilinadi. Chunki moyli urug'larga qo'yiladigan talablar o'zgarishi buyurtmachi va yetkazib beruvchiga bog'liq. Moyli urug'ning asosiy texnik kimyoviy sifat ko'rsatkichi deb moyli urug' massasi tarkibidagi namlik va mineral va organik iflos aralashmalar miqdori xisoblanadi. Moyli xom ashyni saqlashni nazorati texnik - kimyoviy nazorat tizimi (1-sxema) da aks ettirilgan.

### 1-sxema

#### Moyli xom ashyni saqlash uchun texnik - kimyoviy nazorat tizimi (xom ashyo sifati nazorat qilinadigan joy)



Tayyorlanayotgan xom ashyla talab qo'yishda 2 xil me'yor ko'rib chiqiladi. - Asosiy me'yorlar

## - **CHegaraviy me'yorlar**

**Asosiy me'yorlarga** javob beruvchi urug'lar deganda shunday sifatdagi urug'lar tushiniladiki, ularni saqlashda qo'shimcha ishlov berilmaydi va keyinchalik qayta ishlab sifati standartga javob beruvchi mahsulotlar olinadi.

**CHegaraviy me'yorlarga** javob beruvchi urug'lar deganda esa shunday sifatdagi urug'lar tushiniladiki, ularga ko'shimcha ishlov berib qayta ishlangandagina sifatli mahsulot olsa bo'lshi kerak. SHundagina moyli urug'larni qo'shimcha ishlovlarsiz oddiy omborlarda saqlash mumkin.

Ko'pgina moyli urug'lar uchun namlikning asosiy **me'yori 9 - 14 %** ni tashkil qiladi, bu urug'ning o'lchami va turiga bog'liq. Ba'zi urug'lar namligining asosiy me'yori.

Kunjut va chigit	- <b>9 %</b>
Eryong'oq, ko'knor, zig'ir	- <b>11 %</b>
Gorchitsa, raps, kungaboqar	- <b>12 %</b>
Maxsar, kanop	- <b>13 %</b>
Soya	- <b>14 %</b>

Bu namlik kritik namlikdan ortiqcha, shuning uchun ularni saqlashdan oldin quritish kerak.

Asosiy me'yor bilan aralashmalar ham nazorat qilinadi. Bular iflos aralashmalarga mineral (tuproq, qum, toshlar) va organik (barg, tayoqchalar, puch chigitlar, chigit qobiqlari va boshqa yovvoi o'simlik urug'lari) aralashmalar kiradi.

Moyli aralashmalarga shu moyli urug'ga ta'lulqli bo'lgan yanchilgan, zararkunandalar tomonidan zararlangan, unib chiqqan urug'lar kiradi. Davlat standartida xar bir moyli xom ashyo uchun undagi aralashmalarning ruxsat etilgan miqdori ko'rsatilgan.

Kungaboqar va ko'knori urug'lari uchun <b>iflos aralashmalarning asosiy me'yori</b>	- <b>1 %ga teng.</b>
Moyli zig'ir uchun	- <b>3 %,</b>
boshqa moyli xom ashyolar uchun	- <b>2 %.</b>

### **Moyli aralashmalar miqdori:**

ko'knori uchun	- <b>1 %,</b>
kungaboqar uchun	- <b>3 %,</b>
maxsar va kanakunjut uchun	- <b>4 %,</b>
qolgan moyli xom ashyolar uchun asosiy me'yor	- <b>6 %.</b>

Tayyorlanayotgan moyli urug'lar **namligining chegaraviy me'yori** quyidagicha:

kunjut	- <b>13 %,</b>
ko'knor	- <b>14 %,</b>
kungaboqar, yeryong'oq, maxsar, raps	- <b>15 %,</b>
moyli zig'ir, gorchitsa	- <b>16 %,</b>
soya	- <b>18 %,</b>
kanakunjut	- <b>20 %.</b>

Bunday namlikda qabul qilingan moyli urug'ni tezlik bilan qurutish zarur.

Moyli xom ashyolarning iflos va moyli aralashmalari **chegaraviy me'yori** ko'pgina moyli urug'lar uchun bir xil va u **15 %** iflos va moyli aralashmalarni tashkil qiladi. Bunda iflos aralashma miqdori **5 %** dan oshmasligi kerak.

Yog'-moy korxonalariga kelayotgan moyli urug'lar yuqori talablarga javob berishi kerak. Bu talablar asosiy me'yorga nisbatan ham kuchli. **GOST 22391-77** ga asosan kugaboqar namligi **6-8 %** bo'lishi kerak. Davlat standartti bo'yicha kungaboqar urug'i namligining asosiy me'yori - **12 %**. Ko'pchilik moyli urug'lar turlari uchun ularni texnologik qayta ishlash uchun zarur bo'lган

namlik urug'lar namligining asosiy me'yoriga to'g'ri keladi. Faqatgina zig'ir va raps urug'lar uchun texnologik qayta ishlash uchun kerak bo'lgan namlik miqdori urug'lar namligining chegaraviy me'yorga teng.

Korxonalarda qayta ishlashga berilayotgan moyli urug'lar tarkibidagi iflos aralashmalar miqdori - **3 %** dan oshmasligi kerak, bundan faqat kungaboqar urug'i istesno. Undagi iflos aralashma miqdori - **5 %** gacha ruxsat etiladi.

**4.3. Moyli urug'larning sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish.** Moyli urug'larning namligi va iflosligidan tashqari Davlat standarti ularning boshqa sifat ko'rsatkichlarini ham reglamentlaydi. Yuqorida ko'rsatilgan Davlat standarti bo'yicha kungaboqar urug'i, urug'dagi moyning kislota sonining o'zgarishga qarab sinflarga ajratiladi. (**1-jadval**).

**1-jadval**  
**Kungaboqar urug'ini sifat ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Tayyorlanayotgan urug'lar uchun me'yor,%	Korxonaga qayta ishlashga berilayotgan urug'lar me'yori,% da
Joylanishi bo'yicha urug'lar namligi		
Janubiy	12,0	15,0
Markaziy	13,0	17,0
G'arbiy	14,0	19,0
Iflos aralashma miqdori % gacha	1,0	10,0
Moyli aralashma miqdori % gacha	3,0	7,0
Urug'dagi moyni kislota soni sinflar uchun mg. KONda, gacha		
Oliy nav	1,3	--
I	2,2	--
II	4,0	--

#### O'z RST 596-93 «Texnik paxta chigit» standarti talablari

**Uz RST 596-93 «Texnik paxta chigit»** standarti yog'-moy sanoati korxonalarida qayta ishlab chqarish uchun mo'ljallanib keltirilgan paxta chigitlari uchun joriy qilinadi.

CHigitlar **O'z RTS 596-93 «Texnik paxta chigit»** standarti bo'yicha ularning tarkibidagi nuqsonli chigit miqdoriga qarab, **4** ta sanoat naviga bo'linadi: **I, II, III, IV**.

CHigit qo'yidagi jalvallardagi ko'rsatilgan talablarni qanoatlantirishi shart.

Paxta chigit paxta tozalash korxonalaridan fizik va konditsion og'irliklar bo'yicha amaldagi standartda o'rnatilgan me'yorlarda keltirilgan namlik, tukdorlik, mineral va organik iflosliklar bo'yicha qabul qilinadi va hisobga olinadi.

Paxta chigitining sifat ko'rsatkichlari Jadval-2 da keltirilgan.

**CHigitlarning fizik massasi** - nazorat uchun,

**konditsion vaznnini aniqlash** – qayd qilish, hisob-kitob ishlari va chigitlarni o'zaro solishtirish dalolatnomalarini tuzish uchun asosiy ko'rsatgich hisoblanadi. Yog'-moy korxonalarida konditsion vazn chigit uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

**2-jadval**

**Texnik paxta chigitining sifat ko'rsatkichlari**

CHigit navi	Nuqsonli chigitning vazniy ulushi %, ko'pi Bilan	Namlikning vazniy ulushi % hisobida, ko'pi bilan	Tukdorlikning vazniy ulushi, %	
			G'o'zaning o'rta tolali navlari	G'o'zaning ingichka tolali navlari
I	1,5	10	5,0 – 10,5	2,0 – 6,5
II	3,0	11	6,0 – 10,5	3,0 – 7,5
III	11,0	12	7,0 – 11,0	4,0 – 8,5
IV	33,0	13	8,0 – 13,0	4,5 – 9,0

**3-jadval**

CHigit navi	CHigit kesimidagi mag'izning rangi
I	G'o'zaning selektsion naviga qarab salgina yashil yoki boshqa rang aralashgan och krem rangli
II	G'o'zaning selektsion naviga qarab salgina boshqa ranglar aralashgan krem rangli.
III	Turlicha och ranglar aralashgan kul rang-krem rangdan to och sariq ranggacha
IV	Sariq rangdan to och jigarranggacha

**4.4.Paxta tozalash korxonalaridan keltirilgan paxta chigitini konditsion vaznini hisoblash.** Yog'-moy korxonalarida paxta chigitini miqdori fizik va konditsion massasi bo'yicha qayd qilinadi. Odatta, hisoblash me'yoriga keltirilgan namlikni massa ulushi, mineral va organik iflosliklarni massa ulushi bo'yicha amaldagi standart bilan kirim va fizik massasi bo'yicha chiqim amalga oshiriladi. CHigitlarning konditsion vaznini aniqlash – qayd qilish, hisob-kitob ishlari va chigitlarni o'zaro solishtirish dalolatnomalarini tuzish uchun asosiy ko'rsatgich hisoblanadi. Yog'-moy korxonalarida konditsion vazn chigit uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Yog' korxonalari paxta tozalash korxonalaridan qabul qilib olgan paxta chigitini hisoblarini koditsion massada olib borishadi. CHigitning konditsion massasini hisobi, paxta chigit uchun amaldagi standartda keltirilgan texnik formula bilan amalga oshiriladi.

$$Mk = \frac{100 - (Wf + Sf)}{100 - (Wb + Sb)}$$

Bu yerda:

**Mk** - kondentsion og'irlilik

**Mf** - xaqiqiy og'irlilik

**Wf** - xaqiqiy namlik

**S f** - xaqiqiy min. va org. Ifloslik

**Wb** - namlikning 10% ga teng asosi vazniy ulushi, standart bo'yicha .

**Sb** - min. va org. Iflosliklarni 0.5% ga teng hisobiy vazniy ulushi, standart bo'yicha.

CHigitni konditsion vaznini aniqlashning hisob-kitob me'yorlari qo'yidagi qiymatlarga muvofiq bo'lishi zarur.

CHigitning alohida bir to'dasi, yuqorida ko'rsatilganidek, namlikning vazniy ulushi hamda mineral va organik aralashmalarning vazniy ulushi bilan birgalikda keltirib chiqarilgan konditsion vazni bo'yicha qabul qilinadi.

Kilogramm hisobidagi (Mk) konditsion vazni yuqoridagi formula bo'yicha hisoblanadi:

**Masalan: Wf = 6,2% , Sf = 0,44% , Wb = 10% , Sb = 0,5%**

$$M_k = M * \frac{100 - (W_f + S_f)}{100 - (W_b + S_b)} = 1000 * \frac{100 - (6,2 + 0,44)}{100 - (10 + 0,5)} =$$
$$= 1000 * \frac{99,3}{89,5} = 1000 * 1,04313 = 1043,13 \text{ kg.}$$

**farqi 1043,13 - 1000 = 43,13kg**

***Tayanch so'z va iboralar.***

Saqlashga tayyorlash, saqlash, sifat ko'rsatkich, asosiy me'yor, chegaraviy me'yor

***Takrorlash uchun savollar.***

1. Moy olish usullarining qanday xillari mavjud?
2. O'simlik moylarini ishlab chiqarishning asosiy jarayonlari nimalardan iborat?
3. Moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va saqlash jarayonining nazorati qanday amalga oshiriladi?
4. Tayyorlanayotgan xom ashyoga talab qo'yishda ko'rib chiqiladigan me'yorlar va ularni aniqlash usullarini aytib bering?.

## **5 – MA’RUZA. URUG’LARNI DASTLABKI MOY OLISH UCHUN TAYYORLASH, PRESSLASH VA EKSTRAKTSIYALASH JARAYONINI NAZORAT QILISH**

**Reja:**

- 5.1. Tayyorlov jarayonlari.** Tozalash,namlash, chaqish, mag’zini qobig’idan ajratish va mag’izni yanchish.
- 5.2. Yanchilmani presslashga tayyorlash va qovurma tayyorlash hamda presslash usuli bilan yog’ olish jarayoni nazorati.**
- 5.3. Ekstraktsiya usuli bilan yog’ olish jarayonining texnokimyoviy nazorati.**
- 5.4. O’simlik yog’larini birlamchi tozalashning nazorati.**
- 5.5. Moyli urug’larni qayta ishslashda hosil bo’ladigan oraliq mahsulotlarni analiz qilish usullari.**

**5.1. Tayyorlov jarayonlari.** Tozalash,namlash, chaqish, mag’zini qobig’idan ajratish va mag’izni yanchish. Yog’-ekstraktsiya korxonalarida moyli urug’larni qayta ishslash jarayoniga tayyorlov ishlari quyidagilardan iborat: **tortish, iflos aralashmalardan tozalash, namligiga ko’ra konditsiyalash, chaqish, mag’izni qobiqdan ajratish va mag’izni yanchish.**

Mana shu sxema bo’yicha asosiy xom ashyolar (**kungaboqar, paxta chigit, kanakunjut**) qayta ishlanadi. Mag’izni qobiqdan ajratishdan maqsad shuki, moyli urug’lar qobig’i olinayotgan yog’ning va shrotning, shuningdek asosiy uskunalarning unumdorligiga salbiy ta’sir qiladi.

Ba’zi bir moyli urug’lar (**masalan, zig’ir, raps**) **mag’zini qobiqdan ajratmasdan** qayta ishlanadi. Bu hol, bunday urug’larning tuzilishi va qobig’i mag’zidan ajralishining qiyinligi bilan tushuntiriladi.

Texnologik nuqtai nazardan moyli urug’lar ikki qismdan, **mag’iz va qobiqdan** iborat. Ba’zi moyli urug’larda (**paxta chigit, kanakunjut**) mag’iz ustida qobig’i bo’ladi, ayrim moyli urug’lar (**kungaboqar, yeryong’oq, soya**) da qobig’dan tashqari mag’iz ustida yupqa **urug’ pardasi** ham bo’ladi. qaysi turdag‘i urug’lik bo’lishidan qat’iy nazar barcha moyli urug’larning qobig’i **luzga** deb ataladi, paxta chigitining qobig’i esa **shulxa** deb nomlanadi. qobig’ va mag’izdagi moddalarning miqdori turlicha bo’lib, qobig’da asosan kletchatka yoki tsellyuloza ko’p bo’lib, oz miqdorda yuqori molekulali uglevodlar, mumsimon moddalar, oqsil va suv bo’ladi. qobig’da moyning miqdori juda kam bo’lib bu **botanik moylilik** deyiladi. Moy asosan urug’ mag’izida bo’lib,

**paxta chigit mag’izida 34 - 38%,**

**kungaboqar mag’izida esa 60 - 65% ni** tashkil qiladi.

Agar moyli urug’lar qobig’idan ajratilmay qayta ishlansa bu, olinayotgan moyning tarkibida sovunlanmaydigan, oksidlangan moddalarni ko’payib ketishiga, moyning kislota sonini oshishiga va umuman moyning sifatini pasayishiga olib keladi. SHu sababli moyli urug’lar qobig’idan ajratilib qayta ishlanadi. Lekin ba’zi bir moyli urug’larni qobig’ini ajratish texnologik nuqtai nazardan qiyinchilik tug’diradi. Bularga raps, kunjut, maxsar urug’lari kiradi.

**Qobig’ni mag’izdan ajratish jarayoni chaqish deyiladi** va hosil bo’lgan mahsulot **chaqilma** deb ataladi. CHaqilma tarkibida mag’iz, qobig’, butun va yarim chaqilgan urug’lar, mag’iz va qobig’ning mayda bo’laklari va moyli chang bo’ladi. SHartli ravishda **moyli chang deb, 1 mm.li elakdan** o’tgan mag’izning mayda fraktsiyasi tushuniladi.

Urug’larning namligi chaqish jarayoni uchun optimal bo’lishi lozim. Optimal namlik

**kungaboqar urug’i uchun 6 - 8% ni,**

**paxta chigit uchun esa 9 - 11% ni** tashkil qiladi.

CHigit uchun namlikni mag’iz bo’yicha olinsa,

**1 – 3 - navlar uchun 8,5 - 9,5%,**

**4 - nav uchun 9,5 - 10,5%** bo’lishi kerak.

Agar chigitning namligi ko’rsatilgan miqdordan kam bo’lsa, elastiklik oshishi hisobiga chaqilish osonlashadi, lekin chaqilma tarkibida moyli changning miqdori oshib ketib, ajratib olinayotgan shulxa bilan mo’ljaldagidan ko’proq moy yo’qotiladi. Aksincha, **namlik yuqori bo’lsa**, chigitning

plastikligi oshib, **chaqish jarayoni yomon ketadi** va chaqilmay ezilib qolgan chigit shulxa tarkibiga o'tib uning moyliligin oshirib yuboradi. Bu holda ham bir qism moy yo'qotiladi.

**CHaqilmani fraktsiyalarga ajratish, komponentlarni o'lchamlariga va aerodinamik xususiyatlariga qarab amalga oshiriladi.**


Ajratib olingan mag'iz yanchish-maydalashga yuboriladi. Urug' yoki mag'iz yanchilganda hosil bo'lgan mahsulot yanchilma deb ataladi. **Yanchishning asosiy maqsadi hujayra strukturasini buzib ko'proq yog' olishdir.** Yanchish jarayonida mahsulot strukturasi va undagi lipidlarning joylashishi o'zgaradi. Yanchishda hujayra devorlarining buzilishidan tashqari eleoplazmaning bir qismini va aleyron donachalarining buzilishi ham sodir bo'ladi.

Tayyorlashga urug'lar xom ashyo bo'limlaridan keltiriladi. U yerda urug'lar o'lchamlariga ko'ra kolibrovka qilinadi. Kungaboqar urug'lari uchun yoki paxta chigit uchun namlik bo'yicha kondensatsiyalanadi (namlash), urug'larni chaqish (ularni ichki va ustki qatlamlarini buzish) va mag'izidan qobig'in (shulxa yoki luzga) ajratish, urug'larni yoki ularning mag'zini maydalash.

(2-sxema) da urug'larni moy olish uchun tayyorlash sxemasi urug'larni tozalash operatsiyalaridan tashkil topgan.

## 2-sxema

**Kungaboqar urug'laridan moy olish uchun urug'larni tayyorlashning texno-kimyoviy nazorati, (- xom ashyo sifati nazorat qilinadigan joy)**



Bajarilayotgan taxlillarning hajmi va tarkibi 4-jadvalda keltirilgan.

Bu taxlillar urug'larni moy olish uchun tayyorlashda bajariladi.

Yanchilmani presslash uchun tayyorlash va yanchilmani presslashning texnologik jarayoni qo'yidagi operatsiyalarini o'z ichiga oladi:

Namlovchi va bug'lovchi (inaktivator) shneklerda va qovurish qozonlarida namlik va issiqlik orqali qayta ishlashda fermentlarning inaktivatsiyasi, forpresslarda qovurmani presslash va moyni boshlang'ich tozalashdan iborat.

Urug'larning ustki qatlami qattiqligi har xil bo'lgani uchun va ularning sifati farqli bo'lgani sababli, hamda chaquvchi moslamalarning nomukammalligi tufayli chaqilma tarkibida mag'iz bilan birga po'choq, chala yarim chaqilgan urug'lar va butun urug'lar bo'ladi. Agar kungaboqar urug'lari chaqilmasi tarkibida - **15 %** po'choq, **25 %** - to'la chaqilmagan urug' va butun urug'lar hamda **15 %**- moy changi mavjud bo'lsa bunda chaqish moslamalari o'rta me'yorda ishlayotgandan dalolat beradi.

Moyli urug'larni chaqish jarayonida hosil bo'ladigan yarim mahsulotni **chaqilma** deb ataladi. Urug'larni qobig'ining qattiqligi turlicha bo'lganligi, shuningdek chaqish mashinalari konstruktsiyalarining bir qator kamchiliklari tufayli chaqilma tarkibida butun mag'iz va qobiq bilan birga hamma vaqt mag'iz oqshog'i, yarim chaqilgan urug' va moyli chang bo'ladi.

CHaqilma analizi mana shu noma'qul fraktsiyalarning miqdorini aniqlash va analiz ko'rsatkichlari salbiy bo'lgan hollarda o'z vaqtida chaqish rejimini o'zgartirishning imkonini beradi.

CHaqilma analizi ana shu komponentlarning massa qismini (%) da aniqlashga imkon beradi, shuningdek analiz ko'rsatkichlari salbiy bo'lgan tag'dirda bu ko'rsatkichlarni tartibga solishga imkon beradi. Buning uchun namunaning o'rtacha hajmidan diagonal kesish usulida taxminan 25 gr ajratilib 4 sinfga mansub bo'lgan tarozida tortiladi. Tortilgan namuna teshiklari 2-3 mm bo'lgan elaklardan o'tkaziladi. Teshigi 2 mm bo'lgan elakdan moy changi o'tadi. Bu elakdan o'tgani – sechka, 3 mm bo'lgan elakdan o'tgani – chala chaqilgan va butun urug'lar hisoblanadi. Keyin 4-sinf tarozida chala chaqilgan, butun urug'lar va moy changi alohida-alohida tortiladi va olingan

namunaga nisbatan % miqdori aniqlanadi.

**Paxta chigit chaqilmasining analizi-Umumiy tushunchalar.** Paxta chigitining yanchilmasi deb, chaqish mashinalaridan chiqayotgan mag'iz, shulxa, chaqilmagan chigitlar va moyli chang aralashmasi tushuniladi.

CHAQILMADAGI butun chigitlarning miqdori chaqish mashinalarining ishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

**Soya urug'i yormasining analizi-Umumiy tushunchalar.** Soya urug'i yormasi deb, bir juftli taram-taram ariqchali vallar orasidan yoki maydalagichdan o'tgan massaga aytildi.

Kungaboqar, kanakunjut va soya mag'izlarining analizi-Umumiy tushunchalar. Mag'iz deb, moyli urug'larni chaqib, hosil bo'lgan chaqilmadan aspiratsion veykalar va elektrseparatordorda po'choq va yarim chaqilgan urug'larni ajratib olingandan so'ng qolgan, maydalashga yuborilayotgan mahsulotga aytildi. Qoida bo'yicha bu mahsulotdagi po'choq (qobiq)ning qoldiq miqdori aniqlanadi. Bu ko'rsatkich chakilmani ajratuvchi uskunaning ishlashini nazorat qilish va maydalanish uchun ketayotgan mahsulotga tavsif berish uchun zarur hisoblanadi.

#### 4-jadvalda

#### Urug'larni moy olish uchun tayyorlash jarayonining nazorati

Nazorat ob'ekti	Namuna olish yoki nazorat usullari	Nazorat davriyiligi	Aniqlanayotgan ko'rsatkich
Ishlab chiqarishga kelayot gan urug'lar	Avtomatli namuna oluvchi yoki yoqim kesimi bo'yicha qo'lida	Urug'larning o'rta smenadagi namunasi 10 izmda 1marta	Namlik oltingugurt va yog'li aralashma tarkibidagi yog' miqdori. Urug'larda fosfatidlar va sovunlanmaydigan lipidlarning miqdori
Tozalangan urug'lar	Avtomatli namuna oluvchi yoki yoqim kesimi bo'yicha qo'lida	Kerak bo'lganda (smenada 1 marta)	Butun urug'lar po'choq va moy changining miqdori
Mag'iz	---- 11----	Mag'izning o'rta smenadagi namunasi kerak bo'lganda	Namlik
Luzga	---- 11----	15kunda 1 marta kerak bo'lganda va luzganing o'rta smenadagi namunasi	
Yanchilma	Oqimni kesimi bo'yicha qo'lida	Kerak bo'lganda	Yanchilma sifati

**Paxta chigitini mag'izi tarkibidagi shulxaning massa ulushini aniqlash-Umumiy tushunchalar.** Usul shulxaning mag'izdan ajralishini osonlashtiruvchi, suyultirilgan natriy gidroksid eritmasi ta'sirida mag'izning gel' qismining strukturasini o'zgarishi (bo'kish) ga asoslangan.

**Kungaboqar, soya, kanakunjut, po'choqlari tarkibidagi mag'izning miqdorini aniqlash-Umumiy tushunchalar.** Ishlab chiqarishdan chiqayotgan po'choq (qobiq) tarkibida ma'lum miqdorda butun va maydalangan mag'izlar bo'ladi. SHuningdek po'choqqa chaqilmagan urug'lar ham aralashib qolishi mumkin. Po'choq tarkibida bunday komponentlarning bo'lishi maqsadga muvofiq emas, chunki ular ishlab chiqarishdan chiqib ketayotgan po'choqning tarkibidagi moyning massa ulushini ko'paytiradi. Binobarin, moyning yo'qolishiga olib keladi. CHaqilmani separatsiya qiluvchi uskuna ishini nazorat qilish, shuningdek, ishlab chiqarishdan chiqayotgan po'choqning tarkibidagi mag'izni ajratib oluvchi uskunani nazorat qilish maqsadida po'choqning ba'zi ko'rsatkichlarini aniqlovchi analiz qilinadi, jumladan po'choq tarkibidagi mag'izning massa ulushi aniqlanadi.

**Paxta chigit shulxasidagi butun chigit va mag'izning massa ulushini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** SHulxadagi butun chigit va mag'izning massa ulushi alohida-alohida namuna og'irligiga nisbatan foizlarda formula orqali aniqlanadi. Ikkita parallel aniqlashlar orasida farq 0,2% dan oshmasligi kerak.

**Qobig'dagi namlikning massa ulushini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** Namlikning massa ulushi %da formula bo'yicha aniqlanadi. Ikkita parallel aniqlashlar orasidagi farq paxta chigit uchun 0,3% dan, qolgan urug'lar qobiqlari uchun 0,5% dan oshmasligi kerak.

**Qobiqdagi efirda eruvchi moddalar xom yog'larning massa ulushini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** Texnologik jarayondan chiqib ketayotgan qobiqdagi efirda erituvchi moddalarning massa ulushini aniqlash, mag'izni qobiqqa qo'shilib chiqishi va uning moylanish darajasi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Bu ko'rsatkichni Sokslet apparatida to'liq ekstraktsiyalash, Naab apparatida qisqa muddatli ekstraktsiyalash bilan va refraktometrik usul bilan aniqlash mumkin. Kungaboqar pistasi qobig'idagi xom yog'ning massa ulushini qobiqdan ajratib olingan, efirda eruvchi va mumsimon moddalarning massa ulushlari o'rtasidagi farq bo'yicha aniqlash usuli ham ma'lum.

**Yanchilish jarayonining nazorati va analizi-umumiyl tushunchalar.** CHaqilmadan mag'izni ajratuvchi moslamalarni ishini nazorat qilish va yanchilishga berayotgan mag'izni tarkibini nazorat qilish uchun, mag'izdagi qobiqning % miqdori aniqlanadi.

Mag'iz tarkibida qobiqning ko'pligi korxonadagi uskunalarning ishini qiyinlashtiradi, moyni chiqishini kamaytiradi va bir vaqtning o'zida shrotning chiqishini ko'paytiradi va uni sifatini yomonlashtiradi.

**Yanchilma namligini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** Qovurmani tayyorlash jarayonidagi texnologik ko'rsatkichlarni tanlab olish uchun kerak bo'ladi. Yanchilma namligini aniqlashning asosiy usuli uni **130°S da 20 minut** davomida quritish hisoblanadi. Lekin ko'proq yanchilmani namligini aniqlashda uni doimiy og'irlilikgacha quritish usuli qo'llaniladi.

**Xomashyoning yanchilish sifatini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** Yanchilish sifati (maydalanish darajasi), moy ajratib olishga yuborilayotgan xom ashyodagi hujayralar strukturasini qancha miqdorda buzilganligini ifodalaydi. Presslab va ekstraktsiyalab moy olishda, bu ko'rsatkich, moyni chiqishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yanchilish sifati yanchish uskunalarining ishini xarakterlaydi. Maydalanish darajasi elash, xo'llash bilan fraktsiyalarga ajratish va bir lahzali silkitish usullari bilan aniqlanadi.

**Ho'llash bilan fraktsiyalash usuli-Umumiyl tushunchalar.** Ho'llash bilan fraktsiyalash usuli yordamida yanchilish sifatini aniqlash, to'liq va chala maydalanish koeffitsientlari orqali ochilgan hujayralar miqdoriga qarab baholanadi. Yuqorida koeffitsientlar materialni valikli stanoklarda yanchishni bir xillik darajasini ko'rsatadi. Materialning chala maydalanish koeffitsienti ochilgan hujayralar massasini (**25-30%**), hujayralarni umumiyl massasiga nisbatini ifodalaydi.

Ochilgan hujayralar sonini, to'liq va chala maydalanish koeffitsientlarini aniqlash, bo'lakchalarining chiziqli o'lchamlari bilan ochilgan hujayralarning miqdori orasidagi bog'liqlikka asoslangan.

**Yanchilmadagi «erkin» moyning massa ulushini aniqlash usuli-Umumiyl tushunchalar.** Usul yanchilgan mahsulot tarkibidagi umumiyl moyga nisbatan «erkin» moyning massa ulushini topish imkonini beradi.

**Moyli yanchilmadagi namlikning massa ulushini aniqlash-Umumiyl tushunchalar.** Moyli yanchilmadagi namlikning massa ulushini tezlashgan quritish usuli yoki elektro namlik o'lchagich yordamida topiladi.

**5.2. Yanchilmani presslashga tayyorlash va qovurma tayyorlash hamda presslash usuli bilan yog' olish jarayoni nazorati.**

**5.2.1. Yanchilmani presslashga tayyorlash jarayoni nazorati.** Moy, yanchilmani ustki qismida yupqa pardaga holida bo'ladi va bu yerda molekulalarning o'zaro ta'sir kuchi hisobiga ushlanib turadi. SHu kuchlar ta'sirini pasaytirish uchun yanchilmaga namlik, issiqlik bilan ishlov beriladi. Bu jarayon qovurish deyiladi va hosil bo'lgan mahsulot qovurma deb ataladi. qovurishda

yanchilmani va uning tarkibidagi moyning fizik-kimyoviy xossasi o'zgaradi. Natijada maksimal miqdorda yog' olish imkonи yaratiladi. Odatta qovurish jarayoni ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda yanchilma namlanadi va bug' yordamida qizdiriladi. Ikkinci bosqichda namlangan yanchilma kurniladi. Yanchilmaga suv qo'shilganda uning gel' qismi bo'kadi va plastik holati yo'qoladi. Yanchilmadagi moyning holati o'zgaradi va uning tarkibidagi moddalar biokimyoviy o'zgarishlar yuz beradi. Suv kanallar orasidagi yog'ni siqib chiqaradi. Gel' qismini bo'kishi natijasida kapillyar siqiladi, hajmi torayadi, yog' sizib chiqqa boshlaydi. Namlashda zarrachalar kattalashadi, yanchilmani solishtirma sathi esa kamayadi.

Yanchilma qizdirilganda undagi moyning qovushqoqligi kamayadi. Bu esa moyni oson ajralib oqib chiqishini ta'minlaydi. Lekin qizdirish jarayonida oksidlangan moddalar miqdori ko'payadi. SHu sababli haroratni  $105^{\circ}\text{C}$ dan oshirmslik tavsiya etiladi. qizdirilganda yanchilmadagi oqsil moddalar denaturatsiyaga uchraydi.

**5.2.2.Qovurma tayyorlash va presslash orqali moy olishni nazorati. Qovurish jarayonida bug', issiqlik va namlik manba'i hisoblanadi.** Bunda bug' avval suvga aylanadi va bir xilda yanchilmaga taqsimlanadi, so'ngra, bug' suvga aylanmasdan yanchilmani qurita boshlaydi va qizdiradi. qasqonli qozon yuzasidan ko'ra bug' yanchilmani tez va bir tekisda bir xilda qizdiradi.

Qovurish jarayonida harorat va namlikning oshishi bilan fermentlarning aktivligi ortadi, ma'lum bir harorat va namlikka erishilganda bu aktivlik eng yuqori qiymatga yetadi. Keyin esa pasayadi va yo'qolishgacha borishi mumkin.


CHigit yanchilmasini qovurish jarayonida eng muhim masala gossipolning o'zgarishidir. Tabiiy (nativ) gossipol o'ta zararlidir. Moy, kunjara, shrot tarkibida shunday gossipol bo'lsa, ularning sifati yomonlashadi. Undan tashqari gossipol yog' rangini to'qlashtiradi, rafinatsiyalash jarayonida asosiy omil hisoblanadi. qovurish vaqtida kislorod, namlik, issiqlik ta'sirida gossipol erkin aminokislotalar, oqsil moddalar va fosfatidlar bilan reaktsiyaga kirishadi.

Presslashga berilayotgan qovurmaning xususiyatlari presslash sharoitlariga qarab har xil bo'ladi. qovurmaga bo'lgan asosiy talab uning bir xilda bo'lishligidadir. Undan tashqari qovurmaning sifati uni qayta ishlash vaqtida o'zgarmasdan saqlanishi lozim.

Qovurma plastik va siqiluvchan tuzilishga ega bo'lishi kerak. qovurmani shnekli presslarda siqib yog' olish, uni sekin-asta siqa borish printsipiga asoslangan. SHnek o'rami qadamining qisqarishi va qovurma bilan shnek devorlari bir-biriga ko'proq siqilishi hisobiga qovurma yog'idan ajraydi. Moy oqib tushishiga faqat tashqi kuchlar sabab bo'lib qolmay, balki mag'iz tarkibidagi moddalarning tashqi ta'sirga ko'rsatadigan qarshiligi ham katta ahamiyatga ega. qovurmani plastik va bir xilda bo'lishi uchun qovurish jarayonida aralashtirgichlarning bir me'yorda ishlashiga, bug'ni taqsimlanishiga va qovurmaning qalinligiga e'tibor berish lozim. Presslash jarayonining nazorati 4-sxema va keltirilgan.

### 3-sxema

#### Presslash orqali moy olishning texno-kimyoviy nazorati sxemasi



## 5- jadval

### Presslash orqali moy olishning texno-kimyoviy nazorati

Nazorat ob'ekti	Namuna olish usuli yoki nazorat usuli	Nazorat davriyligi	Aniqlanadigan ko'rsatkich
Inaktivatorlarga yoki bug'li namlovchi shnekga boradigan mag'iz	Oqimni qo'lda to'xtatish.	Kerak bo'lganda	Mag'izning namligi
Inaktivator yoki namlovchi-bug'lovchi shnekdan keluvchi mag'iz	--“--	--“--	--“--
Presslashga boradigan mezga qovurishdan chiqqandan so'ng (ohirgi qozondan)	--“--	--“-- Sistemati ravishda	Namlik Qovurma xarorati
Forpressdan chiqqan kunjara	--“--	--“--	Kunjarada yog'ning miqdori Kunjaraning qalinligi
Tozalashdan chiqqan yog' (separatsiyalashdan fil'trlashdan so'ng)	Truboprovoddagi namuna olgich orqali	1 sutkada 1 marta va kerak bo'lganda 10 kunda 1 marta o'rtacha namuna 10 kunda bir marta (15 kunda bir marta zig'ir yog'i uchun) 1 yilda 1 marta yangi hosilni qayta ishslash vaqtida	Moyning kislota soni Massadagi namlik va cho'kma miqdori Fosfatidlar va sovunlanmaydigan oddalar miqdori GOST bo'yicha yog' uchun ko'rsatgichlar

**5.3. Ekstraktsiya usuli bilan yog' olish jarayonining texnokimyoviy nazorati.** Moyli urug'lardan erituvchilar yordamida yog' olish masalasi olimlar diqqatini ko'pdan buyon o'ziga jalb qilib kelgan. Sanoat miqyosida ekstraktsiya usuli bilan yog' olish birinchi marta 1856 yili Frantsiyada qo'llanilgan. Bunda erituvchi sifatida uglerod sul'fid ishlatilib zaytun kunjasidan yog' olingan. Ekstraktsiyalash usuli xom ashyodan maksimal yog' olish imkoniyatini beradi.

o'simlik moylarini ekstraktsiya usuli bilan olishda ishlatiladigan erituvchilar, ekstraktsiya jarayonining texnikasi va texnologiyasi talablariga javob berishi kerak. Bu talablar, ekstraktsiyalashda maksimal yog' olish, tayyor mahsulotlar - yog' va shrotning sifatini yaxshilash, erituvchini odam organizmiga zararli ta'sirini oldini olish va ular bilan ishlaganda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qo'yiladi. SHuning uchun sanoat erituvchisi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- 1) moyni yaxshi eritib, unga hamrox bo'lgan moddalarni eritmasligi;
- 2) kimyoviy jixatdan bir jinsli, o'zgarmas va yuqori bo'lмаган qaynash haroratiga, past issiqlik sig'imiga va yuqori bo'lмаган yashirin bug'lanish issiqligiga ega bo'lishi;
- 3) saqlanayotgan paytda va ekstraktsiya jarayonida o'zining xossalari va tarkibini o'zgartirmasligi;
- 4) suv bilan aralashmasligi va u bilan azeotrop birikma hosil qilmasligi;
- 5) yog' va shrotidan imkonli boricha past xaroratda to'liq haydalishi va olinayotgan mahsulotga o'zini ta'mi va xidini bermasligi;
- 6) uskunalarga salbiy ta'sir qilmasligi;

7) suyuq, bug' va suv bug'i bilan aralashgan xolatlarda odam organizmiga zararli ta'sir qilmasligi;

8) yong'in va portlashga xavfsiz bo'lishi;

9) tabiatda ko'p tarqalgan, serob va arzon bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtida ushbu talablarga to'liq javob beruvchi birorta ham erituvchi mayjud emas. Sanoatda qo'llaniladigan erituvchilar yuqoridagi talablardan ayrimlarigagina javob beradilar. Yog'-moy sanoatida erituvchi sifatida neftning yengil fraktsiyasi bo'lgan ekstraktsiya benzini keng ishlatiladi.

Ekstraktsiyalash jarayonini borishi uchun moy, erituvchida erishi, ya'ni moy bilan erituvchining molekulalari aralashib ketishi kerak. hosil bo'lgan eritma mistsella deb ataladi.

Ekstraktsiya usuli bilan moy olish, moyli xom-ashyo (kunjara)ni suvsiz va isitilgan erituvchi bilan qayta ishlash; olingan mistsellani fil'trlash; mistsella va yog'sizlantirilgan mahsulot - shrotdan erituvchini haydash; erituvchini regeneratsiya va rekuperatsiya qilish operatsiyalaridan iborat.

Hozirgi davrda yog'-moy sanoatida moyli xom ashyodan moyni ajratib olish uchun, parafin, tsikloparafin, izoparafin, oz miqdorda aromatik uglevodorodlarning aralashmasidan iborat bo'lgan ekstraktsion benzin ishlatilmoqda.

6-jadvalda **A** va **B** markali ishlab chiqarishda qo'llaniladigan benzirlarning **TU-38 10130-72** bo'yicha ma'lumoti berilgan.

Korxonaga kelgan erituvchi nazorat qilib borilishi va u TU-38 101303-72 talablariga javob berishi kerak. 63-75°C da qaynaydigan **A** markali ekstraktsion benzin quyidagi uglevodorod tarkibga ega (% da):

n-geksan 54,39, n-pentan 0,23, butan 0,13, izopentan 0,19, 3-metilpentan 20,02, 2,3-metilbutan va 2-metilpentan 4,59, metilsiklopentan 9,0, benzol 0,5.

#### **6-jadval**

#### **Erituvchining sifat ko'rsatkichlari**

<b>Ko'rsatkichlar nomi</b>	<b>TU-38 101303-72</b>	
	<b>Marka A</b>	<b>Marka B</b>
Zichlik 20 °S da, g/sm <sup>3</sup> ortiq emas	0,685	0,715
Haydashning boshlanish harorati, °S ortiq emas	63	70
<i>Haydalish miqdori, 98% dan kam emas, °S</i>	75	85
Kolbadagi qoldiq, % ortiq emas	1,0	1,0
Aromatik uglevodorodlarning miqdori, %, ortiq emas	0,5	3,0
Oltингugurt miqdori, %, ortiq emas	0,001	0,01
Suvda eruvchan kislota, ishqor, mexanik aralashmalar va suv miqdori	yo'q	Yo'q
CHaqnash harorati, °S	-37,0	-28,6
O'z-o'zidan alangalanish harorati, °S	270	268
Portlash chegaralar		
Pastki:		
Hajm bo'yicha, %	1,33	1,1
Mg/l	47,0	40,7
Yuqorigi hajm bo'yicha, %	8,5	6,3
Mg/l	300,6	233,1

**5.3.1. Erituvchining analizi, fraktsion tarkibini aniqlash.** *Erituvchining zichligini aniqlash.* Erituvchining zichligi, bu standart bilan chegaralangan, ma'lum bir ma'noda erituvchining tarkibi va hajm birligidagi uning massasini ( $\rho$  kg/m<sup>3</sup> yoki  $\rho$  g/sm<sup>3</sup>) bildiruvchi ko'rsatkichdir. Amaliyatda erituvchining solishtirma zichligi, ya'ni ma'lum bir hajmdagi erituvchining massasini suv massasiga nisbati aniqlanadi.

Erituvchining zichligi piknometr, gidrostatik tarozi va areometr yordamida aniqlanadi.

**Erituvchining fraktsion tarkibini aniqlash. Umumiy tushunchalar.** Erituvchining qaynashini boshlanishi, haydash haroratini oxiri (erituvchini markasiga bog'liq holda **75,85 yoki 95<sup>0</sup>C**) da haydalan erituvchi miqdori va kolbada qolgan qoldiq, erituvchini fraktsion tarkibini bildiradi. Bu ko'rsatkich ekstraktsiya mahsulotlari (yog', shrot)ning miqdori va sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Kunjaradan ekstraktsiya usulida moy olishning texnologik jarayoni 4-sxemada keltirilgan quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

Kunjarani moysizlantirish uchun tayyorlash (uni maydalash, namlash va namlik va issiqlik ta'sirida qayta ishlash, bargsimon strukturani hosil qilish, ekstraktsiyalash - moyni organik erituvchilar yordamida olish); mistsellani qayta ishlash (fil'trlash, rafinatsiyalash, mistselladan erituvchini xaydash); shrotni – moysizlangan qoldiqni qayta ishlash.

#### 7-jadval


#### Ekstraktsiya usulida moy olishning texno-kimyoviy nazorati

Nazorat ob'ekti	Namunalarni olish usuli yoki nazorat usuli	Nazorat davriyligi	Aniqlanuvchi ko'rsatgich
Korxonaga kelayotgan erituvchi	Truboprovod dagi namuna olgich yoki tsisternadan namuna olganda zonali namuna olgich	Kerak bo'lganda	Xaydash usulda fraktsion tarkibini aniqlash
Ekstraktsiyaga kelayotgan material	Oqim kesim bo'yicha qo'lda	Sistemmatik tarzda	Bargning qalinligi: zarrachalarning mavjudligi (1 mm qalinlikdagi elakdan o'tgan), namlik
Ekstraktsiyaga kelayotgan erituvchi	Truboprovodda gi namuna olgich	--“--	Erituvchidagi yog' miqdori
Mistsella fil'trlashdan so'ng	--“--	Sistema tik tarzda	Mistselladagi qattiq zarrachalar miqdori, tiniqligi, yog' miqdori
Ekstraktsiya tseidian chiqayotgan yog'	--“--	--“-- 1 sutkada 1 marta 10 kunda 1 marta	Yog'ning chaqnash xarorati Namlik, kislota soni Massa bo'yicha cho'kma miqdori, fosfolipidlar va sovunlanmaydigan moddalar miqdori
SHnekli yoki qozonli bug'latgich – tosterdan chiqayotgan shrot	Oqim kesimi bo'yicha qo'lda	1 smenada 1 marta sistema tik tarzda xar 2 soatda ko'rsatkich-larni yozib borish	Erituvchini miqdori Yog' miqdori; Namlik
TSexdan chiqayotgan shrot	Avtomatik namuna olgich	Smenada 1marta 10 kunda 1 marta	Namlik,yog'dagi ferromagnit aralashmalar miqdori 10%li xlorid kislotasida erimaydigan kul, protein miqdori. Yana ko'shimcha soya shroti uchun – ureaza aktivligi; kanakunjut uchun – ritsin mavjudligi; kungaboqar shroti uchun – eruvchi protein miqdori.

Texno-kimyoviy nazoratda bajarilayotgan taxlillarning tarkibi **8-jadvalda** keltirilgan, bu taxlillar ekstraktsiya jarayonida olib boriladi.

#### 4-SXEMA

#### Kunjaradan ekstraktsiya usulida moy olishning texnokimyoviy nazorati sxemasi



**5.3.2 Ekstraktsiya tsexining tayyor, oraliq mahsulotlari va yordamchi materiallarni analiz usullari. SHrotdagi xom yog'ning massa ulushini aniqlash.** Bu ko'rsatkich standart bilan reglamentlangan va ishlab chiqarishda yog'ning umumiyo yo'qolishiga, shuningdek uni chiqishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni **Sokslet, Zaychenko** apparatlarida to'liq ekstraktsiyalash, qisqa muddatli ekstraktsiyalash (asosan paxta shroti uchun) bilan, interferometrik, refraktometrik usullari bilan va Foss-Lett apparatidan foydalanib aniqlash mumkin.

**Yog'ning chaqnash haroratini aniqlash. Umumiy tushunchalar.** Bu ko'rsatkich ekstraktsiya moyining sifatini ko'rsatadi va mistsellani distillyatsiya qilgandan keyin yog'da qolgan erituvchini miqdori haqida fikr yuritish mumkin.

Chaqnash haroratini aniqlash usuli, yog'dagi uchuvchan moddalar va ma'lum sharoitda qizdirganda yog' komponentlarini parchalanishidan hosil bo'lgan moddalarni havo bilan, olovni yaqinlashtirganda chaqnovchi aralashma hosil qilish qobiliyatiga asoslangan.

**Ekstraktsion moylardagi qoldiq erituvchining massa ulushini gazxromatografik usulda aniqlash. Umumiy tushunchalar.** Bu usul ekstraktsion moylarning sifatini nazorat qilishga mo'ljallangan bo'lib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qo'llaniladi. Moydagagi erituvchining topilayotgan miqdori  $1 \cdot 10^{-3}$  dan 1% gacha bo'ladi. Ishonchlilik ehtimolligi 0,95 bo'lganda nisbiy xatolikning chegaralari:  $\pm 7$  dan 27% gacha bo'ladi.

Usul moyni to'g'ridan to'g'ri gazoxromatografik analizidan iborat. Erituvchi miqdorini hisobi, ichki standart -N-oktanni qo'llash bilan olib boriladi.

**5.4. O'simlik yog'larini birlamchi tozalashning nazorati.** Presslash yoki ekstraktsiyalash usuli bilan olingan o'simlik moylari tarkibida glitseridlardan tashqari turli xil yog'larga hamroh moddalar va mexanik aralashmalar mavjud bo'ladi.

Mexanik aralashmalar, ular qovurma yoki kunjaraning mayda bo'lakchalari bo'lib, moyga uni olishda tushib qoladi. Bu aralashmalar moy bilan uzoq vaqt kontaktda bo'lganda, moyni sifati va biologik qiymatini pasaytiradi, organoleptik xossalarni yomonlashtiradi va moyni keyingi qayta ishlashlarda qiyinchiliklar tug'diradi.

Yuqori sifatlari o'simlik moylarini, faqat ularni birlamchi va chuqur tozalash-rafinatsiyadan keyingina olish mumkin.

Moylarni mexanik aralashmalardan tozalashga mo'ljallangan, birlamchi tozalash, o'simlik moylari ishlab chiqarish jarayonlarining ajralmas qismi bo'lib moyni olgandan so'ng darhol amalga oshiriladi.

Mexanik aralashmalarni o'lchami bir necha millimetrdan **2-4мм** gacha, miqdori esa **2** dan **10%** gacha bo'ladi. Bu zarrachalarni zichligi **1100-1400 кг/м<sup>3</sup>** ni tashkil qiladi.

Moylarni birlamchi tozalash tindirish, fil'trlash va markazdan qochma kuch yordamida tozalash usullari bilan amalga oshiriladi.

Presslash usuli bilan olingen o'simlik moylarini birlamchi tozalash, ya'ni oqsil xarakterga ega qattiq zarrachalardan forpress tsexini o'zida quyqa tutqich uskunasi va fil'trpressda olib boriladi. Eksrtaksiya moyi esa mistsellha holida faqat fil'trlanadi.

**Yog'dagi namlik va uchuvchan moddalaroning massa ulushini aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Yog'dagi namlik va uchuvchan moddalarning massa ulushini aniqlash, uni 100-105°C haroratda doimiy og'irlikkacha quritishga asoslangan.

Zaruriyat bo'lganda yog'lardagi faqat namlikni aniqlashda, ayniqsa tarkibida katta miqdorda uchuvchan yog' kislotalari bo'lgan yog'lar (kokos, pal'ma mag'iz va boshqalar) uchun Fisher usulidan foydalaniladi. Bu usul asosida yod va oltingugurt dioksidini, suv bilan piridin ishtirokida, o'zaro miqdoriy reaktsiyaga kirishishi va reaktsiyaga kirishgan yodni titrlash bilan aniqlash yotadi.

Bundan tashqari, yog'dagi namlikni **Dina va Stark** asbobi yordamida, interferometrik va refraktometrik usullar bilan ham aniqlash mumkin. Namlikni doimiy og'irlikkacha quritish bilan aniqlash, eng sodda usul hisoblanadi.

**Yog'dagi yog'siz aralashmalarining massa ulushini va cho'kmanning hajmiy miqdorini aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Ekstraksiya benzinida yoki petroley efirida erimaydigan yog'siz aralashmalar va tindirish vaqtida hosil bo'lgan cho'kmanni massa ulushi yog'ning muhim sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Yog'siz aralashmalar (asosan oqsil zarrachalari)ni massa ulushini aniqlash usuli yog'siz aralashmalarni ajratib olish va bu aralashmalarni tarozida tortishga asoslangan.

CHO'kmanni hajmiy miqdorini aniqlash, o'simlik moylarini tindirish va hosil bo'lgan fosfatidlar, oqsil moddalar, hamda namlikdan iborat cho'kmanning hajmini o'lchashga asoslangan.

**O'simlik yog'larining rang sonini aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Rafinatsiyalangan va rafinatsiyalanmagan o'simlik yog'larining rang soni ulardagi pigmentlar majmuasi (karotin, karotinoid, xlorofill, gossipol va b.)ni sifat va miqdoriy tarkibini ko'rsatadi.

Och rangli o'simlik moylarini rangliliqi rang soni bilan xarakterlanadi. Rang soni, yodning 100 ml standart eritmasidagi erkin yodni mg miqdori bilan ifodalanadi.

Och rangli moylarning rang sonini yodning standart eritmalar shkalasi yoki kolorimetr yordamida aniqlash mumkin.

Paxta moyini rangliliqi, belgilangan sariq rang ishtirokida, aniqlangan qizil rang birligini miqdori bilan ifodalanib, rang o'lchagich yordamida aniqlanadi.

**Yog'larning kislota sonini aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Yog'larni kislota sonini aniqlashning mohiyati shundan iboratki, ularni ma'lum miqdori erituvchilar aralashmasida eritiladi va erkin yog' kislotalarni kaliy gidroksidning suvli yoki spirtli eritmasi bilan titrlanadi.

Kislota soni (k.s.) deb, bir gramm yog'dagi erkin yog' kislotalarini neytrallash uchun kerak bo'lgan kaliy gidroksidning mg miqdoriga aytildi. Erkin yog' kislotalarning miqdori moyli xomashyoning sifatiga, yog' va moyni olish usuliga, uni saqlash sharoitiga va boshqalarga bog'liq.

Kislota soni yog'larning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri xisoblanadi.

Yog'larni kislota sonini aniqlashning bir necha usullari ma'lum: indikatorli, tuzli va potentsiometrik. U yoki bu usulni tanlash yog'ni turi va sifatiga bog'liq bo'ladi.

**Yog'larni kislota sonini indikatorli usul bilan aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Bu usul yordamida rafinatsiyalangan och rangli moylarni, rafinatsiyalangan paxta moyini va to'q rangli moylarni kislota soni aniqlanadi.

**Yog'larni kislota sonini tuzli usul bilan aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Bu usuldan rafinatsiyalanmagan paxta moyining kislota sonini aniqlash uchun foydalaniladi.

Usulning asosiy xususiyati shundaki, bunda erituvchi qo'llanilmaydi. Fazalarni aniq ajratish uchun natriy xlorning suvdagi to'yingan neytral eritmasidan foydalaniladi. Titrlash


indikator – fenolftalein ishtirokida olib boriladi. Ishqor, barcha erkin yog' kislotalarini bog'lagandan so'ng uning ortiqcha miqdori natriy xlor eritmasiga o'tib eritmani och pushti rangga bo'yaydi.

Natriy xlor sovunning gidrolizini to'xtatadi va titrlash paytida emul'siyalarning hosil bo'lishini oldini oladi.

**Paxta yog'idagi gossipolning massa ulushini fotometrik usulda aniqlash. Umumiyl tushunchalar.** Jarayonni mohiyati shundan iboratki, moy xloroformda eritiladi va gossipol dianilingossipol ko'rinishida miqdoriy aniqlanadi.

## 5-sxema

### Kunjaradan ekstraktsiya usulida moy olishning texnokimyoviy nazorati



Kunjaradan ekstraktsiya usulida moy olishning texnologik jarayoni quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

kunjarani moysizlantirish uchun tayyorlash (uni maydalash, namlash va namlik va issiqlik ta'sirida qayta ishlash, bargsimon strukturani hosil qilish, ekstraktsiyalash - moyni organik erituvchilar yordamida olish); mistsellani qayta ishlash (fil'trlash, rafinatsiyalash, mistselladan erituvchini xaydash); shrotni – moysizlangan qoldiqni qayta ishlash.

Texno-kimyoviy nazoratda bajarilayotgan taxlillarning tarkibi 8-jadvalda keltirilgan, bu taxlillar ekstraktsiya jarayonida olib boriladi.

## 8-jadval

### Ekstraktsiya usulida moy olishning texno-kimyoviy nazorati

Nazorat ob'ekti	Namunalarini olish usuli yoki nazorat usuli	Nazorat davriyiligi	Aniqlanuvchi ko'rsatgich
Korxonaga kelayotgan erituvchi	Truboprovod dagi namuna olgich yoki tsisternadan namuna olganda zonali namuna olgich	Kerak bo'lganda	Xaydash usulda fraktsion tarkibini aniqlash
Ekstraktsiyaga kelayotgan material	Oqim kesim bo'yicha qo'lда	Sistemmatik tarzda	Bargning qalinligi: zarrachalarning mavjudligi (1 mm qalinlikdagi elakdan o'tgan), namlik
Ekstraktsiyaga kelayotgan erituvchi	Truboprovodda gi namuna olgich	--“--	Erituvchidagi yog' miqdori
Mistsella fil'trlashdan so'ng	--“--	Sistema tik tarzda	Mistselladagi qattiq zarrachalar miqdori, tiniqligi,yog' miqdori
Ekstraktsiya tsevidan chiqayotgan yog'	--“--	--“-- 1 sutkada 1 marta 10 kunda 1 marta	Yog'ning chaqnash xarorati Namlik, kislota soni Massa bo'yicha cho'kma miqdori, fosfolipidlar va sovunlanmaydigan moddalar miqdori
SHnekli yoki qozonli bug'latgichdan chiqayotgan shrot	Oqim kesimi bo'yicha qo'lда	1 smenada 1 marta sistema tik tarzda xar 2 soatda ko'rsatkich-larni yozib borish	Erituvchini miqdori Yog' miqdori; Namlik
TSexdan chiqayotgan shrot	Avtomatik namuna olgich	Smenada 1marta 10 kunda 1 marta	Namlik,yog'dagi ferromagnit aralashmalar miqdori 10%li xlorid kislotasida erimaydigan kul, protein miqdori. Yana ko'shimcha soya shroti uchun - ureaza aktivligi; kanakunjut uchun – ritsin mavjudligi; kungaboqar shroti uchun – eruvchi protein miqdori.

**5.5. Moyli urug'larni qayta ishlashda hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlarni analiz qilish usullari.** Moyli urug'larni qayta ishlashda oraliq mahsulotlarni texno-kimyoviy nazoratining asosiy texnologik operatsiyalari quyidagilardan iborat: -urug'larni moy olish uchun tayyorlash, moyli xom ashyodan dastlab presslab yog' olish va so'ng hosil bo'lgan kunjarani organik erituvchi yordamida ekstraktsiyalab yog' olish operatsiyalari shuningdek yog'ni dastlabki tozalash operatsiyalardan tashkil topgan.

Urug'larning ustki qatlami qattiqligi har xil bo'lgani uchun va ularning sifati farqli bo'lgani sababli, hamda chaquvchi moslamalarning nomukammalligi tufayli chaqilma tarkibida mag'iz bilan birga po'choq, chala yarim chaqilgan urug'lar va butun urug'lar bo'ladi. Agar kungaboqar urug'lari

chaqilmasi tarkibida - **15 %** po'choq, **25 %** - to'la chaqilmagan urug' va butun urug'lar hamda **15 %**- moy changi mavjud bo'lsa bunda chaqish moslamalari o'rta me'yorda ishlayotgandan dalolat beradi.

CHaqilma analizi ana shu komponentlarning massa qismini (% da) aniqlashga imkon beradi, shuningdek analiz ko'rsatkichlari salbiy bo'lgan tag'dirda bu ko'rsatkichlarni tartibga solishga imkon beradi.

**Yanchilishga kelayotgan mag'iz tarkibida urug' va uning qobiqlarini miqdori aniqlash.** CHaqilmadan mag'izni ajratuvchi moslamalarni ishini nazorat qilish va yanchilishga berayotgan mag'izni tarkibini nazorat qilish uchun, mag'izdagi qobiqning % miqdori aniqlanadi.

Mag'iz tarkibida qobiqning ko'pligi korxonadagi uskunalarning ishini qiyinlashtiradi, moyni chiqishini kamaytiradi va bir vaqtning o'zida shrotning chiqishini ko'paytiradi va uni sifatini yomonlashtiradi.

**Yanchilmaning namligini aniqlash-** kovurmani tayyorlash jarayonidagi texnologik ko'rsatkichlarni tanlab olish uchun kerak bo'ladi. Yanchilma namligini aniqlashning asosiy usuli uni **130°S da 20 minut** davomida quritish hisoblanadi. Lekin ko'proq yanchilmani namligini aniqlashda uni doimiy og'irlikgacha quritish usuli qo'llaniladi.

**Mistsellani kontsentratsiyasi va uning tarkibida mexanik aralashmalarning miqdori.** Mistsellada mexanik aralashmalarni borligining asosiy sababi ekstraktordan chiqayotgan mistsella o'zi bilan birga kunjaraning mayda qismlarini olib chiqishidir. Mistselladagi mexanik aralashmalarning soni materialni ekstraktsiyaga tayyorlash sharoitlariga bog'liq, hamda mistsellani distillyatsiyadan oldin tozalash uchun zarur bo'lgan turli xil texnologik operatsiyalarni belgilaydi.

**Ekstraktsiyadan chiqayotgan mistsella kontsentratsiyasi** va mistsellada mexanik aralashmalarning mavjudligi ekstraktorning effektivligiga hamda uning mukammalligiga bog'liq bo'ladi, ya'ni bu ko'rsatkichlar ekstraktorning mukammalliliga bog'liq. Mistsellaning kontsentratsiyasi qancha katta bo'lsa uning tarkibidagi mexanik aralashmalar shuncha kichik bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ekstraktorning mukammalliliga bog'liq bo'ladi.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

Presslash, ekstraktsiyalash, chaqilma, yanchilma, qovurma, kontsentratsiya, cho'kma.

#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Urug'larni moy olish uchun tayyorlash qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
2. Presslash orqali moy olishning texnokimyoiy nazorati qanday amalgalashadi?
3. Presslab moy olish uchun qovurma tayyorlash jarayoni qanday olib boriladi?
4. Ekstraktsiyalab moy olish jarayoni qanday olib boriladi?
5. Mistsellani kontsentratsiyasi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?

## **6 – MA'RUZA. GIDROGENLASH JARAYONINI NAZORAT QILISH**

### **Reja:**

**6.1. Moylar gidrogenlash jarayoni bo'yicha umumiy tushuncha.**

**6.2. Salomasni erish haroratini va titrini aniqlash.**

**6.3. Katalizator xarakatining mohiyati, faolligini aniqlash.**

**6.1. Moylar gidrogenlash jarayoni bo'yicha umumiy tushuncha.** Margarin, konditer va kulinar yog'lari ishlab chiqarish uchun vasovun olish, stearin olish, texnik yog'lar olish uchun yuqori erish haroratiga ega bo'lgan qattiq yog'lar zaruryati tug'iladi. Bu yog'lar suyuq kungaboqar, paxta, soya, raps va boshqa moylarni yog' kislota tarkibidagi qo'shbog'larini vodorod bilan qisman yoki to'liq to'yintirish orqali olinadi.

Gidrogenlanganda yog'lar – salomaslar olish uchun asosiy xom ashyolar bo'lib, kungaboqar, paxta, soya (loviya) raps, pal'ma moylari va hayvon yog'lari xizmat qiladi.

Hozirgi gidrogenlash jarayonlarida katalizator sifatida nikel' – mis katalizatorlari, nikel' - qizil'gur katalizatorlari ishlatsilmoxda. Hozirda yana turg'un katalizatorlar yordamida ham gidrogenlash yo'lga qo'yilgan.

Gidrogenlash jarayonida salomaslarning sifat ko'rsatkichlari hozirda amal qilinadigan standartlar bilan tekshiriladi.

Gidrogenlash jarayonidagi texno-kimyoviy nazoratning asosiy vazifasi katalizator va vodorodni sifatini baholash, texnologik ko'rsatkichlarni to'g'ri borishini nazorat qilish, ishlab chiqarilayotgan salomasni amaldagi texnikaviy shartlari va me'yoriy hujjatlarga mos kelishini aniqlashdan va ishlab chiqarishni chiqindilarini analiz qilishdan iborat.

SHuning uchun ham gidrogenlashdan oldin yog' va moylar aralashmalardan va hamroh moddalardan tozalanishi kerak bo'ladi. Bunda birinchi bo'lib yog' va moylar rafinatsiyaga beriladi va keyin avtoklav bo'limiga gidrogenlash uchun beriladi. Avtoklav bo'limida yog' va moylar katalizator ishtirokida vodorod bilan to'yintiriladi. Ishlab chiqarishning alohida ishlaydigan bo'limlariga fil'trlash bo'limi (salomasdan katalizatorni fil'trlab ajratib olish) va katalizator ishlab chiqarish bo'limi (katalizator tayyorlash, maydalash, yog' bilan suspenziyasini hosil qilib avtoklav tsexiga yuborish) kiradi. Gidrogenlash tsexida vodorod ishlab chiqarish bo'limi ham bo'ladi. Gidrogenlashga berilayotgan vodorodni avtoklavlarga uzatish va uning aylanma harakati kompressor bo'limiga o'rnatilgan kompressorlar yordamida amalga oshiriladi.

Gidrogenlangan yog'lar ishlab chiqarishni nazorat qilish quyidagi 6-sxema va 9-jadvalda keltirilgan analizlar majmuasidan iborat bo'ladi.


#### 6-sxema

##### Gidrogenizatsiya jarayoni nazorati

(nazorat qilish joyi)

**Suvligaz yoki texnologik gaz  
(temir-gaz usuli uchun)**

**suv (elektrolit)  
elektrolitik usuli uchun**



**katalizator (qayta ishlatalish uchun) (salomasni fil'trlash)**  
**katalizator markazlashgan regeneratsiyaga**

9-jadval

**Salomas ishlab chiqarishni nazorat qilish**

Nazorat ob'ekti	Nazorat turi yoki namuna olish usuli	Nazorat davriyligi	Aniqlanayotgan ko'rsatkich
Vodorod (elek – trolitik usul) ishlab chiqarish	Avtomatik gaz analizatori	To'xtovsiz	Vodorod yoki kislorod miqdori.
Yog'	Namuna oluv – chi shtutser	Kerak bo'lganda	Namunaviy gidrogenlash.
Katalizator	Qo'lda namuna olish	Ishlab chikarish jarayoni oxirida	Nikel' miqdori, katalizator faolligi.
Jo'natishga tayyorlangan salomas	Namuna oluvchi shtutser	Har bir partiya uchun	Sifat ko'rsatkichlari – ning me'yoriy hujjat – larga to'g'ri kelishi.

Ozuqa salomaslari me'yoriy hujjatga asoslanib, sifat ko'rsatkichiga qarab 2 hil turga – 1 chi va 2 chi markali salomasga bo'linadi. Bu tur salomaslarni organoleptik va fizik – kimyoviy tavsifi quyidagi 10-jadvalda berilgan.

Ozuqa salomaslarida nikel, mis, temir, oqlovchi tuproq vasovun miqdori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Texnik salomaslar ham me'yoriy hujjatlariga asoslanib, bir – biridan farqlanadigan sifat ko'rsatkichlariga qarab quyidagi turlarga qarab bo'linadi:

3 Markali – atirsovun ishlab chiqarish uchun;

4 chi Markali – xo'jaliksovuni uchun;

5 chi Marka – stearin uchun.

Bularni markalarga bo'lish ishlab chiqarish uchun ketgan xom ashyoni turiga bog'liq bo'ladi. Bunda:

3–1 marka o'simlik moylaridan, texnik hayvon yog'laridan va ularning aralashmalaridan;

3–2 marka o'simlik moylari va qizdirilgan oziq–ovqatga ishlatiladigan hayvon yog'lari aralashmasidan;

3–3 marka qizdirilgan oziq–ovqat uchun ishlatiladigan hayvon yog'laridan tayyorlanadi;

4–1 markali salomas o'simlik yog'lar va ularning aralashmalaridan tayyorlanadi;

Bu markalardan farqli ularoq 3–4 marka va 4–2 marka salomaslar soapstokning distillangan yog' kislotalaridan va hayvon yog'larining distillangan yog' kislotalaridan tayyorlanadi.

10–jadval

**Ozuqa salomaslarining organoleptik va fizik – kimyoviy tavsifi:**

Ko'rsatkichlari	1 – turi			
	1 – 1	1 – 2	1 – 4	1 – 5
Hidi va ta'mi	Hidsiz va ta'msiz			
Rangi: qattiq holda, etalon raqami VNIIJ – 18 pribori bo'yicha, ko'p emas.	3	3	3	7

Erish harorati, $^{\circ}\text{C}$	31 – 34	34 – 36	18 – 25	24 – 34
Qattiqligi, $15^{\circ}\text{C}$ da, g/sm $^2$	160 – 280	350 – 450	Me'yorlan-maydi.	40 - 130
Namligi va uchuvchan moddalar miqdori, % dan ko'p emas.	0,15	0,15	0,15	0,30
Qattiq uchatsilglitserinlar miqdori, $20^{\circ}\text{C}$ da, % da.	29 – 37	29 – 40	Me'yorlan-maydi.	6 – 19
Kislota soni, mg KON dan ko'p emas	0,2	0,2	0,2	0,5
Yod soni, % J <sub>2</sub>	62 – 82	62 – 82	95 – 105	70 – 90
Ko'rsatkichlar.	2 – turi			
	2 – 1	2 – 2	2 – 3	
Hidi va ta'mi	Xidsiz va ta'msiz			
Rangi, qattiq holatda, etalon raqami VNIIJ – 18 pribori bo'yicha, ko'p emas.	3	3	7	
Erish harorati, $^{\circ}\text{C}$ .	31 – 34	31 – 37	28 – 35	
Qattiqligi, $15^{\circ}\text{C}$ da, g/ sm $^2$	160 – 280	160 – 280	40 – 130	
Namligi va uchuvchan moddalar miqdori, % dan ko'p emas.	0,15	0,15	0,30	
Qattiq uchatsilglitserinlar miqdori, $20^{\circ}\text{C}$ da, % da.	29 – 80	29 – 40	6 – 19	
Kislota soni, mg KON dan ko'p emas	0,2	0,2	0,5	
Yod soni, % J <sub>2</sub>	62 – 82	62 – 82	70 – 100	

5 marka salomaslar yod soniga qarab bo'linadi:

Texnik salomaslarning organoleptik va fizik-kimyoviy tavsifi 4-jadvalda keltirilgan.

Katalizator ishlab chiqarishda nazorat olib borish nikel' va mislarning suvli sul'fat tuzlari eritmasida temirni miqdorini aniqlashda, nikel' sul'fat tuzidagi nikel' miqdorini aniqlashda va boshqa analizlar qilishda o'z ifodasini topadi. Hozirda bu analizlar ko'pincha qilinmayapti, chunki hamma gidrogenizatsiya korxonalarida tayyor katalizatorlar keltirilmoqda.

Gidrogenlash jarayonida asosan quyidagi analizlar olib boriladi:

### 11-jadval

#### Texnik salomaslarning organoleptik va fizik-kimyoviy tavsifi

Ko'rsatkichlari	3 – turi		4 – turi	
	3-1,3-2, 3 – 3	3 – 4	4 – 1	4 – 2
Hidi	Salomasga mos, boshqa begona hidlarsiz.			
Rangi: Qattiq holatdagi $20^{\circ}\text{C}$ da; etalon raqami VNIIJ – 18 pribori bo'yicha ko'p emas	Och malla-rang 5	--	Malla – rang 10	--
Yog' kislotalarining qotish harorati	39 – 43	39 – 43	46 – 50	46 – 50

(titri), $^{\circ}\text{C}$				
Kislota soni, mg KON dan ko'p emas.	3,5	Nazorat qilinmaydi	5	Nazorat qilinmaydi
Namligi va uchuvchan moddalar miqdori, % dan ko'p emas.	0,3	0,3	0,3	0,3
Nikel' miqdori, mg/kg dan ko'p emas	20	60	20	60
Yod soni, % J <sub>2</sub> dan ko'p emas	65	65	65	65
Ko'rsatkichlar.	5 – turi			
	5 – 1	5 – 2	5 – 3	5 – 4
Hidi	Salomasga mos, boshqa begona hidlarsiz			
Rangi: Qattiq holatdagi $20^{\circ}\text{C}$ da; etalon raqami VNIIJ – 18 pribori bo'yicha ko'p emas	10	10	10	10
Yog' kislotalarining qotish harorati (titri), $^{\circ}\text{C}$	65	59	58	53
Kislota soni, mg KON dan ko'p emas.	8	8	7	6
Namligi va uchuvchan moddalar miqdori, % dan ko'p emas.	0,3	0,3	0,3	0,3
Nikel' miqdori, mg/kg dan ko'p emas	20	20	20	20
Yod soni, % J <sub>2</sub> dan ko'p emas	2,5	9	17	30

## 6.2. Salomasni erish haroratini va titrini aniqlash. *Salomasni erish haroratini aniqlash.*

Gidrogenlangan yog' - salomasni suyuq va tiniq holatga o'tish harorati erish harorati deyiladi. Bu hol haroratning bir muncha intervalida sodir bo'ladi. Bunda salomasdagi uchatsilglitserinlarning aralashmasida ularning har birining erish harorati nuqtasi har xil bo'ladi. SHuning uchun ham salomasning erish harorati 2 xil harorati bilan baholanadi:

1. Gidrogenlangan yog' harakatga kelgan harorat (erish harorati) va
2. Yog'ni to'la erib tiniq holga kelgan harorati (to'liq erish harorati).


Gidrogenlangan yog'-salomasni erish harorati quyidagi usullarda aniqlanishi mumkin:

1. Ikki tomoni ochiq kapilyarda yog'-tomchisining ko'tarilishi.
2. Kenggaytirilgan trubkadan yog' tomchilarining oqib chiqishi.

*Salomasni titrini aniqlash. Salomasning titri* - bu salomasni gidroliz qilganda ajratilgan yog' kislotalarning qotish haroratidir. Salomasni titrini aniqlash usuli yog' kislotalarining qotish haroratini aniqlash va grafigini tuzishga asoslangan.

To'la eritilgan yog' yoki gidroliz natijasida hosil bo'lgan yog' kislotsasi sovitilsa, uning harorati birinchi pasaya boshlaydi, keyin ular kristallahgan sari harorat pasayishi to'xtaydi, ayrim hollarda esa sovitish davom ettirilsa ham harorat ko'tariladi. To'liq kristallanishdan keyin sovitilayotgan yog'ning harorati tushishi davom etadi.

Qotish harorati – bu yog'ni yoki yog' kislotalarini sovitilganda olingan minimal harorati yoki yog'ni eritgandagi maksimal harorat hisoblanadi.



Rasm-1 Erigan salomasning yoki undan ajratib olingan yog' kislotalarning qotish haroratining ko'rinishlari. a – qotish harorati nuqtasi.

**6.3. Katalizator xarakatining mohiyati, faolligini aniqlash.** Gidrogenizatsiya jarayonida qo'llaniladigan katalizatorlar-Yog'larni gidrogenizatsiya sanoat katalizatorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) faqatgina gidrogenizatsiya protsessini tezlatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak va noxush reaktsiyalar yuz berishi kerak emas;
- 2) yuqori aktivlik ishlab chiqarish quvvati va selektivlikga ega bo'lishi kerak;
- 3) katalizator salomasdan oson ajralishi kerak;
- 4) katalizator bahosini arzonligi, xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishda ularning qulayligi.

Yog'larni gidrogenizatsiyalashda nikel' asosidagi katalizator ishlatiladi, shuningdek nikel' va mis katalizatorlari ham ishlatiladi. Kushcha sifatda xrom, titan, Pd, Pt va boshqa metallar ishlatiladi.


Katalizatorlar strukturasiga ko'ra kukunsimon va granullangan qotishma holida bo'ladi. Kukunsimon katalizator suspenziya (yog'da) ko'rinishda ishlatiladi, ularni dispersli yoki suspenziyalangan deyiladi, zarrachalar kattaligi 15 mkmdan oshmaydi. Granullangan katalizator qo'zg'olmas qatlama shaklida bo'lib, ularni turg'un katalizator, deyiladi.

Katalizatorni yuzasini ko'paytirish uchun metallarni yuzasi g'ovakli bo'lgan materialga cho'ktiriladi. Bu usul bilan olingan katalizatorni katalizator tashuvchi deyiladi.

Katalizatorlar olinish usuliga qarab 2ga bo'linadi:

- 1) cho'ktirilgan
- 2) qotishgan

**Katalizator xarakatining mohiyati.** Kimyoviy reaktsiyani amalga oshirish uchun molekula to'qnashishi kerak, lekin to'qnashishlarning juda kam qismi molekulalarning birikishiga olib keladi. Bu shu bilan izoxlanadiki, juda kam qism molekulalarning energiyasi bog'lar tuzib, yangi bog'lar hosil qilish qobiliyatiga ega. Molekulaning bu energiyasi, reaktsiyaning energiya aktivligi deyiladi.



- 1-katalizatorsiz reaktsiyaning yo'li
- 2-reaktsiyaning katalizator yo'li bilan
- Ye<sub>a</sub> gom. - katalizatorsiz energiya aktivligi
- Ye<sub>a</sub> geter. - katalizator ishtirokida energiya aktivligi

Katalizator reaktsiyaga kirishuvchi moddalar bilan birikib, yuqori reaktsiya qobiliyatli yuzani hosil qiladi atomlararo bog'lanishligi parcha-lashdan, ularni tuzilishini o'zgartiradi.

1 va 2 grafiklardagi maksimumlar farqi reaktsiyaning energiya aktivligini kamayganligini ko'rsatadi. Katalizatorlar reaktsiya tezligini  $10^6$ – $10^{16}$  marta tezlashtiradi, Masalan: gidrogenizatsiya jarayonining energiya aktivligi 700 KDj/mol dan 40-60 KDj/mol gacha kamayadi.

Gidrogenizatsiya quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1)reaktsiyaga kirishuvchi moddalarni katalizator yuzasiga keltirish;
- 2)bu molekulalarni katalizator yuzasida adsorbsiyalash;
- 3)sorbsiyalangan molekulalarining kimyoviy almashinishi va mahsulot hosil bo'lishi;
- 4)mahsulot molekulalari bog'larining katalizator yuzasidagi sarfi;
- 5)katalizator yuzasidan ularni ajratish.

Gidrogenlash jarayonida katalizator faolligini aniqlashning keng qo'llaniladigan usuli faolligi aniqlanayotgan katalizator ishtirokida namunaviy gidrogenlash usuli hisoblanadi. Katalizator faolligi olingan salomasni erish harorati orqali baholanadi.

Bu usul namunaviy gidrogenlash jarayonida olingan salomasni erish haroratini aniqlashga asoslangan. Namunaviy gidrogenlash qattiy standart shartlarda yaxshilab rafinatsiyalangan moydag'i analiz qilinayotgan katalizatorning aniq miqdori bilan olib boriladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Gidrogenlash, qattiq yog'lar, margarin, nazorat, salomas, fizik-kimyoviy, tavsif, organoleptik, titr, katalizator.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Gidrogenlash jarayonini nazorati qanday amalga oshiriladi?
2. Salomas ishlab chiqarishni nazorat qilishni tushuntirib bering?
3. Katalizator ishlab chiqarishda nazorat olib borishda nimalar aniqlanadi?
4. Gidrogenlash jarayonidagi asosiy analizlardan qandaylarini bilasiz?

## **7- MA'RUDA. MARGARIN, KONDITER VA KULINAR YoG'LARI HAMDA MAYONEZ ISHLAB CHIQARISH NAZORATI**

**Reja:**

- 7.1. Margarin, konditer va kulinar yog'lari to'g'risida umumiy tushunchalar.
- 7.2. Margarin ishlab chiqarish texnologik sxemasi.
- 7.3. Margarin sifatining bahosi.

**7.1. Margarin, konditer va kulinar yog'lari to'g'risida umumiy tushunchalar.** Margarin o'zida fizik – kimyoviy sistemani namoyon qiladi, asosiy komponentlardan biri bo'lgan – **suv (disperss faza)**, ikkinchi komponent – **yog'da (dispersion muhit)** mayda tomchi shaklida tarqaladi

va «**Suv– yog’» emul’siyali** ko’rinishida bo’ladi. Margarin tarkibiga yuqori sifatli yog’lar, sut, tuz, shakar, emul’gatorlar, rang beruvchi moddalar, ta’m beruvchi moddalar, vitaminlar va boshqa komponentlar kiradi.

**Margarinning yog’li qismiga** rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan o’simlik moylari, hayvon yog’lari, oziq-ovqat salomasi va yana pereeterifikatsiyalangan yog’lar kiradi.

**Margaringa qaymoqdek ta’m berish** uchun, unga tabiiy yoki ivitilgang (qatiq) sut qo’shiladi. SHu maqsadda unga aromatizatorlar qo’shiladi. «**suv-yog’» emul’siyasini** hosil qilishi uchun emul’gatorlardan foydalilaniladi.

**Margaringa qaymoq rangini** berish uchun oziq-ovqat rang beruvchi moddalari, mazaliroq bo’lishi uchun tuz va shakar qo’shiladi. Bundan tashqari, tuz margarinni uzoq saqlash uchun mustaxkamligini oshiradi.

Sanoatda margarindan tashqari yana **qandolat va kulinariya yog’lari, oziq-ovqat kontsentratlari uchun yog’lar, non - bulochka mahsulotlari, hamda mayonezlar ishlab chiqariladi**.

**Mayonezlar** tashqi ko’rinishi konsistentsiyasidan **smetanani** eslatuvchi suvdagi dezodoratsiyalangan o’simlik moyining yuqori disperss emul’siyasini namoyon qiladi.

**Kulinariya va qandolat yog’lari**, oziq-ovqat kontsentratlari uchun yog’lar va non-bulochka mahsulotlari margarindan suvsizligi bilan farqlanib turadi. Ularni tayyorlash uchun rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan yog’ va moy va ulardan hosil qilingan salomaslar yoki gidratlangan yog’ bilan hosil bo’lgan yog’lar aralashmasi va o’simlik moylaridan foydalilaniladi.

Margarin mahsulotlari sifati xom ashyo hamda retsepturadan sifatiga bog’liq.

«Oziq - ovqat » ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi GOST 240-72 bo'yicha margarin retsepturalarini, hamda texnik shartlar bo'yicha margarin retsepturalarini, bundan tashqari OST 18-197-74 va TU 18-17/3-74 (Samarkand frityur moyi) bo'yicha qandolat, kulinariya va non tayyorlash yog’lari retsepturalari ishlab chiqargan.

Margarin olishning texnologik jarayoni (**o’ta sovitish usuli bilan**) quyidagi operatsiyalardan iborat:

**saqlash va dezodoratsiyalangan yog’ni isitish;**

**sut, suv, tuz, shakar, emul’gator, rang beruvchi modda, vitaminlarni tayyorlash;**

**margarin emul’siyasini dastlab trubali, vintli yoki propellerli aralashtirgichlarda, undan keyin gomogenizatorda tayyorlash;**

**sovutgichda margarinni qadoqlash.**

Margarin, qandolat, non tayyorlash va kulinariya yog’lari, mayonez ishlab chiqarish umumiy bir qismlarga ega. Bu jarayonlar 11 – sxemada keltirilgan.

**7.2. Margarin ishlab chiqarish texnologik sxemasi.** Margarin sariyog’ga o’xshash yog’ sifatida 1868 yilda frantsuz kimyogari Mej-Mur’e tomonidan ishlab chiqarilgan. U eritilgan mol yog’ining tez eriydigan qismini sigir oshqozonidagi zardob yordamida emul’siyalashni taklif etdi. Hosil bo’lgan aralashmani yax suvda sovutilganda yarim qattiq och sariq rangli yaltiroq donachalar hosil bo’ladi. Mej-Mur’e ularni margarin (margaret - frantsuzcha marvarid) deb atadi. Ya’ni marvarid ma’nosini bildiradi. Margarin bu mayda zarrachali emul’siya bo’lib uning tarkibiga: yog’lar, sut, tuz, shakar, vitaminlar, fosfatidlar, emul’gatorlar va boshqa moddalar kiradi.

Birinchi margarin zavodlari SNGda 1930 yilda Moskva va Sankt-Peterburgda ishga tushirilgan.

Hozirgi vaqtida SNGda 38ta zavod faoliyat ko’rsatmoqda va yiliga 11 mln. 400ming tonnadan ko’p margarin mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. Respublikamizda Toshkent yog’-moy kombinatida qattiq va yumshoq margarin ishlab chiqarilmoqda.

Moylarning ozuqa qiymati ularning energetik qiymati va fizik ta’siri orqali aniqlaniladi. Margarin kishi organizmiga singishi jihatidan sut yog’idan past emas va energetik jihatidan undan yuqori turadi. Buni quyidagi jadvalda ko’rish mumkin.

## 12 – jadval

Nº	Moddalar	O'rtacha energetik qiymati, Kj	Kishi organizmiga singishi, %
1	Sut yog'i	38,64	93-98
	Paxta yog'i	39,48	95-98
	Kungaboqar yog'i	39,23	95-98
	Qo'y yog'i	38,84	74-84
	Mol yog'i	38,84	75-83
	Sari yog'	32,51	93-98
	Margarin	32,61	93-98

Ma'lumki mayda zaprachali emul'siya holatidagi yog'lar kishi organizmiga yaxshi singadi. Bunga yog'larning suyuqlanish harorati ham ta'sir etadi. SHu sababli, margarin uchun ishlatiladigan yog'larning xususiyatlari asos qilib olinib, mahsulotning erish harorati  $31-34^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Margarinda mavjud bo'lgan essentialsial (to'yinmagan) yog' kislotasi uning fiziologik qiymatini oshiradi.

**Margarin mahsulotlarining assortimenti.** Margarin mahsulotlari quyidagilarga bo'linadi: 1. Margarinlar (by yog' va sut yog'i yoki suv emul'siyasi) tarkibida yog'ning miqdoridan kam bo'lmasligi kerak (sutli margarinlar). 2. Yog'lar qandolat, non mahsulotlari uchun va oshpazlik), yog'ning miqdori 99,7% gacha.

Ishlatilishiga va retsepturaga qarab margarinlar quydagilarga bo'linadi:

- a) Oshxona va markali (buterbrod) margarinlar.
  - b) Sanoatda qayta ishslash va umum ovqatlanish tizimi uchun.
  - v) Maza kirituvchi qo'shilmalar bilan (yog'liligi 62% dan kam bo'lmasligi kerak).
- Margarinlar qattiq, yumshoq, suyuq, holatda bo'lishi mumkin.

Yumshoq margarinlar buterbrod yog'i sifatida ishlatiladi. Suyuq margarinlar non mahsulotlari, unli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun foydalaniadi.

Maza kirituvchi moddalari bor margarinlar (shokoladli) tarkibida kakao-poroshok, ko'p miqdorda shakar bo'ladi va ular qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun ishlatiladi.

Qandolat yog'lari quyidagi assortimentda ishlab chiqariladi: pechen'e, shokolad va vafelli mahsulotlari uchun.

Non mahsulotlari uchun ishlatiladigan yog'lar fosfatid qo'shilib kerakli holatida tayyorlanadi.

Kulinar yog'lari turli tarkibga ega bo'lib quyidagi komponentlardan iborat: salomas, perezterefiksyalangan yog', o'simlik moyi, kulinar yog'lar tarkibiga: mol va qo'y yog'lari ham qo'shiladi.

**Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyolar.** Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo bo'lib yog' va sut tanlanadi.

**Yog'li xom ashyo.** Asosiy xom ashyo bo'lib suyuq va gidrogenlangan (salamas) xoldagi o'simlik moyi hisoblanadi. Kungaboqar, paxta va soya yog'i qo'llaniladi.

Gidrogenlangan moy - margarin mahsulotining retseptidagi asosiy komponentidir.

Mahsulotlarning rangi, erish harorati va qattiqligi – sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Hayvon yog'laridan: kuydirilgan mol, qo'y yog'lari va sari yog' ishlatiladi.

**Sut.** Margarin ishlab chiqarish uchun pasterizatsiyalangan yoki achitilgan sut ishlatiladi. Achitilgan sut margaringa o'ziga xos maza, xushbo'y, xid beradi va margarin yaxshi saqlanadi.

Sutdagi quruq qoldiq miqdori 8,0% dan ko'p va kislota soni  $21^{\circ}\text{T}$  dan kam bo'lishi kerak (Ternerdag'i kislota soni deb 100ml ga neytrallash uchun kerak bo'lган 0,1 normalli NaOH yoki KON massasining millilitrlar soniga aytildi).

Agarda, kislota soni  $23^{\circ}\text{T}$  dan ortib ketsa, pasterizatsiya va sut ivib qolishi mumkin. Yangi sog'ilgan sutning kislota  $15\text{-}16^{\circ}\text{T}$  ga teng bo'ladi.

**Emul'siyalar haqida.** Margarin – suv-moy aralashmasidagi quyuq emul'siyadir. Emul'siya - bu oddiy sharoitda tashqi ko'rinishidan bir xil bo'lib, bir-birida aralashmaydigan va erimaydigan ikki suyuqlik aralashmasidir. Suyuqliklardan biri - mayda zarrachalar (tomchilar) shaklida, ikkinchisida taqsimlangan bo'ladi. Ikki turdag'i emul'siya mavjud. To'g'ri qutblanmagan suyuqlik (yog') qutblangan suyuqlik (suv) ichida, ya'ni suvning ichida yog'(Yo-S); teskari qutblangan suyuqlik (suv) qutblanmagan suyuqlik (yog') ichida, ya'ni suv yog'ning ichida (S-Yo).

Tabiatda aralash emul'siyalar ham mavjud. Odatda suvdagi yog'ning yuqori kontsentratsiyasida aralash emul'siyalar hosil bo'ladi. Masalan, sari yog'. SHuning uchun sari yog' eritilganda sachramaydi.



Margarin ishlab chiqarishda aralashma emul'siya hosil qilishga harakat qilinadi. Emul'siya barqaror bo'lishi uchun emul'gatorlar ishlatiladi.

**Retseptura tuzish.** Margarinni ko'rinishi, sifati, mazasi uni tarkibiga qo'shiladigan moddalarning turi va miqdori (retseptura)siga bog'liq bo'ladi.

Margarinning yog'li asosi turli yog'larning aralashmasidan iborat. Erish harorati, qattiqlik va qattiq fazalar miqdori margarin - asosiy ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. Suyuqlanish harorati asosning tarkibiga bog'liq.

Mo'ttadil struktura hosil bo'lishi uchun margaringa suyuqlanish harorati har xil bo'lgan salomasning bir necha turlari, pareeterifikatsiyalangan moylar va suyuq o'simlik yog'lari qo'shiladi.

Qandolat, non mahsulotlari uchun va kulinar yog'larning yog'li asos retsepturalari ularni ishlatilishiga qarab tuziladi.

### 13-jadval

Sutli margarinlar retsepturasi.

Komponentlar	Stoloviy %	Sari yog'li %	Ekstra %
1. Salomas. Ts 31-34% qattiqlik 160-320 g/sm	46	50	26
2. Salomas Ts 35-36 °S K=350-410 g/sm	11	8	12
3. Paxta pal'mitini Ts 18-22 S	8	-	8
4. O'simlik moyi	16	15	10
5. Kokos yog'i	-	-	25
6. Sari yog'	-	10	-
7. Bo'yoq	0,2	0,2	0,2
8. Sut	12	8	16
9. Emul'gator	0,2	0,2	0,2
10. Tuz	0,4	0,3	0,3
11. SHakar	0,4	0,3	0,3
12. suv	6	8	2
Jami	100	100	100
SHu jumladan yog'lilik sut yog'i bilan birgalikda	82	82	82

Yumshoq margarinning retsepturasi


Komponentlar	% miqdori
1. Salomas Ts 31-34 <sup>0C</sup> qattiqligi 160-320 g/sm	15
2. Salomas Ts 35-37 <sup>0C</sup> qat. 550-750 g/sm	10
3. O'simlik moyi	25
4. Kakos yog'i	9
5. Bo'yoq	0,3
6. Emul'gator	0,4
7. Tuz	0,3
8. Sut	15
9. Suv	25
Jami	100
SHu jumladan yog'lilik, sut yog'i bilan birgalikda	60,25

## Kulinar yog'larining retsepturasi

Komponentlar	Pechen'e uchun konditer yog'i	O'simlik moyi	Kulinar yog'	
			SHarq	Belorus
1.Salomas Ts 31-34°C kat. 160-320 g/sm	73	70	65	35
2. Mol yog'i	24	-	-	30
3. Qo'y yog'i	-	-	15	-
4. O'simlik moyi	-	10	10	20
5. Paxta pal'mitini	-	20	10	15
6.Fosfatid kontsentrati	3	-	-	-
Jami:	100	100	100	100

7– sxema

### MARGARIN ISHLAB CHIQARISH



**7.3. Margarin sifatining bahosi.** Margarin sifatini bahosi **GOST 240-72 «Margarin texnik ko'rsatkichlari»** bog'liq ravishda olinadi. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga binoan margarin **82 % yog'**, **62 % yog'ga ega qo'shiladigan shokolad yog'isiz**, va **83 % dan kam bo'limgan yog'ga, ega suyuq yog'** (non tayyorlash sanoati uchun). Xar xil margarinlarda namlik va uchuvchan moddalar miqdori **16 - 17 %**, margarindan olingan yog'ning erish harorati **27 - 36 %**. Kislotaliligi (Ketstorer gradusida) **2,0 - 2,5 °** dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Qandolat, non tayyorlash va kulinar yog'ni, margarinni sinash usullari **GOST 976-81** bilan tasdiqlanadi.

Margarinning organoleptik ko'rsatkichlari ta'mi va xidi uning sifatining asosiy belgilari deb xisoblanadi.

**Margarin quyidagi talablarga javob berish kerak.**

- 1) Qaymoqni ta'mi va xidiga yaqin bo'lishi kerak.
- 2) Birikish va plastik konsistentsiya.
- 3) Bo'yagan margarinning butun og'irligi bo'yicha och sariq, bo'yalmaganniki oq bo'lishi kerak.

Qovurganda margarin sachramasligi kerak.

Organoleptik analiz o'tkazish texnik kontrol' bo'limi xodimlaridan ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi. Ular o'zlarida mutaxassis-texnolog ega bo'lishi kerak bo'lgan o'rta maza ta'm sezgirligiga ega bo'lislari kerak.

Degustator 4 asosiy organoleptik xossa sifatini yuqori chegaralarda farqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ta'm farqning katta oraliqlarida qiyin sezgi uyg'otadigan quyi kontsentratsiyali moddalarni aniqlash.

Moddalar kontsentratsiyalari orasidagi eng kichik farq, hamda yetarlicha sezgi uyg'otadigan moddalarni aniqlash.

Degustatorning modda asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash qobiliyatini sinab ko'rish uchun saxarozalar (shirin ta'm) suvli eritmalaridan foydalaniladi.

Degustator maza-ta'm sezgirligini sinash eritma kontsentratsiyasi nolga teng bo'lgan distillangan suvda olib boriladi.

Eritmalarni sezish oraliq'i quyidagicha bo'lishi kerak:

**saxaroza – 0,2, natriy xlorid – 0,18, vino kislota – 0,01 va  
kofein – 0,0038 %.**

Har xil kontsentratsiyali yuqorida ko'rsatilgan suvli eritmalarining maza-ta'm farqini aniqlanish sinash, kontsentratsiyalari bo'yicha minimal darajada farq qila oladigan ikkita eritma maza-ta'mlari farqini aniqlashga asoslanadi.

Xidni aniqlash usullari yog'-moy sanoati mahsulotlarini xidini sifatini aniqlash yo'liga asoslangan.

Xidlar namunasi sifatida dezodoratsiyalangan xar xil sifatli o'simlik moylari, turli xil uchuvchan moddalar tutgan, mol yog'i, margarin xar xil tarkibli diatsetil bilan, margarin aromatizatorlar bilan qo'llaniladi.

Degustator maza va xidni aniqlashda **9 tadan 7 ta** sini aniqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Amaliyot ko'rsatadiki, barcha muxandis-texnologlar yog'-moy mahsulotlariga organoleptik baho berish qobiliyatiga ega emas. Degustatsion komissiya tashkil

qilishda ishchilar organlari sezgirligi bo'yicha tanlov olib borish zarur.

Margarin sifatini baholash kimyoviy analiz uchun o'tkazilgan tajribalarda olingan organoleptik ko'rsatkichlar bo'yicha olib boriladi.

Margarinni organoleptik ko'rsatkichlarini aniqlash quyidagicha olib boriladi.

Qadoqlanmagan margarin uchun shur yordamida xar bir nuqtadan olingan tajriba bo'yicha;

Qadoqlangan margarin uchun-analiz uchun tanlangan xar bir birlik qadoqlangan mahsulot bo'yicha.

## **Tayanch so'z va iboralar**

Margarin, mayonez, oshxona yog'i, nazorat, qandolat yog'i, emul'gator, texnik ko'rsatkich.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Margarin ishlab chiqarishni nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
2. Mayonez ishlab chiqarishni nazorati qanday olib boriladi?
3. Oshxona va qandolat yog'lari ishlab chiqarishni nazorat qilish qanday olib boriladi?
4. Margarinni sifati qanday baholanadi?

### **8-ma'ruza. Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish**

**Reja:**

- 8.1. Glitserinni olish usullari.
- 8.2. Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishning texnokimyoviy nazorati.
- 8.3. Gidrolizning chuqurligi va glitserin suvining kontsentratsiyasi.

**8.1. Glitserinni olish usullari.** Yog' va moylarning asosiy komponenti bo'lgan triglitserinlarning gidrolizida – glitserin va yog' kislotalari olish texnologik opreratsiyalari parchalanish deyiladi. Glitserin va yog' kislotalari olish xom ashyosi bo'lib tabiiy gidratlangan yog' kislotalari hamda xayvon moylari xizmat qiladi. Bu yog'lar reaktivsiz parchalanadi. Bundan tashqari trigletserinlar gidrolizining komponentli usuli ma'lum, bu usul gidrolizning tezlashtirish (Petrov komponent usuli) va gidrolizning ishqorlar yordamidasovunlanishiga asoslangan.


I–navli texnik glitserin reaktivsiz usulda glitserinli suvlardan olinadi.

II – nav kontaktli glitserin usulida va III – nav esa ishqorlar bilan sovunlash (yog' va moylarni rafinatsiya qilishda hosil bo'ladigan soapstoklardan) usulida olinadi.

Reaktivsiz parchalanish jarayoni 8-sxemada ko'rsatilgandan olib boriladi.

**8-sxema**

#### **Glitserinni reaktivsiz parchalash usuli yordamida parchalash**




<b>Gudron kondensatsiyasi</b>	<b>Isitish Adsorbent bilan oqlash fil'trlash glitserinni xaydash</b>	<b>qayta parchalash va distilyatsiya uchun kub qoldiq</b>
<b>Distilyatsiyalangan glitserin (98,5-99 % glitserin)</b>		<b>Distilyatsiyalangan yog' kislotalari</b>

Distillyatsiyalangan yog' kislotalari yog' va moylarni ishqorli rafinatsiya qilish jarayonida hosil bo'ladigan soapstoklardan ham olinishi mumkin. Bunda texnologik jarayon soapstoklarni tozalash, ya'ni soapstokga yana ishqor berib oxirgacha sovunlash va oltingugurt kislotsasi bilan parchalashdan iborat. Bundan xosil bo'lgan yog' kislotalari distillyatsiyalanadi. (9-sxema)

### 9-sxema

**Soapstoklardan distilyatsiyalangan yog' kislotalarini olish.**



Distilyatsiyalangan yog' kislotalari kerak bo'lganda erish xaroratini ko'tarish uchun gidrogenizatsiya qilinishi mumkin. Yog' va moylarning gidrolizida parchalanish uchun kelayotgan xom ashyo sifati nazorat qilinadi, jarayonning texnologik parametrlari (temperatura, qurilmalardagi bosim, triglitserinlarning gidroliz chuqurligi).

Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishning texnokimyoviy nazorati 10-sxema va 14-jadvallarda keltirilgan.

Texnik glitserinning sifati GOST 6823-77 «Xom glitserin. Texnik talablariga» javob berishi kerak.


Texnik glitserin sifat ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar I, II va III navlarda ishlab chiqariladi (15-jadval).

Distilyatsiyalangan glitserin sifat ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar dinamitli, yuqori va I, II navli glitserinlarga bo'linadi (27-jadval).

Respublikalararo texnik tabalalarga binoan MRTU 18/122-66 o'simlik moylarining distilyatsiyalangan yog' kislotalari: kungaboqar paxta, soya, kanakunjut, raps, gorchitsa moylarining sovun pishirish va sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlatilishi uchun sifat xarakteristikalariga javob berishi kerak (28-jadval).

10-sxema

**Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishining texnokimyoviy nazorati. (- nazorat nuqtalari)**



## 8.2. Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishning texnokimyoviy nazorati

14-jadval

### Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishning texnokimyoviy nazorati

Nazorat ob'ekti	Namuna olish usuli yoki nazorat usuli	Nazorat davriyiligi	Aniqlanuvchi ko'rsatgich
Parchalanishga kelayotgan yog' va moylar	SHtutserli na'muna oluvchi	Har bir partiya uchun	Namlik, kislota soni, sovunlanmaydigan lipidlar tarkibi, rang, xid
Soapstok	Zonali namuna oluvchi	Xuddi shu	Erkin oltingugurt kislotasining mavjudligi, parchalanish chuqurligi
Glitserin suvi	SHtutserni namuna oluvchi	Kerak bo'lganda	Glitserin mavjudligi
Yog' kislotalari	Zonali namuna oluvchi	Xuddi shu	Glitserin mavjudligi
Texnik glitserin	Xuddi shu	Har bir partiya uchun	Glitserin mavjudligi hamda zola, organik uchmas qoldiq, yog' kislotalari
Distilyatsiyalangan glitserin	Xuddi shu	Har bir partiya uchun	Sifat ko'rsatgichlari GOSTga binoan
Distilyatsiyalangan yog' kislotalari	Xuddi shu	Kerak bo'lganda	Parchalanish chuqurligi, titr, rang, tiniqlik, namlik, sovunlanmaydigan va dietil efirda erimaydigan moddalarning mavjudligi, mineral kislotasining mavjudligi
Kub qoldiq	Xuddi shu	Smenada 1 marta	Kislota soni

15-jadval

### Texnik glitserinning fizik- kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Navlar uchun glitserin me'yorlari		
	I	II	III
Rangi	Och sariqdan jigarranggacha	och	Jigar rangdan to'q emas
Tiniqligi	SHaffof, ustki qatlamdagи ko'piksiz		Ozgina loyqalanish ruxsat etilgan
Toza glitserinning massa qismi, %	86,0	86,0	78,0
0,1 glitserin, NS1 yoki KON eritmalar reaktsiyasi, ml	6	6	6
Zolaning massa qismi, %	0,35	1,8	9,5
Uchmas organik qoldiqning massa qismi, %	0,85	2,0	4,0
Yog' kislotalari va smolalar (sifat na'munasi)	yo'q		Izlar
Oltingugurtning kislotali, tuzli birikmalari (sifat na'munasi)	yo'q		Yo'q
Sirt aktiv moddalar (SAM) ning distilyatsiyaga kelayotgan glitserinda mavjudligi, 0,1 N NS1 eritmasi, ml	2,0	5,0	Me'yorlanmaydi

**16-jadval**

**Distilyatsiyalangan glitserinning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Glitserinning xarakteristikasi			
	Dinamitli	Yuqori navli	I-nav	II-nav
Rang soni, mg J <sub>2</sub> /100, ml	5	0	0	10
Tiniqlikligi		Tiniq		
Glitseringa xos bo'lмаган quyidagi temperaturalarda xidning yo'qligi	100 gacha	15	-20	--
Zichlik ρ <sub>20</sub> g/sm <sup>3</sup>	1,2584	1,2481	1,2481	1,2322
0,1 N NS1 yoki KON va glitserin reaktsiyasi, ml	1,5	1,5	1,5	1,5
Toza glitserin miqdori, %	98	94	94	88
Kul miqdori, %	0,14	0,01	0,02	0,25
Uchmas organik qoldiq miqdori, %	0,1	0,02	0,04	0,25
1 g glitserin uchun sovunlanish koeffitsienti (murakkab efirlar) mg KON	0,7	0,65	Me'yorlanmaydi	

**17-jadval**

**Kungaboqar va paxta moylarini parchalash yordamida olingan yog' kislotalari ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Kungaboqar moyining yog' kislotalari		Paxta moyining yog' kislotalari	
	Gidratlangan rafinatsiya langan I-navli yog'dan	Rafinatsiya lanmagan II-navli yog'dan	Rafinatsiya langan I-navli yog'dan	Rafinatsiya lanmagan II-navli yog'dan
20 ° S rang	Sariqdan och jigarrang gacha	To'q sariqdan to'q jigarrangacha	Och jigarrang gacha	Jigarrangdan to'q jigarrang gacha
Eritilgan holdagi tiniqlik	Tiniq	Tindirilgan dan so'ng ozgina loyqa ruxsat etilgan	tiniq	Tindirilgan dan so'ng ozgina loyqa ruxsat etilgan
Sovunlamaydigan lipidlar (moddalar), %	1,0	1,25	2,0	2,0
Namlik va uchuvchan moddalar miqdori, %	1,5	2,0	1,5	2,0
Yod soni, % J <sub>2</sub>	125-152	125-152	106-118	106-118
Parchalanish chuqurligi, % olein kislotasi	94	93	93	92
Oltingugurt kislotasining miqdori		Ruxsat etilmagan		

Texnik olein kislotasini ishlab chiqarish uchun (GOST 7580-55) suyuq o'simlik moylarini parchalash orqali olingan yog' kislotalari ishlatish uchun (GOST 6484-64) – gidrogenizatsiyalangan paxta, kungaboqar, koriandr moylari (salomaslar) shuningdek paxta moyi soapstokining gidrogenizatsiyalangan yog' kislotalari ishlatiladi.

**8.3. Gidrolizning (parchalashning) chuqurligi va glitserin suvining kontsentratsiyasi.** Triglitserinlarning gidrolizi suv ta'siridagi gidrolizi reaktsiyasi

qadamma qadam oraliq moddalar hosil bo'lish bilan birga boradi. Dastlab triglitserin molekulasi suvning bir molekulasi bilan ta'sirlashib diatsilglitserin va erkin yog' kislotasi hosil qiladi, keyin diatsilglitserin suvning ikkinchi molekulasi bilan ta'sirlashadi va monoatsilglitserin hamda yana bir erkin yog' kislotasini hosil qiladi va nioxyat monoatsilglitserin suvning yana bir molekulasi bilan reaktsiyaga kirishib glitserin va erkin yog' kislotasi (gidrolizning boshidan 3 chi) hosil qiladi. SHuning uchun triglitserinlarning gidrolizi to'liqligi xaqida parchalanayotgan yog' tarkibida paydo bo'lган erkin yog' kislotasi orqali baho beriladi. Gidroliz chuqurligining ko'rsatkichi yog'larning parchalanish va glitserin olish jarayonini nazorat qilishda xizmat qiladi. Gidrolizning chuqurligi gidrolizatdagi erkin yog' kislotalarining massa qismini aniqlash orqali topiladi.

### **Glitserin analizi**

GOST 7482-76 «Glitserin sinov usullari» bo'yicha glitserin analizi o'z ichiga glitserin sifat ko'rsatkichlarini aniqlashni: glitserin massa qismi, hamda kul, uchmas organik qoldiq, sovunlanish koeffitsientini o'z ichiga oladi.

#### **Tayanch so'z va iboralar**

- |              |                   |
|--------------|-------------------|
| 1. Gidroliz  | 2. Parchalash     |
| 3. Glitserin | 4. Yog' kislotasi |
| 5. Reaktivli | 6. Reaktivsiz     |
| 7. Soapstok  |                   |

#### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Yog' va moylarning parchalanishi qanday amalga oshiriladi?
2. Yog'larni reaktivsiz parchalash usuli qanday olib boriladi?
3. Glitserinning sifat ko'rsatkichlarini aytib Bering?
4. Soapstokdan yog' kislotalari olish qanday usulda amalga oshiriladi?
5. Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish qanday olib boriladi?
6. Yog' kislotalarini ko'rsatkichlaridan nimalarni bilasiz?

### **9-MA'RUZA. SOVUN ISHLAB CHIQARISHNI NAZORAT QILISH**

#### **Reja:**

- 9.1. Sovun ishlab chiqarish va uning nazorati.**
- 9.2. Xo'jalik va atir sovunning sifat ko'rsatkichlari.**
- 9.3. Sovundagi qo'shimcha materiallar.**


**9.1. Sovun ishlab chiqarish va uning nazorati.** Moylarni qayta ishslash sanoati atir sovun xo'jalik uy-ro'zg'or va maxsus sovunlarni bo'laksimon, parashoksimon, pastasimon va suyuq ko'rinishlarda ishlab chiqaradi. Sovun ishlab chiqarish xomashyosi bo'lib o'simlik, hayvon yog'i va moylari, shuningdek ularidan olinadigan salomaslar xizmat qiladi. Odatda moyli xomashyo tarkibiga kiruvchi trigletserinlar parchalanib, ya'ni erkin yog' kislotalariga gidrolizlanib ishqorlar bilan reaktsiyaga kirishadi. Va yog' kislotalari tuzlarining sovunlarini beradi. Oziq - ovqat moylarining texnik talablarga sarflarini kamaytirish maqsadida sovun ishlab chiqarish uchun hayvonlarning texnik yoglari, salomaslari sintetik yog' kislotalari, kanifollar, tall va naften kislotalari, salomas ishlab chiqarishda xosil bo'ladigan yog' kislotalari va uchuvchan moddalar ishlatila boshladi.

Sovun ishlab chiqarishning texnologik jarayoni ikki asosiy operatsiyadan tashkil topgan:

**ishqor ta'sirida yog' kislotalarining tuzlarini xosil qilish** (sovunli asos tayyorlash) va **sovunli asosni qayta ishslash**, ya'ni unga tovar ko'rinishini berish (**sxema 11**).

**11-sxema**

**Sovun ishlab chiqarish.**




Sovun ishlab chiqarishning texnokimyoviy nazorati boshlang'ich oraliq va yakuniy mahsulotlarning sifat kattaliklarini aniqlaydi, shuningdek temperatura, namlik, bosim va komponentlarning kontsentratsiyasi kabi ishlab chiqarish texnologik rejimlarini aniqlaydi va regulirovka qiladi (sxema 12, jadval 29)

12-sxema

Sovun ishlab chiqarish nazorati

( - nazorat nuqtalari)



18-jadval

Sovun ishlab chiqarish nazorati

Nazorat ob'ekti	Namuna olish yoki nazorat usuli	Nazorat davriyiligi	Aniqlanuvchi ko'rsatkich
Gidratlangan yog'lar va sintetik yog' kislotalari, o'simlik moylari	SHtutser namuna oluvchi	Kerak bo'lganda	MRTU yoki TU bo'yicha sifat ko'rsatkichlar
O'yuvchi natriy, kal'tsiylangan soda	SHup	Kerak bo'lganda	Xuddi shu
Moyli kompozitsiya	SHtutserli namuna oluvchi	Kerak bo'lganda	Sovunlanish soni, namlik, titr, erkin o'yuvchi natriy miqdori, erish soda miqdori
Uy-ro'zg'or sovunining bo'laklari	Qo'lida 10 ta bo'lakdan	Smenada 1-2 marta	Yog' kislotalari, erkin o'yuvchi ishqor miqdori, sifat soni, tashqi

			ko'rinishi, konsistentsiya, rang, xidi
Atir sovunining	Qo'lida 10 ta bo'lakdan	Smenada 1-2 marta	Yog' kislotalari miqdori, bo'lakning o'rtacha massasi, TSH bo'yicha sifat ko'rsatkichlari

## 19-jadval

### Guruxlar bo'yicha sovunning sifat xarakteristikasi

Ko'rsatkichlar	«Ekstra»	«D»	I	II	III
Yog' kislotalari miqdori, %	--	73	72	72	72
Yog' kislotalari miqdori, %, bo'lakning nominal massasiga	80±2	75±1	75±1	75±1	75±1
Erkin o'yuvchi ishqor miqdori, %	0,05	0,03	0,05	0,05	0,05
Erkin soda miqdori, %	0,20	0,20	0,20	0,25	0,30
Sovundan ajratib olingan yog' kislotsasining qotish harorati (titr), °S	36-41	36-41	36-41	36-41	36-41
Suvsiz lanelin yoki spermatsset miqdori, %	--	1,0	--	--	--
Bor kislotasi miqdori, %	--	0,5	--	--	--
NaCl miqdori, %	0,40	0,40	0,50	0,70	0,70
Yog' kislotalarining yod soni	55	55	55	60	60
Ko'pikning boshlang'ich hajmi, ml	350	320	300	300	300

Sovun ushlab ko'rilmaga qattiq bo'lishi kerak. Sovunda yoriqlar, teshiklar, dog'lar, xira shtamp va qiyshiq qirqimlar bo'lmasligi kerak. Ekstra, D va I –guruxlar uchun 10 tadan ko'p bo'limgan hamda II va III-guruxlar uchun 15 tadan ko'p bo'limgan kichik nuqta dog'lar ruxsat etilgan. Bo'lakning ustki qismi silliq

bo'lishi kerak, bo'laklarning deformatsiyasi ruxsat etilmaydi. Begona qo'shimchalar ruxsat etilmaydi.

**9.2. Xo'jalik sovunni sifat ko'rsatkichlari.** Sovunni yog'li xom ashyo retsepturasiga uning fizik-kimyoviy xususiyatiga natriy tayyorlash texnologiyasiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun retseptura turli sovun sifatlari ishlab chiqarishning asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Retseptura tugaganda shunday yog'larni tiklash kerakki sovun qattiq va qayishqoq, yaxshi eriydigan, sarflanadigan va yaxshi yuvish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Sovunni asosiy fizik-kimeviy ko'rsatkich bo'lgan titr quyidagi formula bilan topiladi:

$$T_{sm} = (T_1 S_1 + T_2 S_2 + \dots + T_n S_n) / 100$$

Bu yerda:

$T_1, T_2, \dots, T_n$  - yog'li aralashmadagi komponentlarni titri  $^{\circ}\text{C}$ ;

$C_1, C_2, \dots, C_n$  - yog' aralashmasidagi komponentlarni % miqdori.

## 20-jadval

### Xo'jalik sovunini retsepturasi

Xomashyo	72% li sovun	60%li sovun
Salomas	38-60	22-46
Mol yog'i	5-17	5-12
Soapstok Ye.K.	0-7	23-25
S.E.K.	12-40	16-48

Yog'li aralashma titri  $36-42^{\circ}\text{C}$  bo'lishi kerak.

## 21-jadval

### Xo'jalik sovunining fizik-kimyoviy xarakteristikalari

Ko'rsatkichlar	72 %li	70 % li	60 % li
Yog' kislotalarining massa qismi, %	72±1,5	70±1	60 dan kam emas
Sifat soni (bo'lakdagi yog' kislotalari soni), g	180±4	240±1	200±1
Bo'lakning nominal massasida erkin o'yuvchi ishqorning massa qismi, %	0,15	0,15	0,20
Bo'lakning nominal massasida erkin sodaning massa qismi, %	1,0	1,0	1,0
Sovundagi ajratilgan (titr) yog' kislotalarining qotish harorati, °S	36-42	35-42	35-42
Sovunlanmaydigan organik moddalarning massa qismi va yog' kislotalari massasida sovunlanmagan yog'lar, %	2,0	2,0	3,5
Bo'lakning nominal massasida suvda erimaydigan aralashmalarning massa qismi, %	0,30	0,40	0,50
Ko'pikning boshlang'ich hajmi, ml	300	300	300

## 22-jadval

### Atir sovun retsepturasi

Xom ashyo	I rp ekstra	II gr	III gr	Bolalar sovuni
Xayvon yog'lari	70-60	33-27	17-13	33-27
D. Ye. K.	—	32-38	52-48	32-38
S.E.K. S <sub>10</sub> -S <sub>16</sub>	—	16-10	14-16	—
Kakos moyi	13-17	6-8	3-5	13-17

Yog' aralashmasini titri 31-41°C bo'lishi kerak.

**Asosiy xomashyo.** Sovun sifati ishlatiladigan yog'lar sifatiga bog'liq bo'ladi. Atir sovuniga ishlatiladigan xomashyolarga yuqori talablar quyiladi. To'q rangli yoqimsiz xidli xomashyolar kir sovunga ishlatiladi.

Hayvon yog'lari: qo'y, mol yog'lari sovun uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi, ayniqsa atir sovun uchun.

Texnik hayvon yog'lari - kir va atir sovunlarga ishlatiladi. Yog'ni tarkibida yog' bo'lgan xomashyolarni qizdirish usuli bilan olinadi.

Kokos va pal'ma yadro moylari atir sovuni uchun ishlatiladi. Ularda 52% gacha laurin va 19% gacha miristin kislotasi bor. Bu yog'lar sovunning qayishqoqligini oshiradi.

Pal'ma yog'i yog' kislota tuzilishiga qaraganda hayvon yog'lariga yaqin va atir sovun olish uchun ishlatiladi.

Salamas -yuqori titrli(46-50°C) kir sovun uchun, pas titrli (39-45°C) atir sovun uchun ishlatiladi. Saopstokdan olinadigan YeK xom va distirlangan xolida ishlatiladi. SYoK sovun

pishirishda tabiiy yog' kislotalari o'rniga ishlatiladi. Fraktsiyasi S<sub>10</sub>-S<sub>16</sub> bo'lganlar kokos yog'i o'rniga, S<sub>17</sub>-S<sub>20</sub> qattiq yog' o'rniga ishlatiladi.

SYoK namligi: S<sub>10</sub>-S<sub>16</sub> fraktsiya tarkibida 4-5% past molekulali kislotalar S<sub>5</sub>-S<sub>9</sub> bo'lib, ularnisovuni ko'piklamaydi va yuvish qobiliyatiga ega emas, bundan tashqari bu sovunlarning suvdagi eritmalar odam terisiga ta'sir qiladi (razdrajaet).

S<sub>17</sub>-S<sub>20</sub> fraktsiya SYoK tarkibida 15-20% yuqori molekulali yog' kislotalari (S<sub>25</sub> gacha) bo'lib, ularni sovuni suvda yaxshi eriydi va past yuvish qibiliyatiga ega.

Har ikkala fraktsiya tarkibida (S<sub>10</sub>-S<sub>16</sub> da 2,2%, S<sub>17</sub>-S<sub>20</sub> da 4,5% sovunlanmaydigan moddalar bor. Yaxshi sovun olish uchun CEK S<sub>12</sub>-S<sub>16</sub> va S<sub>17</sub>-S<sub>18</sub> fraktsiyasi bo'lisi kerak.

SYoK katalizatorlar ishtirokida parafinni kislordan bilan oksidlash natijasida olinadi. Katalizator sifatida 0,2% permanganat kaliy yoki marganetsning oksidlari ishlatiladi.

**9.3. Sovundagi qo'shimcha materiallar.** Natriy ishqori (NaOH, natriy gidroksid), yoki kaustik soda zavodga qattiq holda temir barabarlarda (92-96%li) yoki suyuq holda tsisternalarda (42-43%li) keladi.

Natriy korbanat (91-99%) yoki kal'tsiylangan soda. Zavodga qattiq holda (91-99%li) keladi. Natriy xlor (NaCl), tovar nomi-osh tuzi. Qattiq holda keladi. (97-98%li)

Bo'yoqlar - atir sovunni bo'yash uchun ishlatiladi. Suvda, yog'da eriydigan va pigmentlar ishlatiladi.

Suvda eriydigan anilinli bo'yoq sifatida qizil rodalinli C<sub>28</sub>H<sub>31</sub>O<sub>3</sub>N<sub>2</sub>Cl sariq rangli metanil (C<sub>18</sub>H<sub>14</sub>O<sub>8</sub>N<sub>3</sub>Na), qizil-ko'k. Flyurestsein-limonli, jigar rang (C<sub>20</sub>H<sub>10</sub>O<sub>5</sub>N<sub>2</sub>) lar ishlatiladi.

Xushbo'y xid beruvchi moddalar (aromatizatorlar) yaxshi xid berish uchun qo'shiladi. Ular har-xil xushbuy atir-upa kompozitsiyalarini tabiiy (efir moylari) va sintetik, moddalarni aralashmasidan buket shaklida tayyorlanadi. Xushbo'y moddalardan 1 t sovunga 5-15 kg atrofida qo'shiladi. Oksidlanishga qarshi moddalar - bular sovunlarni oksidlanish va yomon bo'lib qolishidan asraydigan moddalardir. To'yinmagan yog' kislotalarini oksidlanish natijasida sovunning xidi va rangi o'zgaradi. Oksidlanishga qarshi ishlatiladigan modda sifatida silikat natriy (Na<sub>2</sub>O · nSiO<sub>2</sub>), limon kislotasi ishlatiladi.

Qayishqoqli moddalar (plastifikatorlar) sovunni mo'rtligini asraydi. Stabillovchi moddalar (stabilizatorlar) xushbo'y moddalarni barqarorligini va sovunni ko'pigini chidamligini oshiradi.

Oksidlanishga qarshi va qayin qiladigan (plastifikator) mavjud: bular "Antol P-2", va "Plastibol-9". Tarkibi: Antol P-2 niki Na karboksimetiltsellyuloza, limon kislota, oksibenzol kislotani metil efiri, polietilenglikol'.

Xo'jalik- Uy ro'zg'or sovuni OST 18-368-80 bo'yicha «qattiq uy-ro'zg'or sovuni» quyidagi turlarda ishlab chiqariladi: 72%-li, 70%-li, 60%-li (31-jadval).

Sovun bo'laklari to'g'ri burchakli shaklda, ustki qismi silliq, aniq shtampli bo'lishi shart. Deformatsiyalangan bo'laklar, yorqinlar, qattiq begona aralashmalar, yog'li ajratmalar ruxsat etilmaydi (marmar ko'rinishli struktura ruxsat etilgan). Sovunning konsistensiyasi qattiq bo'lishi kerak, yopishqoq bo'lmasligi kerak, rangi- och sariqdan (72%li sovun) och jigarranggacha (60%li sovun). Xidi sovunga xos, o'tkir xidli bo'lmasligi kerak. Aynigan yog'larning, baliqning va boshqa ko'lansa xidlar bo'lmasligi kerak.

Sovunning nuqtali namunalari tanlangandan so'ng darxol usti berkitiladigan idishga qo'yiladi.

Sinovlar paytida sovunning o'rtacha namunadan olinsa bo'lagi, namunasi 4-sinfga manub toroziga tortilib ikkinchi o'nlik songacha natijasi yozilib uning o'rtacha massasi aniqlanadi.

OST 18-326-78 MPP bo'yicha atir sovun ekstra, D (bolalar sovuni), I,II va III guruhlarga bo'linadi. Ularning sifat xarakteristikalari 30-jadvalda keltirilgan.

Olingen bo'laklar bo'lakning markazidan o'tuvchi perpendikulyar tekisliklar bo'yicha qirqiladi: **atir sovun 4 ga, xo'jalik sovuni 8 ga bo'linadi.**

**4 yoki 8 bo'lakdan ikkita qarama-qarshi bo'laklar ajratilib (37-rasm)** pichoqda, qirg'ichda yoki sabzavot maydalovchi uskunada tez maydalaniib qopqoqli bankaga solib qo'yiladi. Bo'laklar soni ko'p bo'lganda, ya'ni sovun qirindilari ko'p xosil bo'lganda ular aralashtirilib analiz uchun namuna diagonal bo'lish usulida olinadi. Agar sovun qattiq qurigan bo'lsa, qirindilar namlikni rostlash uchun 24 soatga eksikatorga solib qo'yiladi.

**Sovun sifatining asosiy ko'rsatkichi** bo'lib sovun tarkibidagi yog' kislotalari tuzlari, smola va neft kislotalari xizmat qiladi.

**Sovunning sifat soni** – bu sovun bo'lagining nominal massasini berilgan kislotalar soniga nisbatan % sonini chiqarish. SHunday qilib sifat soni bu sovun bo'lagidagi kislotalarning grammarda berilgan soni. bo'laksimon bo'limgan sovun uchun sifat soni shu yuvish vositasining idishi nisbati orqali xisoblanadi.

Sovunda yog', smola va neft' kislotalarining miqdori

GOST 790-69 «uy-ro'zg'or qattiq sovuni va atir sovun. Sinov usullari» bo'yicha sovundagi yog', smola va neft' kislotalarining miqdori xisoblanadi.

Yuqori chastotali titrlash eng yaxshi usul bo'lib xizmat qiladi. Bu usul sovundagi yog', smola va neft' kislotalarining miqdorini aniqlashni ta'minlaydi.

Sovundagi erkin o'yuvchi ishqor va erkin sodaning massa qismi.

Sovun tayyorlashda ishqor nazariy xisob-kitoblardan ko'proq qo'shiladi. SHuning uchun tayyor sovunda xar doim erkin ishqor bo'ladi. Erkin ishqorning miqdori texnik talablar bilan cheklanadi, chunki ishqor matolarni kir yuvish paytida buzadi va inson terisini yog'sizlantirib quritib yuboradi. Sovundagi erkin ishqor va soda miqdorini aniqlash tayyor sovun sifatini nazorat qilishga imkon beradi.

#### **Tayanch so'z va iboralar.**

Sovun, Sovunli asos, Nazorat, Ishqor, Pishirish, Sifat  
ko'rsatkich

#### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Sovun ishlab chiqarishni nazorat qilish qanday amalga oshiriladi?
2. Sovunni sifat ko'rsatkichlaridan qandaylarini bilasiz?
3. Sovun bo'lagidan namuna olish qanday bajariladi?
4. Sovundagi yog', smola, neft kislotalarining miqdori qanday aniqlanadi?
5. Sovundagi erkin ishqor va erkin sodaning massa qismini aniqlash qanday bajariladi?

## **10 – MA'RUDA. YOG' MOY SANOATIDA HISOBOT VA QAYD QILISH XUJJATLARI**

**Reja:**

- 10.1. Yog'-moy korxonalaridagi laboratoriyalarning vazifalari va jurnallari.**
- 10.2. Korxona laboratoriylari va texnokimyoiy nazorat bo'limlarining xisoboti va qayd qilishi xujjatlari.**
- 10.3. Dalolatnomalar va ularni rasmiylashtirish.**

**10.1. Yog'-moy korxonalaridagi laboratoriyalarning vazifalari va jurnallari.** Yog' – moy sanoatining korxonalarida xomashyo, korxona va markaziy laboratoriylar mavjud. Bu laboratoriylar xomashyoning, yordamchi materiallarning va tayyor mahsulotlarning sifat nazoratini xamda ularning GOST, OST, MRTU va boshqa xujjatlarga javob berishni ta'minlaydilar.

Laboratoriylar sistematik tarzda ishlab chiqarishda texnologik parametrlarni bajarilishi, ya'ni ularning tegishli reglament, me'yor, yo'riqnama, ko'rsatma (instruktsiya) va kafolatlarga (rekomenatsiya) mos bo'lishi, hamda xujjatlarda ko'rsatilgan xomashyonni, yordamchi materiallarni va tayyor mahsulotni saqlash qoidalariiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

**Markaziy laboratoriyaning vazifasi** korxona va xomashyo laboratoriylarini va korxona faoliyatini davriy nazorat qilishdir. SHuningdek markaziy laboratoriya eng murakkab analizlarni o'tkazish, xomashyo va boshqa materiallarni texnologik parametrlarini tuzatish uchun eksperimental ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish bilan shug'ullanadi.

**Korxona laboratoriylarining vazifasi** texnologik jarayonlarning ayrim nazoratidir. Bu laboratoriylar asosiy ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'limi yoki omborxonadan kelayotgan yog'li xomashyoni sifatini tekshiradi. SHuningdek ishlab chiqarishda belgilangan texnologik parametrlarning bajarilishi, qurilmalarning ishlashi, oraliq mahsulotlarning sifati va ularning texnologik me'yorlarga to'g'ri kelishini tekshirishdan iborat.

Laboratoriya oylik va sutkalik analizlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot, chiqindilar va yo'qotishlarning miqdori hisoblanadi. Boshqa xomashyo va materiallarning sifat talablariga javob berishi tekshiradi. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning, moyli xomashyoning aktiv ventillyatsiyasini nazorat qiladi, shuningdek barcha operatsiyalarning texnokimyoviy nazoratini amalga oshiradi. Bu operatsiyalar moyli xomashyoni qabul qilish, joylashtirish, qayta ishslash, saqlash va moyli xomashyoni asosiy ishlab chiqarishga uzatish bilan bog'liq operatsiyalardir.

Laboratoriyalarda turli ko'rinishdagi jurnallar ishlatiladi. Ular quyidagilardan iborat:  
**moyli xomashyoning sifat jurnali**, u ta'minlovchining mahsulot sifati haqidagi ko'rsatmalari va qabul qiluvchi korxona laboratoriysi analizlariga asoslangan bo'ladi;

**laboratoriya analizlarini ro'yhatga olish jurnali**, bu analizlar xomashyo va boshqa qabul qilingan materiallarning sifati bo'yicha bajariladi;

**texnologik jarayonlarning nazorat jurnali**, bunda alohida uskunalarning texnokimyoviy nazorati, shuningdek texnologik etaplar va butun texnologik jarayon qayd qilingan bo'ladi;

**alohida sifat ko'rsatkichlarining nazorat jurnali**, bu jurnallar mahsulot hamda xomashyoni sifat va son nazorati uchun zarur bo'ladi;

**erkin laboratoriya jurnallari**, unda smenadagi xomashyo namunasining sifati, oraliq, tayyor mahsulotlar va chiqindilar analizlari qayd qilinadi.

**10.2. Korxona laboratoriylari va texnokimyoviy nazorat bo'limlarining xisoboti va qayd qilishi xujjatlari.** Laboratoriya xodimlari katta miqdorda xujjatlarni rasmiylashtiradilar. Bu xujjatlarda texnokimyoviy nazoratning barcha etaplaridagi moyli xomashyo va tayyor mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari belgilanadi.

Moyli xomashyoni qabul qilish Vazirlik tomonidan belgilangan GOSTlar, moyli xomashyo uchun belgilangan ko'rsatmalar, ta'minlovchilarning kelishilgan majburiyatlar, barcha sifat va son ko'rsatmalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Moyli xomashyolarning sifati **Davlat NON inspeksiysi** ishlab chiqargan sertifikatlar tomonidan belgilanadi. Texnik paxta chigitlari uchun esa paxta tozalash korxonalar yoki yengil sanoat vazirligi qoshidagi yog' – moy sanoat uyushmasi sertifikatlari bilan belgilanadi.

Ta'minlovchining moyli urug'lar sifati haqidagi ko'rsatmalarini tekshirish uchun laboratoriya xodimlari GOST bo'yicha belgilangan analiz usullaridan foydalaniib nuqtaliy analizlarni amalga oshiradi.

**Ta'minlovchi va qabul qiluvchi ( iste'molchi )** ko'rsatmalari bo'yicha moyli xomashyoning nisbati quyidagilardan aniqlanishi kerak (% larda): namlik – 0,5; kul aralashmasi – 1,2 va moyli aralashma – 1,4. Agar bu nisbatlar ruxsat etilgan me'yorlarga to'g'ri keladigan bo'lsa, unda korxona (xomashyo) laboratoriyasining ko'rsatkichlari moyli urug'larning sifat va son kitobiga yoziladi va shu ko'rsatkichlar bo'yicha kirimlar qayd etiladi. Agar bu nisbatlar ruxsat etilgan me'yorlarga to'g'ri kelmasa, unda namunaning nazorat analizlari davlat non inspeksiyasining inspektoriga qayta analiz qilish uchun topshiriladi. Paxta chigit uchun esa yengil sanoat vazirligi qoshidagi inspeksiyaga yoki paxta tozalash korxonasiiga topshiriladi. Bunday sharoitda urug'larning kirimi inspektor tomonidan belgilangan sertifikat bo'yicha olib boriladi.

Boshlang'ich xujjatlar namuna yorliq topshiruvchining jo'natgan yuk xujjatlari va ta'minlovchilardan qabul qilingan urug'larning aktlaridir (23-jadval).

### 23-jadval

**Yog'moytamakisanoot  
uyushmasi tomonidan  
tasdiqlangan.**

(korxona nomi)

a k t

Ta'minlovchidan qabul qilinayotgan moyli xomashyo haqida

Qabul qiluvchi ekspeditor \_\_\_\_\_

(korxonaning ekspeditori)

va      vakil \_\_\_\_\_ guvoxnama      asosida      xarakat  
qiluvchi \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

(tashkilot nomi)

uchun “\_\_\_\_\_” 201\_\_\_\_y. da ta'minlovchi xomashyonini tekshirganligi  
va qabul qiluvchi qabul qilganligi haqida shu aktni tuzdik \_\_\_\_\_  
dan quyidagi qabul qilindi.

(kul'tura)

(ta'minlovchi nomi)

Temir yo'llining xujjati	Vagon №	Jo'natish stantsiyasi	Massa	Tortish natijasi	Moyli xomashyoning sifati				Zararkumandalalar Bilan zararlanguşlik darajasi	
					Namlik		Aralashma miqdori			
					kulli	yog'li	Protsent soni	%		
			Joy soni Temir yo'll xujjati bo'yicha, kg	Aslida qabul qilindi, kg	Kanomad, kg	Ortiqcha, kg			Izoh	

**Ilova:** \_\_\_\_\_

(nomi va miqdori)

**Topshirdi:**

**Qabul qildi:**

**Neytral tashkilotning vakili:**

**Namuna** – yorliq topshiruvchilardan qabul qilingan moyli urug'larning har bir partiyasi uchun yoziladi va kvitantsiya yozishga xizmat qiladi.

SHuningdek namuna – yorliq har bir topshiruvchi tashkilot tomonidan bir kunda omborxonalarga qabul qilinayotgan moyli urug'larning soni uchun ham yoziladi.

Birinchi qism (urug' turi, topshiruvchi, avtomobilning nomeri, vagonning nomeri, jo'natilgan yuk xujjati, omborxona) namuna olish bilan bir vatqda laborant tomonidan to'ldiriladi va xujjatda ko'rsatilgan shaxslar tomonidan imzo qo'yiladi.

Moyli urug'larni qabul qilish dalolatnomasi temir yo'lida yoki portda tortilayotgan paytda, agar topshiruvchi vakil bo'lmasa, 1 nusxada, topshiruvchi vakil ishtirokida 2 nusxada tuziladi, bu holda 1 nusxa topshiruvchi vakilga beriladi.

Agar qabul qilingan moyli xomashyo temir yo'l stantsiyasida butunlay tortilmay, balki qismlarga bo'linib tortilsa, unda qolgan moyli xomashyolarning tortilishi va qabul qilinishi neytral tashkilot vakili nazorati ostida olib boriladi.

Dalolatnomalar tegishli xujjatlari, transport xujjatlari, ta'minlovchining sifat haqidagi xujjatlari, kommertsiya dalolatnomasi (kamomad yoki ortiqcha miqdor bo'lganda) bilan xisobxonaga topshiriladi.

Agar moyli xomashyo korxonaga qoplarda keltirilgan bo'lsa dalolatnomada moyli xomashyo bilan qoplarning umumiy massasi ko'rsatilishi kerak.

O'lchanigan mahsulotlarni qayd qilish daftari (**jadval-24**) moyli urug'lar, o'simlik va boshqa moylar, salomas, glitserin va boshqa asosiy va yordamchi materiallar hamda topshiriladigan asosiy mahsulot va chiqindilarni (salomas, moy, shrot, soapstok va boshqalar) va boshqa mahsulotlarni topshirishda tortilmalarni registratsiya qilish uchun hizmat qiladi.

Bu kitobga topshiruvchi va qabul qiluvchilar har bir tortilgan mahsulot uchun imzo chekadilar. **4,5 va 6 grafalar** tortilgan mahsulot bo'yicha to'ldiriladi. Bu tortishlar avtomatik, oddiy omborxona bunkerli, **10 tonnalik**, **100 tonnalik** va boshqa tarozilarda tortilishi mumkin. Xomashyo va tayyor mahsulotlarni avtomatik tarozilarda tortishda smena oxirida smena muxandisi, laboratoriya vakili va omborxona vakili tomonidan imzo chekiladi. Bir smenada ikki marta ishlab chiqarish jurnalida yoki maxsus dalolatnomada qayd etiladigan nazorat tortishlar bo'lib o'tadi.

Ishlab chiqarishda idishlardagi moyli xomashyoning massasi **4 va 5 – grafalar** nisbati orqali topiladi.

Agar idishlarda trafaret bo'lmasa yoki u aniq yozilmagan bo'lsa unda moyli xomashyo idishlar bilan birga tortiladi.

Texnik sabablarga ko'ra avtomatik tarozilar ishlagagan taqdirda ularning bekor turgan vaqlari ichki o'tkazish dalolatnomasida qayd etiladi.

#### 24-jadval

<b>O'lchanigan mahsulotlarni qayd qilish daftari (xomashyo, tayyor va yarim tayyor mahsulot, chiqindilar)</b>	<b>«Yog'-moytamakisanoot» uyushmasi tomonidan tasdiqlangan</b>
---	--

Topshirish sanasi	Tortilma №	Smena, brigada	Oborot tortilishning ko'rsatkichlari		yoki son	CHo'michning bir oborotida o'rtacha massa	Ishlab chiqarishga qabul qilingan umumiy miqdor	omborga topshirildi	Imzo	
			Tortishning boshida (a)	Tortishning oxirida (b)					topshiruvchi	Qabul qiluvchi
					6	7	8	0	1	2
										Topshirish haqidagi xujjat %

Qayta ishlangan urug'larning massasi avtomatik tarozi ishlamay turgan vaqtida o'tgan uch sutka davomida qayta ishlangan moyli urug'larning o'rtacha massasi orqali aniqlanadi.

Xuddi shunday qilib avtomatik tarozilarda tortilgan kunjara va shrotning massasi ham aniqlanishi mumkin.

Smena tugagandan so'ng har bir mahsulot uchun ja'mi qiymatlar yoziladi, ularning to'g'riliqi tsexning smena muxandisi, omborxona mudiri yoki ishchisi tomonidan tasdiqlanadi.

Kitobdagi yozilgan ko'rsatkichlar me'yor bilan beriladigan mollarni olish uchun tayyorlangan maxsus karta va dalolatnomalarni to'ldirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tortilishlar natijasi (brutto, tara, netto) smena davomida xisoblanib, siyox bilan yozilishi kerak, netto yakuni esa tortishni amalga oshirgan shaxs tomonidan yozilib, imzo chekilishi shart. SHuningdek yakuniy xisoblar smena muxandisi (master, brigadir) yoki tsex boshlig'i tomonidan imzo qo'yilishi kerak.

12-grafada topshirish haqida xujjat nomeri yoziladi.

Bunkerli yoki oddiy tarozida tortilganda 4 va 7 grafalar to'ldirilmaydi.

O'lchangan mahsulotdarni qayd qilish daftari to'g'ri yuritish va dalolatnomalardagi sonlarni tortilgan mahsulotlarning soniga to'g'ri kelishini xisobxona tekshiradi va tekshiruvchi xisobchi imzo chekadi.

O'lchangan mahsulotdarni qayd qilish daftari nomerlangan, tikilgan, bosh xisobchining muxri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Daftar to'lgandan so'ng arxivga topshirib, u yerda belgilangan muddatgacha saqlanishi kerak.

Korxonaga tegishli bo'lgan laboratoriya analizlarini ro'yxat qilish jurnali qabul qilishda, omborxonaga jo'natishda, qayta ishlashda va ichki aylanishlardagi analizlar natijalarini qayd qilish uchun xizmat qiladi.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilish jurnali texnokimyoiy nazoratning analizlarini ro'yxatga olish uchun xizmat qiladi. Bu texnokimyoiy nazoratga ayrim uskunalarining ishlashi, ishlab chiqarishning texnologik tarmoqlari va umuman butun korxona kiradi. SHunday qilib xomashyo bo'limidagi urug'larni qayta ishlash jurnali o'z ichiga urug'larning tozalashdan boshlab quritishgacha bo'lgan barcha sifat ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xar bir smenaning oxirida qayta ishlashdan chiqqan urug' namunalari, tozalashdan olinadigan chiqindilar qurituvchi agentning xarorati, quritishgacha bo'lgan urug'lar va urug'larning sovitish kamerasidan chiqishidagi analizlar natijalari qayd qilinadi.

Yog'-moy korxonasining operativ jurnali qayta ishlash uchun kelayotgan urug'lar sifat nazoratini qayd qilish uchun xizmat qiladi, shuningdek urug'lardan olinadigan chaqirma sifati, yanchilma, qovurma, forpressdan chiqqan kunjara, yog' ekstraktsiyaga ketayotgan kunjara qatlami va tayyor mahsulot va shrotning sifatini qayd qiladi.

Tuzilishi jixatidan yuqorida ko'rib chiqilgan jurnallarga o'xshash jurnallar yog' va moy korxonalarida ishlatiladi. Xar bir ish smenasi uchun alovida varoqlar ajratilib u yerda smena davomidagi nazorat natijalari va o'rtacha smenadagi namuna natijalari yoziladi (o'rtacha smenadagi namuna analiz natijalarini smena ishchilari yozadilar). Bu jurnallarning yakuniy (1 oylik) natijalari ishlab chiqarish - texnik xisobotini tuzish uchun xizmat qiladi.

Jurnalidagi barcha yozuvlar ishlarni bajargan laborant imzolari ishtirokida olib boriladi. Jurnallarda tuzatishlar man qilinadi. Agar yozuvlarda xato mavjud bo'lsa, u holda jurnalni to'ldirgan shaxslar tomonidangina to'g'rilanishi mumkin. To'g'rilangan joyning o'rnida esa «to'g'rilinganga ishonish» degan yozuv to'g'rigan laborant imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

Ishlatishdan oldin jurnalning barcha betlari nomerlangan, tikilgan va muxrlangan bo'lishi kerak.

10.3.Dalolatnomalar va ularni rasmiylashtrishi. Asosiy ishlab chiqarishdan qabul qilingan tayyor mahsulotlar (25-jadvaldagi) dalolatnoma (AKT) bo'yicha qabul qilinadi.

Omborxonani tayyor, oraliq mahsulotlarni va chiqindilarni qabul qilish dalolatnomasi 2 nusxada o'lchanigan mahsulotlarni qayd qilish daftari va spetsifikatsiya (atir sovun uchun) asosida tuziladi, so'ngra omborxona mudiri tomonidan xisobxonaga topshiriladi. Dalolatnomaning ikkinchi nusxasi esa omborxonaga keladi.

## 25-jadval

### «Yog'moytamakisanoot» uyushmasi tomonidan tasdiqlangan

A K T №\_\_\_\_\_

**Omborxona tomonidan qabul qilinuvchi tayyor, oraliq mahsulotlar va ishlab chiqarish chiqindilari haqida**

№ p/p	Tur va nav	Idish			Haqiqiy massa	Analiz natijalari					Moydag'i massa	Illova			
		Ko'rimish	son	1 joyning massasi		Analiz №	Namlik		Massa bo'yicha cho'kma						
							%	Kg	%	Kg					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13			

**Topshirdi:**

TSex boshlig'i

**Qabul qildi:**

Omborxona mudiri.

Margarin mahsuloti uchun qabul qilish akti № 22 forma bo'yicha yoziladi.

Sovunni bevosita omborxonaga uzatishda korxonalar tomonidan (7,8,9,10,11 va 12 - grafalarsiz) akt tuziladi.

4 va 5 -grafalardagi atir sovuni uchun summalar aktga qo'shib beriladigan 3 va 5-grafalardagi spetsifikatsiyaga to'g'ri kelishi kerak.

7-grafadagi analiz nomeri faqat akt bir nusxada tuzilgandagina yoziladi, bir nusxdan ortiq bo'lganda esa faqat chiziq qo'yiladi.

12 – grafa 6, 9 va 11 – grafalar yordamida to'ldiriladi.

Omborxonaga sovun yashiklarda kelgan taqdirda aktning ilovasida 4-grafa uchun quyidagi qo'shimcha ma'lumot beriladi:

SHu jumladan yashiklar

Yangi, dona

Ta'mirlangan, dona

Inventarlangan, dona

Bu qo'shimcha ma'lumotlar idishlarni idish tsevidan upakovka tsexiga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

«Yog'moytamakisanoat»  
uyushmasi tomonidan tasdiqlangan

**A K T**

**Margarin korxonasi (tsexidan) omborxonaga tayyor mahsulotni qabul qilish haqida**

«\_\_\_\_\_» **20** \_\_\_\_y.  
uchun (**kg da**)

№ p/p	Maxsulot	Nav	Upakovka turi						Umuman		
			Dona	Massa netto	dona	Massa netto	dona	Massa netto	Dona	Massa netto	Dona

Ilova: Spetsifikatsiya № \_\_\_\_\_ uchun

Topshirdi: \_\_\_\_\_  
**Margarin tsexining lab.mudiri  
boshlig'i**      **OTK boshlig'i**

Qabul qildi: \_\_\_\_\_  
**omborxona mudiri**

Omborxonaga margarin va mayonez tsexlaridan tayyor mahsulot qabul qilish dalolatnomasi (akti) margarin tsexi va omborxona mudiri bilan qabul qilingan margarin, kulinar yog'lari va mayonez uchun tuziladi.

Dalolatnomaga (Akt) korxona (tsex) boshlig'i, omborxona mudiri va laboratoriya mudiri imzo chekadilar.

Dalolatnomada margarin va mayonez omborxonasida qayd qilish uchun xizmat qiladi.

Spetsifikatsiya va dalolatnomada xisobxona tomonidan yakunlar bilan dalolatnomani solishtirish hamda spetsifikatsiya bilan dalolatnomani solishtirin orqali tekshiriladi.

Spetsifikatsiya har bir chiqarilgan mahsulot uchun margarin yoki mayonez tsexining boshlig'i tomonidan tuziladi. Bu spetsifikatsiya chiqarilgan mahsulot uchun bir partiya, standart massadagi idishlarda gruppa qilib va **tara** uchun preyskurator nomerlar bo'yicha ham yozilishi mumkin.

Spetsifikatsiya 2nusxada bochka va yashik idishlar uchun yoziladi va tsex hamda tsex yoki omborning vakillari tomonidan imzo chekiladi.

Bochka idishlari uchun spetsifikatsiyada massa ko'rsatilgan bo'ladi (**brutto, tara va netto**). Yashik **tara uchun** spetsifikatsiyada massa **netto** ko'rsatiladi.

Spetsifikatsiyaning bir nusxasi omborxonaga mahsulotni topshirish bilan birga beriladi, ikkinchisi esa dalolatnomada tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

*Tayanch so'z va iboralar.*

Laboratoriya, omborxona, xomashyo, qayd qilish, akt, nazorat, qabul qiluvchi.

### ***Takrorlash uchun savollar.***

Yog' va moylarni ishlab chiqarishda qayd qilish xujjatlarini tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?

Korxona laboratoriyalari va texnokimyoviy nazorat bo'limlarining qayd qilish xujjatlarini tuzish qanday olib boriladi?

Boshlang'ich xujjatlar, ya'ni aktlarni tuzish tartibi qanday olib boriladi?

Yog'-moy korxonasining operativ jurnali deganda nimani tushunasiz va u qanday rasmiylashtiriladi?

## **11 – MA’RUZA. YOG’ KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH TEXNIK HISOBOTI**

**Reja:**

**11.1. Ishlab chiqarish texnik hisobotlari, ularni tuzish.**

**11.2. Texnik hisobot tarkibi.**

**11.3. Moyning umumiy yo'qotishlarining texnik hisobotida aksi.**

**11.1. Ishlab chiqarish texnik hisobotlari, ularni tuzish.** Yog' va moy korxonalarining tsex (korxona) boshliqlari xar oy xisobxonaga ishlab chiqarish texnik xisobotini topshiradilar. Bu xisobotda xomashyo va materiallar, tayyor mahsulotning ishlab chiqarilishi, sifati hamda asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

**27-jadval**  
(forma № 23)

Materiallar turi	Materiallar sarfi			Moyli urug'larning ishlab chiqarishda xarakati, kg			
	Ja'mi	SHu jumladan moy uchun		turi	Oyning boshita qolgan qoldiq	Oy mobaynida ishlab chiqarishga qabul qilindi	Oy mobaynida qayta ishlandi
	Kungaboq ar	paxta	soya				Oyning oxiriga qolgan qoldiq

**Benzin, kg**

**Fil'tr mato, m<sup>2</sup>**

Izoh. Benzinning xaqiqiy sarfi bilan reja bo'yicha berilgan sarfini solishtirishda shuni bilish lozimki, benzin sarfi urug'lar me'yoriga nisbatan xisoblanadi.

**Korxona (tsex) boshlig'i**

**Lab. Mudiri**

Xisobot bo'yicha xulosa

**Xisobotni tekshirdi:**

**Xisobchi**

\_\_\_\_\_

**Bosh muxandis**

Ishlab chiqarish texnik xisobotlari me'yor bilan beriladigan mollarni olish uchun beriladigan maxsus qog'ozlar, xomashyoniga qabul qilish aktlari, tayyor mahsulotni va chiqindilar hamda boshqa xujatlarga, shuningdek laboratoriyaning xomashyo yoki mahsulot

sifati haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Analiz va boshqa ma'lumotlar tsexlarga, korxonalarga, omborxonalarga laboratoriya tomonidan beriladi. Bu ma'lumotlar laboratoriya mudiri imzosi bilan tasdiqlangan va talabga muvofiq tarzda (siyox bilan yozilgan, hamma ko'rsatkichlar kursatilgan va aniq yozilgan sonlar holida) to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish hisobotlari buxgalteriya tomonidan tekshirilgandan so'ng bosh muxandis tomonidan imzo qo'yilib, korxonaning raxbari imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarishning texnik xisobotini tuzish va ishlab chiqarishni alohida tsexlarda (korxonalarda) nazorat qilish uchun xar oyda komissiya tomonidan xomashyo qoldiqlari material va tayyor maxsulot, yarim mahsulot va chiqindilar, ya'ni oyning oxirigacha qolgan qoldiqlar inventarizatsiya qilinadi. Xisobot oyi mobaynida qayta ishlangan xomashyo va asosiy materiallar oyning boshidagi qolgan qoldiq farqi orqali aniqlanadi. Musbat oy mobaynidagi kirish, manfiy oyning oxiridagi qoldiq oxiriga yetkazilmagan ishlab chiqarish xomashyo va materiallarga qayta xisoblanadi. Buning uchun oxiriga yetkazilmagan mahsulot va materiallar massasi aniqlanib xomashyo massasiga qayta xisoblanadi. Xomashyo uchun qayta xisoblashga quyidagilar kiradi:

Yarim tayyor maxsulot (yadro, yanchilma, mistsella, rafinatsiyalanmagan moy, fuza, presslash tsevidan chiqqan yoki o'sha korxonada qayta ishlanayotgan yoki o'sha korxonaning ekstraktsiya tsevida qayta ishlanayotgan kunjara)

Korxonaningsovun pishirish tsevidagi Sovunni tindirish idishlaridagi Sovunlar.

Yog' korxonasi, gidrokorxona yoki yog'-moy korxonasining rafinatsiya tsevidagi rafinatsiyalangan moy.

Texnik glitseringa qayta xisoblashdagi glitserin tsexlaridagi glitserin qodig'i.

**Texnik hisobot tarkibi.** yog'-moy korxonasida tsex (korxona) boshlig'i tomonidan xar oy uch nusxada tuziladi. Xisobot bir nusxadan buxgalteriya va reja ishlab chiqarish bo'limiga beriladi, yana bir nusxa korxonaning (tsexning) o'zida qoladi.

Xisobotda quyidagilar keltiriladi:

Qayta ishlangan moyli urug'larning turi va soni. Paxta chigitini qayta ishlashda esa urug'larning qayta ishlangan soni nav bo'yicha ko'rsatiladi.

Korxona laboratoriylarining ma'lumotlari asosida qayta ishlangan moyli urug'larning sifati.

Tortilgan mahsulotlarni qayd qilish asosida mahsulotning ishlab chiqarilishi.

Ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar.

Qayta ishlangan moyli urug'larning soni ishlab chiqarishga qabul qilingan urug'lar massasi, oyning boshiga qayta ishlanmagan urug'larni qo'shib hamda xisobot oyining oxirigacha qayta ishlanmagan urug'larni xisobga olmay xisoblanadi.

Ishlab chiqarishda qayta ishlanmagan moyli urug'larga tsexlarda (korxonadagi) moyli urug'lar, shuningdek yadro, chaqilma, qovurma, qaytuvchi tovar, fuza va boshqa moy saqllovchi yarim tayyor mahsulot kiradi. Bu moy saqllovchi yarim tayyor mahsulotning moyliligi laboratoriya tomonidan moyli urug'largi nisbatan ekvivalent holda aniqlanadi.

Barcha moy saqllovchi urug'larning sifati yog'lilik, namlik, ifloslanganlik va paxta urug'lari uchun momiqligi bilan belgilanadi.

Urug'larning moyliligi, urug'lardagi lipidlarning (%) da o'rtacha oydagisi soni bilan, shuningdek xaqiqiy namligi va ishlab chiqarishga kelgan payitda ifloslanganligi bilan aniqlanadi.

**Moyning umumiy yo'qotishlarining texnik hisobotida aksi.** Moy yo'qotilishning (X) umumiy soni material balansi bo'yicha mahsulotning ishlab chiqarilganligi va urug'lardagi moy miqdori farqi orqali topiladi. SHrotdagi, sheluxadagi moy yo'qotilishlar (X) quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = MSH / 100$$

Bu yerda: **M** – shrotdagi va shulxadagi moyning massa qismi

(shrot va sheluxanening moyliligi), %

**SH** – urug'larning massasiga to'g'ri keladigan shrot va

sheluxanening umumiy soni, %

Moyning xisobga olinmagan yo'qotishlari urug'lardagi moy miqdori (massa qismi) moyning ishlab chiqarilishi va uning shrotda va sheluxadagi yo'qotishlari farqi orqali topiladi.

«**Moyning umumiy yo'qotishlari**» va «**moyning shrotda, shulxada yo'qotishlari**» terminlari aniq emasdir. Aslida, «**moyning shrotda yoki shulxada yo'qotishlari**» - bu moyning ulardan chiqarib olinmagan qismidir, xaqqatdan esa moyli yo'qotishlar faqat xisobga olinmagan yo'qotishlardir.

Yog'lilik, namlik, ifloslanganlik va momiqlik xisobotda faqat laboratoriya ma'lumotlari asosida ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarilgan moy, shrot va sheluxa sonlari faqat tortish xisoboti orqali aniqlanadi.

Moyning gidrotatsiyasi uchun ishlab chiqarish – texnik xisoboti gidrotatsiya tsexi alohida bo'lган taqdirdagina tuziladi. Bunday sharoitda xisobotni tuzish uchun asos bo'lib me'yorga beriladigan mollar xujjati (zabornaya karta), tayyor mahsulotni tekshirish aktlari va laboratoriya ma'lumotlari xizmat qiladi.

33-jadvalning 1- ustunida gidrotatsiya uchun kelayotgan moyning xar bir turi ko'rsatiladi. **2,3, 4,7–14** – ustunlar moy va fosfotid kontsentratsiyalarini tortish orqali to'ldiriladi. **10** –ustunning ko'rsatkichlari hisoblash yo'li bilan to'ldiriladi (xosil qilingan fosfolipid kontsentratsiyalarining massasi qayta ishlangan yog'ning massasi nisbatiga olinadi). Fosfotid kontsentratsiyalarining sifati laboratoriyada aniqlanadi va xisobotda uning ma'lumotlari aks ettiriladi. **6** – ustunning summasi **4- va 5-** ustunlarni ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Agar moy gidrotatsiyadan keyin quritilmasa ba'zan qayta ishlanmagan yog' miqdori va olingen mahsulot soni (u ko'proq bo'ladi) orasida to'g'ri kelmaslik vujudga keladi. Bunday sharoitda laboratoriya analizlari asosida moyning namligi uchun «**Moyning namlik xisobiga balansi**» ma'lumotnomasi beriladi.

Agar gidrotatsiya tsevida fosfotid kontsentratlari bilan shrot aralashib oqsil – fosfotid yemi xosil bo'lsa, unda bu operatsiya ishlab chiqarish – texnik xisobida o'z aksini topmasligi kerak, bunday sharoitga xisobotga qo'shimcha qilinib ma'lumotnomada beriladi bu ma'lumotnomada ishlab chiqarilgan yem miqdori, ulardagi (%), da) fosfolipilar soni va yem ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan fosfolipidlarning umumiy soni ko'rsatilgan bo'ladi.

(korxona nomi)

«Yog'moytamakisanoat»

uyushmasi tomonidan

tasdiqlangan.

Tasdiqlayman:

Direktor \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» 201\_y.

**Ishlab chiqarish texnik xisoboti**

oy 201\_y. yog'nig gidratatsiyasi uchun

Moyning turi	Oyning boshidagi qoldiq	TSexga qabul qilindi	oy mobaynida qayta ishlandi	Narx	Summa	Oyning oxiriga qolgan qoldiq	Ishlab chiqargan		Topshirilgan, kg				Fosfatid kontsentratlar ining sifati			
							Gidratlangan moy	Fosfatid kontsent rati	Massa	%	Omborxonaga	Boshqa tsexlarg'a	Omborxonaga	Boshqa tsexlarg'a	Moy miqdori, %	Namlik, %
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17

**TSex boshlig'i****Qo'shimcha ma'lumotlar: Fosfatid****Kontsentratlarining umumiy soni, shu****Lab. Mudiri** jumladan oziq-ovqat, kg**Qo'shimcha ma'lumotlar** ulardan 1 nav, kg**Yakuniy moydagi fosfo-** 11 nav, kg**lipidlar miqdori** Yem uchun, kg**Xisobot xulosasi** Xisobotni tekshirdi:**Xisobchi****Bosh muxandis**\*moyning namlik xisobiga balansi**Tayanch so'z va iboralar.**

Ishlab chiqarish, texnik hisobot, buxgalteriya, tuzish, qabul qilish, inventarizatsiya

**Takrorlash uchun savollar**

Yog' korxonasining ishlab chiqarish texnik hisoboti kanday tuziladi?

Moyni gidratatsiyalashning 1 oylik ishlab chiqarish texnik hisobotini tuzish qanday amalga oshiriladi?

Ishlab chiqarish texnik hisobotini topshirish tartibi qanday olib boriladi?

## **12 – MA’RUZA. YOG’ VA MOYLARNI RAFINATSIYALASHNING, MARGARIN KORXONASINING, SOVUN KORXONASINING VA GLITSERINNI DISTILLYATSIYALASH TSEXINING BIR YILLIK ISHLAB CHIQARISH TEXNIK HISOBOTI**

**Reja:**

**12.1. Yog’ va moylarning rafinatsiyasi uchun ishlab chiqarish texnik hisoboti.**

**12.2. Moylarning gidrogenizatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish – texnik xisoboti.**

**12.3. Sovun korxonasining bir yillik ishlab chiqarish texnik xisoboti.**

**12.4. Yog’ kislotalarining distillyatsiyasi xisoboti.**

**12.1. Yog’ va moylarning rafinatsiyasi uchun ishlab chiqarish texnik hisoboti.**  
Yog’ va moylarning rafinatsiyasi uchun ishlab chiqarish texnik xisoboti alohida chiqarib yuborilgan tsexlar ya’ni gidrogenizatsiya yoki margarin korxonasi tartibiga kirmagan bo’lmagandagina tsexlar tomonidan tuziladi. Undan ishlab chiqarilgan mahsulot ma’lumotlari va moylarning balansi mavjud bo’ladi. Xisobotni tuzishda chiqindilar yog’ va moylarning yo’qotishlari ko’rsatilgan bo’ladi. Me’yoriy chiqindilar tasdiqlangan me’yorlar va qayta ishlangan yog’larga to’g’ri kelgan yo’qotishlar asosida ko’rsatiladi.

Yog’ni iqtisod (yoki chiqish) qilish rafinatsiya davrida qaytarib bo’lmaydigan yo’qotishlar rejadagi yo’qotishlarni solishtirish orqali topiladi.

Rafinatsiyalangan moyni ishlab chiqarish natura bo'yicha xisoblanadi, ya’ni chetdan moy qabul qilingan bo’lsa shunchaki rafinatsiyalanadi. Ishlab chiqarilgan rafinatsiyalangan yog’ning davlat standarti yoki boshqa me’yoriy xujjalarga to’g’ri kelishi laboratoriya tomonidan aniqlanadi.

CHiqindilar (soapstok, oqlovchi, loydagi yog’, fil’tratsiya cho’kmalaridagi yog’ va boshqalar) massa bo'yicha aniqlanadi. CHiqindilarning omborxonaga topshirilishi dalolatnomasi (akt) bo'yicha olib boriladi. CHiqindilarni keyingi qayta ishlash uchun (distillyatsiya,sovun pishirish) yuborilganda me’yor kartasi tuziladi.

Xar oy rafinatsiya tsevida tugatilmagan ishlab chiqarish va tortish orqali yog’ qoldiqlarini inventarizatsiya qilish bo’lib o’tadi.

Rafinatsiya bo'yicha ishlab chiqarish texnik xisoboti o’z ichiga uch bo’limni oladi.

Birinchi bo’limda rafinatsiya moylarni, ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar va moylarning sarfi ko’rsatilishi kerak. Ishlab chiqarilgan rafinatsiya moylarining soni omborxonaga (quyish stantsiyasiga) yoki keyingi qayta ishlashga topshirilgan moylar soniga asoslanadi.

Xisobotning ikkinchi bo’limida chiqindi va yo’qotish me’yori, hamda moylarning haqiqiy sarfi o’rtasidagi taqqoslama taxlil ko’rsatiladi. SHuningdek yo’qotishlar va chiqindilar soni ko’rsatiladi. SHu bilan birga chiqindilar va yo’qotishlarning me’yorlari soxa boshqarmalari tomonidan o’sha yog’larning rafinatsiyasi sxemasi va kislotaviyligiga asoslanib belgilanadi.

Moylarning ko’p yoki kam ishlatilishi moylarning umumiyligi soni nisbati orqali aniqlanadi.

Xisobotning uchinchi bo’limi rafinatsiyalangan moylar va chiqindilarning xarakatini ko’rsatadi. Bu xisobot mahsulotni qo'yish stantsiyasiga (omborxonaga) topshirish

xujjalriga, moylarni boshqa tsexlarga topshirish xujjalriga, shuningdek inverterizatsiya dalolatnomalariga asoslanadi.

Xisobotda dezodoratsiyadan o'tgan moylar ma'lumot uchun berilib ishlab chiqarish jurnali ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Rafinatsiyaga kelayotgan moylarning kislota soni laboratoriya tomonidan o'rtacha smena yoki o'rtacha sutka namunalari yordamida aniqlanib o'rtacha tortib olingan ko'rsatgich qilib ko'rsatiladi.

## **12.2. Moylarning gidrogenizatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish – texnik xisoboti**

**xisoboti.** Moylarning gidrogenizatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish – texnik xisoboti ishi bo'limida ko'rsatiladi.

Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish ko'rsatgichlari mahsulotni keyingi paytda ishlashga yoki omborxonaga topshirish xujjalriga asoslanadi.

Kerakli salomas ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moylarning soni soxa boshqarmalari tomonidan tasdiqlangan hamda xomashyoni haqiqiy sifatini xisobga olgan me'yorlar orqali aniqlanadi. Agar salomas ishlab chiqarish uchun moylarning sarfi aniqlansa unda rafinatsiya uchun sarf va chiqindilar xisobga olinadi.

Agar gidrogenizatsiya korxonasi moylarni massa bo'yicha mustaqil rafinatsiya tsexlaridan qabul qilsa unda rafinatsiya bo'yicha xisobot aloxida tuziladi. Bu xolda gidrogenizatsiya bo'yicha xisobot quyidagicha tuziladi.

1.Korxona boshlig'i rafinatsiyalashga moylarni qayta ishlash ma'lumotlari asosida xisobot tuziladi

2.Buxgalteriya gidrogenizatsiya va rafinatsiya tsexlari boshliqlarining xisobotini aloxida tekshirib qabul qiladi.

3.Rafinatsiya va gidrogenizatsiya tsexlari xisobotlari asosida reja ishlab chiqarish bo'limining rafinatsiyalanganmagan moylarning sarfini ko'rsatuvchi gidrogenizatsiya bo'yicha to'liq hisobotini ko'rsatadi. Bu hisobot xisobxona tomonidan mahsulotni kal'kulyatsiya qilish uchun foydalaniladi. Rafinatsiya va gidrogenizatsiya uchun chiqindi va yo'qotishlar me'yor aloxida tuziladi. Agar moylarning rafinatsiyasi salomas ishlab chiqarishning bir qismi bo'lsa va rafinatsiyalangan moylar gidrogenizatsiyaga tortilmasdan jo'natilsa, bunda korxonaning (tsexning) boshlig'i quyidagicha hisobot tuzadi:

avvalo yog' va moylarning rafinatsiyasi bo'yicha **I «xomashyo» va II “moylarning chiqindilar va qaytmas yo'qotishlar”** puktleri to'ldiriladi;

keyin gidrogenizatsiya bo'yicha to'liq hisobot, shuningdek rafinatsiya bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatiladi. Rafinatsiya va gidrogenizatsiya bo'yicha chiqindilar va yo'qotishlar me'yorlari umumiy holda bo'ladi.

**«Yordamchi materiallar» III** –bo'limda katalizator ishlab chiqarish va uni regeneratsiya qilish uchun sarflangan barcha materiallar ko'rsatiladi, agar katalizator korxonaga boshqa korxonalardan kelmay korxonaning o'zida ishlab chiqarilsa. SHuningdek vodorod ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan materiallar ham ko'rsatiladi.

Mahsulot sifati ko'rsatkichlari laboratoriya ma'lumotlari asosida hisobotda ko'rsatiladi.

Margarin korxonasi yoki tsexining ishlab chiqarish texnik hisoboti o'zida mahsulot ishlab chiqarishi, xomashyo va materiallar sarfi, shuningdek mahsulotning sifat xarakteristikalarini aks ettiradi.

Tayyor mahsulot sifati ko'rsatkichlari hisobotda har bir topshirilgan mahsulot guruxi (partiya) uchun laboratoriya analizlari asosida tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarishga kelib tushgan moylarning sifati xam laboratoriya tomonidan tasdiqlangan o'rtacha tortilgan mahsulot xujjalriga asoslanadi.

Xisobotda keltirilgan moylarning sarfi tayyor mahsulot, chiqindi va yo'qotishlar miqdoriga to'g'ri kelishi shart.

Mayonez tsexining ishlab chiqarish texnik hisoboti margarin tsexining hisobotiga o'xshagan bo'ladi. Agar mayonez tsexi margarin tsexining tarkibiga kirsa unda mayonez ishlab chiqarish ko'rsatkichlari margarin tsexining hisobotida ko'rsatiladi.

**12.3. Sovun korxonasingin bir yillik ishlab chiqarish texnik xisoboti.** Sovun pishirish tsexining ishlab chiqarish texnik hisoboti sovun va sintetik yuvish vositalarini ishlab chiqarish uchun tuziladi.

Sovun tarkibidagi yog' kislotalarining soni va sovunning sifat soni omborxonaga topshirilgan xar bir mahsulot guruxi uchun laboratoriya analizlari orqali belgilanadi.

Material va xomashyo xarakati inventarizatsiya aktlarida oyning boshi va oxiriga kelgan qoldiqlar, mahsulotni me'yor bo'yicha topshirish xujjalarda – material va idishlarning sarfi va qabul qilinishi aks etadi.

Buyoq va xid beruvchilar (otdushka) me'yor xujjalari yordamida sovun pishirish tsexiga omborxona tomonidan beriladi – xaqiqiy massa trafaretda ko'rsatilgan.

Otdushga va bo'yoqlar sarfi nazorati uchun alohida konveeyrlar uchun jurnal hisobot beriladi, unda quyidagi ko'rsatkichlar beriladi: sana, mahsulot turi, ishlab chiqarish, otdushka va buyoqlar turi, qabul qilish, sarf va qoldiq.

Oyning oxirida brigadalarning jurnal - hisobotlariga asoslanib hamma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobot tuziladi. Bu hisobot atir sovnulari guruxlari ishlab chiqarishda otdushka va buyoqlar sarfi uchun tuziladi.

«Aslida» ustunida xaqiqiy massa ko'rsatiladi, «Qayta hisobda» ustunida yog'dagi yog' kislotalarining soni, SAM ning 100 % li tarkibga hisoblanishi, kaustik sodaning 92 % ga, qayta hisoblanishi va hokazolar ko'rsatiladi.

**12.4. Yog' kislotalarining distillyatsiyasi xisoboti.** Yog' kislotalarining distillyatsiyasi xisoboti sovun pishirish hisobotiga to'ldirish qilib tuziladi.

Xisobotni tuzishda yog' kislotalarining soni, soapstokning va boshqa chiqindilarning soni ko'rsatiladi, shuningdek ikkilamchi distillyatsiyadagi birinchi gudron ko'rsatiladi. Birinchi gudrondagi yog' kislotalarining soni laboratoriyada aniqlanadi.

Oy davomida qayta ishlangan yog' kislotalarining soni oyning boshiga kelgan qoldiq yig'indisidan oyning oxiriga qolgan qoldiq yig'indisini ayirish orqali topiladi.

Distillyatsiyalangan yog' kislotalari ishlab chiqarilishi soni deb, omborxonaga yoki qayta ishlashga topshirilgan yog' kislotalari tushuniladi.

Yog' kislotalari ishlab chiqarishning protsenti qayta ishlangan yog' kislotlari soniga nisbatan topiladi.

Yo'qotishlar esa qayta ishlangan yog' kislotalari va olingan distillyatsiyalangan yog' kislotalari farqi orqali topiladi.

Agar korxonada distillyatsiya fraktsiyalash bilan birga olib borilsa, unda hisobot kislotalarning ishlab chiqarilishi fraktsiya bo'yicha ko'rsatiladi.

Glitserin distillyatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish texnik hisoboti bu tsex boshqa tsex yoki korxona tarkibiga kirishidan qat'iy nazar tuzilishi shart. Glitserinning distillyatsiyasi bo'yicha xomashyo qabul qilish, mahsulotni topshirish, inventarizatsiya va h.k. xujjalalar alohida qilib tuziladi.

Xom glitserinning oyning boshiga yoki oxiriga qoladigan qoldig'i inventarizatsiya xujjalarda ko'rsatiladi, kelish esa – me'yoriy xujjalarda.

Qayta ishlangan xom glitserin miqdori kelish summasi va oyning oxiriga qolgan qoldiq orqali aniqlanadi.

Distillyatsiyalangan glitserinni ishlab chiqarish miqdori torozilarda tortish ma'lumotlari orqali ko'rsatiladi.

CHiqindi va yo'qotishlar kattaliklari qayta ishlangan xom glitserin va 100 % ga qayta xisoblangan distillyatsiyalangan glitserin farqi orqali topiladi.

Glitserinning (%) miqdori laboratoriya tomonidan o'rtacha topilgan kattalik xisoblanadi..

TSexdagi oyning boshiga va oxiriga kelgan distillyatsiyalangan glitserin miqdori ishlab chiqarish soniga qo'shilmay xomashyo tarkibiga qayta hisoblanadi.

## 29-jadval

### Glitserin distillyatsiyasi bo'yicha ishlab chiqarish texnik xisoboti

**Yog'moytamakisanoat  
Uyushmasi tomonidan  
tasdiqlangan**  
«\_\_\_\_\_» **201 y.**

Ko'rsatkichlar	Massa (xaqiqiy), kg	Glitserin miqdori, %	Massa 100 % li glitseringa qayta xisobga, kg
Texnik glitserinning oyning boshidagi qoldiq			
Oy davomida keldi qayta ishlandi			
Oyning oxiriga kelgan qoldiq			
Ishlab chiqarilgan distillatsiyalangan glitserin			
Dinamitli			
Yuqori navli			
I navli			
II navli			
Ja'mi			
Gudron chiqindilari va distillyatsiyadagi yo'qotilishlar			

### TAYYOR MAHSULOT XARAKATI

Ko'rsatkichlar	Dinamitli	Yuqori Navli	Birinchi navli	Ikkinci navli	Ja'mi
Oy davomida ishlab chiqarildi					
Omchorxonaga topshirildi					

**Glitserin tsexining boshlig'i**

**Xisobotni tekshirdi va qabul qildi**

**Buxgalter**

**Xisobot bo'yicha xulosa** \_\_\_\_\_

**Bosh injener**

*Tayanch so'z va iboralar*

Sovun, glitserin, sifat, tarkib, oy oxiri, qabul qilish, rafinatsiya, hisobot, tuzish, yo'qotilishlar, me'yoriy chiqindilar, inventarizatsiya, 1 chi bo'lim, 2 chi bo'lim, gidrogenlash, margarin.

*Takrorlash uchun savollar.*

1. Sovun korxonaning 1 yillik ishlab chiqarish texnik hisoboti qanday tuziladi?
2. Glitserin distillyatsiyalashning 1 yillik ishlab chiqarish texnik hisobotini tuzishda nimalarga e'tibor beriladi?.
3. Yog' va moylarni rafinatsiyalashning bir yillik ishlab chiqarish texnik hisobotini tuzish qanday amalgा oshiriladi?
4. Moylarni gidrogenlashning 1 yillik ishlab chiqarish texnik hisoboti qanday tuziladi?
5. Sovun korxonasining 1 yillik ishlab chiqarish texnik hisobotini tuzish qanday bajariladi?
6. Yog' kislotalarini ishlab chiqarish texnik hisoboti qanday olib boriladi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. V.G. Щербаков «Osnovы upravleniya kachestvom produktsii i texnoximicheskiy kontrol' jirov i jirozameniteley» M.: Agropromizdat, 1985g. –216s.
2. Qodirov Y., Otayorov J. «Texnologik va fizik-kimyoviy nazorat» fanidan ma'ruza matnlari T. 2000y
3. Ibragimova M., Qodirov Y., Otayorov J. «Texnologik va fizik-kimyoviy nazorat» fanidan ma'ruza matnlari T. 2005y
4. Kopeykovskiy V.M., Mosyan A. i dr. «Laboratornyiy praktikum po texnologii proizvodstva rastitel'nyix masel». M. 1990. 192s.
5. Arutyunyan N.S. «Texnologiya pererabotki jirov». –M. Rицерпромиздат 1999g. –350C.
6. «Rukovodstvo po metodam issledovaniya, texnicheskому kontrolyu i uchetu proizvodstva v maslojirovoy promышленности» (redkollegiya Beloborodov V.V. i dr.) L. VNIIJ, II tom. 1965g. –419s.
7. Щербаков V.G. “Texnologicheskiy kontrol’ proizvodstva jirov i jirozameniteley” –M. Рицерпромиздат. 1996. –158s.
8. Qodirov Y. “Yog'larni qayta ishslash texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari” T. 2002. – 133b.
9. Rukovodstva po metodam issledovaniya texnoximicheskому kontrolyu i uchetu proizvodstva, v maslojirovoy promышленности. (redkollegiya Zarembo G.V. i dr.) L.VNIIJ IV tom. 1982. – 417s. вyr. 3.
10. Qodirov Y. «O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi» fanidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy qo'llanma T. 1997.
11. «Yog'-moy sanoati korxonalarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish bo'yicha yo'rinqoma» T. 2004.
12. «Yog' – moy mahsulotlari ishlab chiqarishdagi xomashyo va materiallar sarfi, chiqindilari va yo'qolishlari, xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotni saqlash va tashishda tabiiy kamayish me'yor va me'yoriy hujjatlari» t. 2004

## MUNDARIJA

1. 1–Ma'ruza. Kirish. Xom ashyo va tayyor mahsulot sifatini sistemasi.....	standartlashtirish	3
2. 2–Ma'ruza. Mahsulot sifatini oshirish. mahsulot sifatini boshqarishda kompleks sistemalar.....	8	
3. 3–Ma'ruza. Mahsulotni analiz qilish uchun namunalar olish va ularni taxlil qilish usullari.....	14	
4. 4–Ma'ruza. O'simlik moylarini ishlab chiqarishni asosiy jarayonlarini nazorat qilish.....	25	
5. 5–Ma'ruza. Urug'larni dastlabki moy olish uchun tayyorlash, presslash va ekstraktsiyalash jarayonini nazorat qilish6 – ma'ruza. gidrogenlash jarayonini nazorat	33	

qilish.....	
6. 6-Ma'ruza. Gidrogenlash jarayonini nazorat qilish.....	49
7. 7-Ma'ruza. Margarin, konditer va kulinar yog'lari hamda mayonez ishlab chiqarish nazorati.....	56
8. 8-Ma'ruza. Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish.....	64
9. 9-Ma'ruza. Sovun ishlab chiqarishni nazorat qilish.....	71
10. 10-Ma'ruza. Yog' moy sanoatida hisobot va qayd qilish xujjatlari.....	78
11. 11-Ma'ruza. Yog' korxonalarining ishlab chiqarish texnik hisoboti.....	86
12. 12-Ma'ruza. Yog' va moylarni rafinatsiyalashning, margarin korxonasining,sovun korxonasining va glitserinni distillyatsiyalash tsexining bir yillik ishlab chiqarish texnik hisoboti.....	91
13. 13.Foydalanilgan adabiyotlar.....	97

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«KIMYO TEXNOLOGIYA» FAKUL'TETI

«OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

# **TEXNIK FIZIK KIMYOVII NAZORAT**

FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI

**BAJARISH UCHUN  
USLUBIY KO'RSATMA**

**NAMANGAN 2020**

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lim vazirligi tomonidan "**Texnologik fizik-kimyoviy nazorat**" fanidan \_\_\_\_\_ yilda tasdiqlangan namunaviy o'kuv dasturi asosida tayyorlandi.

«Oziq-ovqat tehnologiyasi» kafedrasining 2020\_\_\_\_\_ yilda o'tkazilgan №\_\_\_\_ yig'ilishida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

Institut ilmiy-uslubiy kengashining №\_\_\_\_ yig'ilishi \_\_\_\_\_ yilda ko'rib chiqildi va chop etishga ruxsat berildi.

Tuzuvchilar:

PhD. O'ktamov  
ass: O'.Nishonov

Taqrizchi:

dots. F.Xoshimov

## Kirish

Yog'-moy sanoati O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat sanoatini yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, aholi va halq xo'jaligini tozalangan o'simlik moylari, shrot va sheluxa, margarin, mayonez xamda xo'jalik sovunlari bilan ta'minlaydi.

Respublikamiz yog'-moy sanoatining asosiy vazifasi halq xo'jaligiga ekologik toza, raqobatbardosh, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat. Bu vazifalarni bajarishda bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol, milliy qadriyat va an'analarga sodiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash katta ahamiyatga ega.

O'simlik moylari ishlab chiqarish bir qator bo'limlar, moyli urug'larni saqlash, tozalash, chaqish, chaqilmani fraktsiyalarga ajratish, mag'iz yoki urug'ni maydalash, yanchilmani namlash va bug'lash, presslab va ekstraktsiyalab moy olish, moyni birlamchi tozalashdan iborat.

O'zbekistonda o'simlik moylari ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo paxta chigit bo'lib, noan'anaviy moyli xomashyolardan, kungaboqar pistasi, maxsar, soya urug'i, kunjut hisoblanadi.

Xomashyoni qabul qilishda fizik-kimyoviy nazoratlarni olib borishni va ularni sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, sifatlari xomashyoni qabul qilishga, uning konditsion vaznnini (haqiqiy og'irligi) aniq qilib, xisob-kitob qilishga, moyli urug'larni navlarini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Ushbu qo'llanma «Texnologik va fizik-kimyoviy nazorat» fanining dasturi asosida yozilgan bo'lib, bakalavriaturani 5321000 – «Oziq-ovqat texnologiyasi» (Yog'-moy mahsulotlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmadan yog'-moy korxonalarining laboratoriya xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Qo'llanmaning asosiy maqsadi - talaba laboratoriya ishlariga mustaqil tayyorlanishida va taxlillarni bajarishida yordam berishdir. Qullanmada keltirilgan barcha taxlil usullari yog'-moy korxonalaridagi laboratoriya ishlarida asosiy usul hisoblanadi. Qo'llanmada moyli urug'larni va ularni qayta ishslashda olingan mahsulotlarni taxlil qilishda asosan paxta chigit, sheluxa, ekstraktsiya moyi, rafinatsiyalangan moylar va sovun qullaniladi.

SHuning uchun analizning bayoni bilan bir qatorda, namuna olish, qisqartirish va uni analizga tayyorlash bo'yicha tegishli ma'lumotlar berilgan.

Barcha keltirilgan xomashyo, oraliq va tayyor mahsulotlarni analiz qilish usullari o'simlik moylari ishlab chiqarish korxonalarining laboratoriylarida asosiy usullar hisoblanadi. Qo'llanma oxirida adabiyotlar ro'yxati berilgan bo'lib, bu adabiyotlar talabalarga nazorat ishlariga tayyorlanishlari uchun yordam beradi

### **Texnika havfsizligi va yong'inga qarshi texnika bo'yicha umumiyy qoidalar.**

Har bir talaba texnologik va fizik-kimyoviy nazorat bo'yicha olib borilayotgan laboratoriya ishslash jarayonida texnika havfsizligining barcha qoidalarini yaxshi bilishi va bajarishi, tartibni, tozalikni saqlashi; turli ishlarni to'g'ri va ehtiyyotkorlik bilan bajarishi shart.

Talabalar laboratoriya darslarini olib boruvchi o'qituvchi yordamida texnika va yong'inga qarshi havfsizlik qoidalarini o'rgangach va instruktajdan o'tgach laboratoriya ishlariga qo'yiladi.

Talaba har bir ishni boshlashdan oldin ish uslubiyatini yaxshilab o'qishi, asosiy tomonlarini aniqlashi va laboratoriya ishini bajarish jarayonida o'qituvchining ruxsatisiz ishni bajarish texnikasidan chetga chiqmasligi kerak.

Turli moddalar bilan ishlaganda ularning teriga tushmasligiga harakat qilish, yuz va ko'zni qo'l bilan ushlamaslik, ish paytida ovqat yemaslik, ovqatlanishdan oldin va keyin qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

Kimyoviy moddalarning mazasini aniqlash qat'ian taqiqlanadi. Hidlash esa idish ustiga engashmasdan, bug' yoki gazlarni qo'l harakati bilan o'ziga yo'naltirib to'liq nafas olmasdan ehtiyyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Moddalar saqlanayotgan barcha idishlarda saqlanayotgan moddaning nomi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Tajriba uchun iflos idishlarni ishlatish taqiqlanadi.

Asosan ish tik turgan holda bajariladi, o'tirib ishslashga faqatgina al angalanish, portlash va suyuqliklarning sachrab ketishi havfi bo'limgandagina ruxsat beriladi. Laboratoriyada yakka holda ishslash qat'ian taqiqlanadi.

Uchuvchan moddalar ajralishi, tarkibida ammiak, sirka kislotasi va hosil bo'lgan eritmalarining qaynashi va bug'lanishi, dietil va petroleyl efirlari, muz, sirka kislotasi va boshqa erituvchilar qo'llanilishi bilan bog'liq ishlarni faqat havo so'rvuchi shkaflarida bajarilishi kerak. Sog'liq uchun zararli gazlar ajraluvchi kislotalar yoki boshqa moddalarни ham faqatgina havo so'rvuchi shkaflar ichida saqlash kerak.

Havo so'rvuchi shkaflarida ishslash paytida shamollatish samaradorligini oshirish maqsadida shkaf eshigini  $1/3 - \frac{1}{4}$  qismga ko'tarib qo'yish kerak. Ish tugagach eshikni jipslab yopish kerak.

Kontsentrlangan yoki suyultirilgan kislotasi va ishqorlardan, shuningdek boshqa zaharli suyuqliklardan namuna olishda ularning og'izga kirib ketishidan saqlanish maqsadida maxsus pipetkalardan yoki rezina grushalardan foydalanish lozim.

Issiqlik ajralish bilan boradigan kontsentrlangan sul'fat kislotani suyultirishda shishadan yoki chinnidan tayyorlangan yupqa devorli kimyoviy idishlardan foydalanish kerak.

Tigellarni issiq kolba va stakanlarni ko'targanda azbest tagliklarni qo'yib ko'tarish va o'zidan uzoqroq tutish kerak. Tigellarni qisqichlar bilan ushslash kerak. Yengil alangananadigan moddalar bilan ishlaganda (dietil, petroleyl efiri va hokazo) yaqin atrofda alanga va ishlab turgan elektr qizdirgich qurilmalar bo'lmasligi kerak. Ularni ochiq alangada va plitkalarda qizdirish qat'ian taqiqlanadi; ularni suvli sovutgich bilan ta'minlangan kolbalarda suv yoki qum hammomida qizdirish mumkin.

Suyuqliklarni haydash jarayonida sovutuvchi suv sarfini rostlab, sovutgich holatini va o'rnatilishini uzlucksiz nazorat qilib turish lozim.

Moddalarni organik erituvchilar yordamida ekstraktsiyalash faqatgina havo so'rvuchi shkafda bajarilishi lozim.

Ishlatilgan o'yuvchi ishqorlar (ishqorlar, kislotalar, kislotali suvlar va hokazo) neytrallangandan keyingina kanalizatsiyaga to'kilishi lozim. Bundan oldin ularni shu maqsadda ishlatiladigan mos etiketkali shisha idishlarga quyish kerak. SHuningdek kanalizatsiyaga turli yonuvchi organik erituvchilarning qoldiqlarini ham quyish qat'ian taqiqlanadi. Bu qoldiqlarni maxsus idishlarga quyish lozim.

Barcha qurilmalar isituvchi va boshqa uskunalarini talabalar faqatgina o'qituvchi yoki laborant ruxsati bilan o'chirishi yoki yoqishi mumkin. Ishlab turgan uskunalarini nazoratsiz qoldirish qat'ian taqiqlanadi.

Laboratoriyada ishni tugatgach ish joyini yig'ishtirish, qo'lni sovunlab yuvish, uskunalarga berilayotgan elektr energiyasini o'chirish, suv yoki gaz berilayotgan kranlarni yopish lozim.

Laboratoriyada har doim qumi bor quti, o't o'chirgich va yong'inga qarshi yopqich bo'lishi kerak. Yong'in chiqqan holda eng avvalo gaz va elektr isitgich uskunalarini o'chirish, yaqin atrofdagi yonuvchi moddalarni havfsiz joyga o'tkazish va shundan keyingina yong'inni

o'chirishga harakat qilish lozim. Yonayotgan suyuqliklarni asbest yopqich bilan yopish, so'ngra zarur bo'lganda qum sepish kerak. Qolgan hollarda o't o'chirgichdan foydalaniladi. Alangaga suv sepmaslik lozim, chunki bu ko'p hollarda yong'inning kuchayishiga olib keladi.

Kiyimi yonayotgan odamga yopqich, kostyum, pal'to va shunga o'xshashlarni yopish kerak, uning yugurib ketishiga yo'l ko'ymaslik lozim, chunki bu alanganing kuchayishiga olib keladi. Bunday holda o't o'chirgichdan foydalanish yaramaydi.

Agar havo so'rvuchi shkafda yong'in chiqsa darhol shamollatish kanalining shiberini yopish kerak, aks holda kanal orqali yong'in tarqalib ketadi. SHundan so'ng yong'inni o'chirish choralarini ko'rish lozim.

Elektr uzatgichlari yongan hollarda liniyadagi tokni o'chirish va qum, asbest yopqich, o't o'chirgich bilan yong'inni o'chirish choralarini ko'rish kerak.

SHisha va kimyoviy idishlar bilan ishlaganda shisha bo'lakchalari bilan jarohatlanishning oldini olish maqsadida ehtiyojkorlik bilan ishslash kerak. Suyuqlik saqlanayotgan katta kimyoviy idishlarni bir qo'l bilan tagidan ushlab, ikki qo'llab ko'tarish kerak. SHisha naychaga rezina tiqincha o'rnatayotganda naychani imkoniyati boricha o'rnatilayotgan joyga yaqinroq ushslash va suv, vazelin, glitserin bilan ho'llab aylantirib-burab tiqish lozim. Bundan oldin trubkaning uchini qizdirib tekislash kerak.

Texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Issiqlik ta'sirida birinchi darajali kuyganda (qizarish, sezilmas pufaklanish) kuygan joyga spirt surish kerak, ikkinchi va uchinchi darajali kuyganda kuygan joyni sterillangan mato bilan yopib bog'lab qo'yish lozim. Kuygan joyning yuzasi katta bo'lsa, jaroxatlangan kishiga tibbiy yordam ko'rsatish lozim.

Kimyoviy kuygan hollarda suv bilan yaxshilab yuvish zarur, so'ngra kislota bilan kuyganda 5 %-li natriy bikarbonat eritmasi bilan, ishqor bilang kuyganda esa 5%-li sirkal kislota eritmasi bilan yuvish kerak.

Ishqor ko'zga tushgan hollarda 2%-li bor kislotsasi eritmasi bilan 10 minut davomida tinimsiz yuvish, so'ngra albatta vrachga murojaat qilish kerak.

Xlorid, sul'fat va nitrat kislotsasi bug'lari bilan zaharlanganda toza havo, tinchlik va vrach yordami zarur bo'ladi.

## 1-LABORATORIYa ISHI

### Paxta chigitidagi momiq miqdorini aniqlash.

#### Umumi tushunchalar

Paxta chigitining momiqligi deb, chigit qobig'ida mavjud bo'lgan tolani ajratishda chigitda qoladigan va chigitning vaznida aks ettiriladigan momiqlikni % miqdoriga aytildi.

Paxta chigit momiqligi chigit qobig'ida mavjud bo'lgan tola va momiqni xlorid kislotsaning bug'lari (solishtirma og'irligi - 1,18–1,19 ga teng) yordamida qo'ritish shkafida 120-130°S da 30 min davomida g'ovaksimon sopol idishda quydirish orqali topiladi.

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:** Xlorid kislotsasi, paxta chigit, 3-chi yoki 4-chi snfga mansub bo'lgan laboratoriya torozilari, kuydirilgan loydan yasalgan sopol idishlar, tabiiy va sun'iy havo almashtirish bilan quritish shkafi, termometr.

**Ishning bajarilishi.** Ikkita kuydirilgan g'ovak loydan yasalgani idishlarga chegarasigacha xlorid kislotsasi quyiladi va 15-20 min. Kislota singguncha ushlab turiladi so'ngra to'kib tashlanadi.

O'rtacha namunadan 30,00 gr. Dan ikkita namuna qismi g'ovak idishga joylashtiriladi, shisha yoki soat oynasi bilan berkitiladi va 120-130°S gacha qizdirilgan quritish shkafiga joylashtiriladi. 30 minut o'tgandan keyin idishlar quritish shkafidan olinadi va chigitlar xona haroratigachasovutiladi va oldindan tortilgan shishaga to'kiladi, keyin shisha bilan birgalikda tortiladi, bunda xatolik 0,02 g dan oshmasligi kerak.

Har bir namuna qism oldindan tortilgan matodan qilingan xaltachalarga solinadi va 2-3 min davomida sekin ishqalash bilan kislota ta'sirida buzilgan tolalar va momig' chigitdan ajratiladi, so'ngra momiqdan tozalangan chigitlar qog'oz varag'iga ajratib olinadi va urug'lar hamda xaltachadagi momiq va tola miqdori alohida torozida tortiladi.

Momiqlikn % miqdori momiq og'irligicha qarab (momiqdan tozalangan urug'lar og'irligiga qarab) quyidagi formuladan topiladi.

$$X = \frac{a \cdot 1,06 \cdot 100}{l};$$

bu yerda: X – momiqlik, % da;

a – tola va momiq og'irligi, g da;

l – olingan urug' namunasi

1,06 – namlikka tuzatish.

## 2 –LABORATORIYa ISHI SHeluxadagi moy miqdorini aniqlash

### Umumiy tushunchalar


Paxta sheluxasidagi xom yog'ning massa ulushi to'liq ekstraktsiyalash usuli bilan aniqlanadi. Erituvchi sifatida qaynash harorati 40-55°C bo'lган petroley efiri ishlatiladi.

Ekstraktsiya jarayoni Sokslet va Naab apparatlarida bajariladi. Quyida Naab apparati bilan ishning bajarilishi berilgan.

**Kerakli asbob, reaktiv va metariallar:** Naab apparati; quritish shkafi; 2-sinf laboratoriya tarozisi; suv hammomi; 150-250Cm<sup>3</sup> li kolbalar; xovoncha petroley efiri; gigroskopik paxta; fil'tr qog'oz.

**Ishning bajarilishi** Diagonal bo'lish yo'li bilan 5-6 g sheluxa ajratiladi va tortib maydalab ekstraktsion patronga joylanadi. SHeluxadagi materialning ma'lum qismi (material miqdori analiz namunasi og'irligiga mos kelishi kerak) sheluxaga qo'shiladi SHundan so'ng, patron Naab ekstraktsiya apparatining sovutgichini ilgagiga ilinadi. 1-rasmida Naab apparatlari ko'rsatilgan.

Apparat ikki xil qurilmadan iborat: 1-qurilma (a) Zaychenko apparati uslubida ishlaydi, 2-qurilma (b) esa Tvissel'man apparati uslubida ishlaydi, lekin Naab apparatlari konstruktiv ko'rinishi jihatidan Zaychenko va Tvissel'man apparatlaridan farq qiladi.



1-rasm. Naab apparati.

a) 1. Qabul qiluvchi kolba. 2. Sovutgich.

b) 1. Qabul qiluvchi kolba. 2. Ekstraktor. 3. Sovutgich.

Apparatning 1-qurilmasi qabul qiluvchi kolba 1 vasovutgich 2 dan iborat. Ekstraktsion patron ilgaklarga shunday osiladiki, patronning pastki qismi erituvchiga tegmay turadi.

Apparatning 2-qurilmasi qabul qiluvchi kolba 1, ekstraktor 2 vasovutgich 3 dan iborat. Patron sovutgich ilgagiga ilinadi va apparat rasmida ko'rsatilganidek qilib yig'iladi.

Naab apparatlari bilan ishlaganda analiz qilinayoggan materialdan 1-qurilma uchun 5 g, 2-qurilma uchun 10g miqdorda tortma olinadi va Sokslet apparatida ishlagandek, tayyorlangan fil'tr qog'ozli patronlarga joylanadi.

Kolbaning issiq suvgaga botish chuqurligi va idishdagi suvni temperaturasini o'zgartirish bilan ekstraktsiya tezligini o'zgartirish mumkin.

Tezlik shunday mo'ljal bilan o'zgartiriladiki, unda ekstraktsion patronning yuqori qismidagi 5 mm chuqurlik har doim butun material hajmi orqali fil'trlanayoggan erituvchi bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak.

Petroley efiri bilan ishlaganda hammomda suvning temperaturasi 80-85 °S, etil efirida esa undan past bo'lishi kerak.

Ekstraktsiya vaqtiga material turiga va undagi moy miqdoriga qarab belgilanadi. Tortilgan kolbagacha 40-55 °S temperatura atrofida haydalagan 60 ml petroley efiri solinadi va patronning yuqori qismidagi chuqurlik patronning butun hajmi bo'yicha fil'trlanadigan efir qavati bilan doimo to'lib turgan holida 2 soat davomida ekstraktsiya olib boriladi. Ikki soatdan keyin yog' ajratish to'liqligiga namuna olinadi.

Buning uchun ekstrakgor sovitgichdan ajratiladi, erituvchini ekstraktordan kolbagacha quyib olinadi: erituvchining so'nggi tomchilari quruq va toza soat oynasiga tomiziladi. Agar erituvchi bug'lanib ketgandan keyin oyna ustida yog' izlari qolmasa, ekstraktsiya tugatiladi. Aks holda moslama qayta yig'ilib ekstraktsiya davom ettiriladi.

Ekstraktsiya jarayoni tugagach efir haydaladi va yog'li kolba 100-105 °S temperaturali quritish shkafiga qo'yiladi va doimiy og'irlikkacha quritiladi. Tarozida birinchi tortish 1,0-1,5 soatdan so'ng, keyingilari esa har 0,5 soatdan so'ng amalga oshiriladi.

SHeluxadagi moy miqdori % da quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$(R_1 - R_2) * 100$$

$$X = \dots$$

$$R$$

Bu yerda.  $R_1$  – moyli kolba og'irligi, g da

$R_2$  – bo'sh kolba og'irligi, g da

$R$  – sheluxa analiz namunasining qo'shilgan chigit bilan bиргалидаги og'irligi, g da.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq 0,15 % dan oshmasligi kerak.

**3 – LABORATORIYa ISHI**  
**EKSTRAKTSION MOYNI CHO'KMA MIQDORINI VA CHAQNASH**  
**HARORATINI ANIQLASH**

**3.1. Ekstraktsion moydagi cho'kma miqdorini aniqlash**

**Umumiy tushunchalar**

Ekstraktsiya benzinida yoki petroleyni efirida erimaydigan yog'siz aralashmalar va tindirish vaqtida hosil bo'lgan cho'kmani massa ulushi yog'ning muhim sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Yog'siz aralashmalar (asosan oqsil zarrachalari) ni massa ulushini aniqlash usuli yog'siz aralashmalarni ajratib olish va bu aralashmalarni tarozida tortishga asoslangan.

CHO'kmani hajmiy miqdorini aniqlash, o'simlik moylarini tindirish va hosil bo'lgan fosfatidlar, oqsil moddalar, hamda namlikdan iborat cho'kmaning hajmini o'lchashga asoslangan.

**3.1.1. Yog'dagi aralashmalarning massa ulushini aniqlash**

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:**

2-klass laboratoriya tarozisi; 4- klass laboratoriya tarozisi; quritish shkafi; 200-250 sm<sup>3</sup> hajmlı kimyoviy stakanlar; sayqallangan qopqoqli shisha yoki qopqoqli alyumin stakanchalar; 7sm diametrli shisha voronka; 10-10,5 sm diametrli fil'tr qog'ozlari; vakuum ostida fil'trlash uchun kolba; eksikator; ekstraktsiya benzini yoki petroleyni efiri.

**Ishning bajarilishi.**

CHO'kmani aniqlash uchun texnik tarozida hajmi 200-250 ml bo'lgan konus shaklidagi kolbaga zarrachalari uncha ko'p bo'lmasdan 100 ml va zarrachalari ko'p bo'lgan 50 ml moy solib o'lchanadi.

Namuna olishdan oldin moy yaxshilab aralashtiriladi.

Moy namunasi uch barobar ko'paytirilgan petroleyni efiri (qaynash xarorati **40-60°S**) yoki benzin (qaynash xarorati **85°C**gacha) bilan aralashtiriladi va eritma **100-105° S** da quritilgan va analitik tarozida tortilgan fil'tr qog'oz orqali fil'trlanadi. Hamma moy fil'trlanib bo'lingach kolba devorlarida qolgan moy erituvchi bilan yuviladi va u ham fil'trdan o'tkaziladi. Fil'trning moy dog'lari tekkan yuqori chetlari qirqiladi va fil'tr ichiga solinadi, erituvchi bilan qayta yuviladi. Fil'trdan o'tgan moy **100-105°S** da doimiy og'irlilikka quritiladi. Fil'tr ham byuksda **100-105° S** da doimiy og'irlilikka quritiladi. Fil'trli byuks analitik tarozida tortiladi, birinchi tortish 1 soatdan keyin, keyingilari har 30 minutda.

Moydagi cho'kma % da (X) quyidagicha hisoblanadi.

$$X = \frac{(P_1 - P_2) \cdot 100}{P}$$

bu yerda: R<sub>1</sub> – quritilgan cho'kmali fil'tr og'irligi, g;

R<sub>2</sub> – cho'kmasiz fil'tr og'irligi, g;

R – moy og'irligi, g.

Ruxsat etilgan nisbiy xatolik ± 10 %.

### **3.1.2. Yog'dagi cho'kmani hajmiy miqdorini aniqlash**

**Kerakli asboblar:** suv hammomi; 100 °S li termometr; 400 sm<sup>3</sup> hajmli kimyoviy stakan; 0,5 sm<sup>3</sup> bo'linish bilan 100Cm<sup>3</sup> hajmli shisha o'lchov tsilindrlari.

**Ishning bajarilishi.** 120 sm<sup>3</sup> atrofidagi tahlil qilinayotgan yog'ni suvli hammomda 50°C haroratgacha isitiladi, keyin ohista 20 °S gacha sovitiladi, aralashtiriladi va 100 sm<sup>3</sup>li tsilindrga quyiladi.

TSilindr 15-20 °C haroratda 24 soatga qoldiriladi.

CHO'kmani sm<sup>3</sup> dagi miqdorini hajmiy ulush deb qabul qilinadi va %da ifodalanadi.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq 0,5%dan oshmasligi kerak.

### **3.2. Yog'ning chaqnash xaroratini aniqlash.**

**Umumiy tushunchalar.** Bu ko'rsatkich ekstraktsiya moyining sifatini ko'rsatadi va mistsellani distillyatsiya qilgandan keyin yog'da qolgan erituvchini miqdori haqida fikr yuritish mumkin.

CHAqnash haroratini aniqlash usuli, yog'dagi uchuvchan moddalar va ma'lum sharoitda qizdirganda yog' komponentlarini parchalanishidan hosil bo'lgan moddalarni havo bilan, olovni yaqinlashtirganda chaqnovchi aralashma hosil qilish qobiliyatiga asoslangan.

**Kerakli asbob, reaktiv va materiallar:** Neft' mahsulotlari va kimyoviy organik mahsulotlarni chaqnash haroratini aniqlash uchun Martens-Penskiy asbobi; sekundomer; erituvchilar; ekstraktsiya benzini; dietil efiri yoki petroleyni efiri.

**Ishning bajarilishi.** Martens - Penskiy asbobi (2-rasm) quyidagi asosiy detallardan iborat: elektroqizdirgich elementli (1) metall stakan, ichi issiqlik saqlovchi material bilan to'ldirilgan metall qoplama (2), moy uchun idish (4), armaturali qopqoq (9), aralashtirgich (10), ikkita termometr va kuchlanish to'g'rilaqichi (latr yoki reostat).


Moy uchun rezervuar (4) yassi tubli tsilindr shaklidagi idishdir. U mislangan yoki nikellangan bo'lishi mumkin. Idish stakanga joylashtirilgan. Idish ichida asbobni moy bilan to'ldirilish darajasini ko'rsatish uchun belgi qilingan. Apparat qopqoq'i rezervuarga yaxshilab kiritilgan, unga ikkita teshikli zaslona (7), termometr uchun tubus (5), zaslona ochuvchi richag (3) va aralashtirgich (10) o'rnatilgan.

Martens-Penskiy asbobida har 1°Sda graduirlangan 80°Sdan 100°S gacha va 170°S dan 330°C gacha shkalali termometrlar ishlataladi.

Tekshirilayoggan moy idishga belgigacha quyiladi, qopqoq'i yopiladi, termometr qo'yiladi va ehtiyyotkorlik bilan havo hammomiga joylanadi. Qizdirgich yoqiladi va 60 ayl/min tezlikda aralashtirib turiladi. Moyni chaqnash haroratidan 30°S pastroqqacha qizdirilgach, harorat minutiga 2°S oshadigan tezlikda qizdiriladi.

Kutilayotgan chaqnash haroratidan 10°S pastda chaqnash sinab ko'rilib. Buning uchun aralashtirish to'xtatilib, qopqonning (1) teshigi ochiladi va tekshirilayotgan moy ustiga yonib turgan olov tutiladi. Agar chaqnash sodir bo'limasa moy yana aralashtirilib, yoqish har 1 minutda takrorlanadi.

CHAqnash harorati bo'lib moy ustida alanga paydo bo'lgan harorat hisoblanadi.



2-rasm. Martens-Penskiy asbobi.

1-elektro qizdirgich elemenli metal stakan; 2-Metall qoplama; 3-richag; 4-moy uchun idish; 5-termometr uchun tubus; 6-uzatma; 7-ikcta teshikli zaslonka; 8-yonuvchi lampochka; 9-qopqoq; 10- aralashshtirgich.

Birinchi alanga paydo bo'lidan keyin tekshirish xuddi o'sha sharoitda har 1 minutda yoqish takrorlanib davom ettiriladi. Agar shunda alanga paydo bo'lmasa, butun tajriba qayta takrorlanadi.

CHAqnash harorati qilib birinchi alanga paydo bo'lidanagi harorat qabul qilinadi. Moyniig yangi miqdori bilan o'tkazilgan ikkita parallel aniqlashlar o'rtasidagi farq chaqnash harorati 50°C dan kam bo'lganda 1°C, 50°C dan yuqori bo'lganda 2°C, 200°C dan yuqori bo'lganda 3°C dan oshmasligi kerak.

Yangi tajriba boshlashdan oldin, moy uchun idish benzin va efir bilan yuviladi, quritiladi. Havo harakatidan va yorug'lik ta'siridan himoya qilish uchun asbob, po'lat listdan yasalgan to'sqich bilan o'raladi va qorong'iroq joyga qo'yiladi.

#### 4 – LABORATORIYa ISHI

##### RAFINATSIYa LANGAN MOYNI KISLOTA SONINI ANIQLASH

###### Umumiy tushunchalar

Sanoat usulida olingen o'simlik moylari uchgiltserid (uchatsilglitserol)lar, yog' bo'lмаган aralashmalar va hamroh moddalar aralashmasidan iborat.

Yog' bo'lмаган aralashmalarga mexanik aralashmalar (qovurilgan mag'iz, kunjara va shrot bo'laklari), namlik va zaharli ximikatlar kiradi.

Zaharli ximikatlarning bo'lishi shu bilan izohlanadiki, qishloq xo'jaligida o'simliklarning zararkunandalari va kasalliklari bilan kurashda turli zaharli ximikatlar (pestitsidlar, gerbitsidlar va h.k.) keng ishlatiladi, ular o'simlikning yog'li to'qimalarida yig'ilib boradi va yog' bilan birga ajralib chiqadi.

Hamroh moddalar yog' va moylar tarkibida juda kam miqdorda bo'lsada, ularni sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fosfolipidlar, sterin va tokoferollar moyning fiziologik qiymatini oshirsa, erkin yog' kislotalari va gossipol esa moyning sifatini pasaytiradi.

###### Hamrox moddalar, ular 2 guruhg'a bo'linadi.

1 guruh - urug'larning yetilish vaqtida yig'ilib boradi va yog'ni ajratishda o'zgarishsiz uning tarkibiga o'tadi. Bu fosfolipidlar, pigmentlar-karotin, ksantofil, gossipol, xlorofill, mum, tokoferol, turli vitaminlar, sterollar, erkin yog' kislotalari, ta'm va xid beruvchi moddalar, sul'folipidlardir).

2 guruhg'a urug'larning tarkibida mavjud bo'lib, moyni ajratib olishda unga o'zgargan holda o'tuvchi, texnologik omillar (harorat, namlik, bosim) ta'sirida hosil bo'lувchi, oksidlanib aynish mahsulotlari, hamda hamroh moddalarini termik va gidrolitik parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlar (yog' kislotalari, polimerizatsiya mahsulotlari) kiradi.

Rafinatsiya yog'larga ma'lum sifat berish uchun ularni hamroh va boshqa moddalardan tozalashdir. Rafinatsiya ketma-ket bajariluvchi bir nechta jarayonlarni birlashtiradi.

Oziq-ovqat sanoati yog' va moylarni, to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish uchun, margarin maxsulotlarini tayyorlash uchun, mayonez, gidrogenlangan yog'lar,sovun, glitserin, yog' kislotalari, olif va boshqa maxsulotlar tayyorlash uchun ishlab chiqaradi.

Rafinatsiyaning to'liq tsikli fosfolipidlarni, mumsimon moddalarni, erkin yog' kislotalarini, bo'yovchi va hid beruvchi moddalarni ajratib olishni o'z ichiga oladi. Bu maqsadda turli xil usullar qo'llaniladi, bu usullarning asosida ma'lum reagentlarning alohida moddalarga nisbatan tanlash xususiyati yotadi. Bunga asosan fosfolipidlarni suv yoki elektrolitlarning suvli eritmalari orqali gidratatsiya qilib ajratib olish, erkin yog' kislotalarini yog'larni natriy tuzlari ko'rinishida ajratish, rangli moddalar-pigmentlarni sorbentlar yordamida, hid va ta'm beruvchi moddalarni dezodoratsiya qilib ajratish kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar yuqori tanlovchanlik xususiyatiga ega emas. Bunga misol qilib, gidratatsiya paytida ma'lum miqdorda erkin yog' kislotalarning, neytralizatsiya vaqtida esa, yog'lar rangini ma'lum miqdorda kamayishini ko'rsatish mumkin.

Yog'larning tarkibi asosida va yog'larni keyinchalik qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab, rafinatsiyaning kerakli usullari tanlanadi. Agar yog'lar oziq-ovqat uchun mo'ljallangan bo'lsa, mavjud Davlat standartlariga asosan yog'lar to'liq rafinatsiyalanadi va dezodoratsiyalanadi.

Gidrogenlangan yog'lar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan moylar esa dezodoratsiya qilinmaydi.

Har bir yog' turini rafinatsiya qilish texnologik rejimini tanlashda uning o'ziga hos xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Rafinatsiya jarayoniga quyidagi talablar qo'yiladi. Yog'ning glitserid qismini to'laligicha o'zgarmagan holda qoldirish, iste'molga yaroqliliginini saqlab qolish, yo'qotishlarni va chiqindilarni kamaytirish. Bu muammolarni ijobiy hal qilishda moylarni rafinatsiya jarayonini olib borishdagi eng maqbul sharoit katta ahamiyatga ega, ya'ni natriy gidroksidning miqdori, uning kontsentratsiyasi, neytrallash jarayonini olib borish harorati, aralashtirish tezligi va boshqalar.

**Kislota sonini aniqlash.** 1 gramm yog'dagi erkin yog' kislotalarini neytrallash uchun ketgan kaliy ishqorini (KON) milligram miqdoriga kislota soni (k.s.) deyiladi.

Yog'dagi erkin yog' kislotalarning miqdori doimiy birlik bo'lmasdan, yog' xomashyosining sifatiga, yog' yoki moyni olish usuliga, saqlash sharoitiga va hokazolarga bog'liq bo'ladi. O'simlik moylarining kislota soni asosiy sifat ko'rsatkichlaridan hisoblanib GOST bo'yicha reglamentланади.

Hom yog' va moylarini analiz qilganda kislota soni, yog' va moy tarkibida erkin yog' kislotalardan tashqari, chuchuk xarakterga ega bo'lgan moddalar, masalan, fosfatidlar, gossipol va x.k. bo'lganligi sababli kislotalikga nisbatan bir necha yuqori bo'ladi.

**Usulning moxiyati.** Namunadagi yog'ni kislota sonini ishqorni spirtli eritmasi bilan fenoftalein qatnashchiligidagi titrash orqali aniqlanadi. Yog'ni erituvchisi sifatida neytrallangan spirt va dietil efirining aralashmasi yoki benzin qo'llaniladi.

Kislota sonini aniqlashda spirtning o'rni quyidagicha bo'ladi:

A) reaktsion muxitda o'yuchi ishqorni erish tezligini oshirish, gomogen sharoitda reaktsiyani borishini ta'minlash.


B) yog' kislotalari neytrallashda jarayonidasovun quyidagicha hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan sovun efirda ham, benzolda ham erimay cho'kmaga tushadi va reaktsiya oxirini to'g'ri aniqlashga halaqit beradi.

Reaktsion muxitda spirtning mavjudligi sovunni erishiga olib keladi.

G) spirtning yo'qligi yoki yetishmasligi tufayli eritmada sovun gidrolizga uchraydi:



Bunda, tenglikdan ko'rganimizdek erkin ishqor xosil bo'lib, indikatorni rangini vaqtan oldin o'zgarishiga olib keladi, ammo muxitda hali ham erkin yog'lar mavjud bo'ladi.

SHuning uchun topilgan kattalik xaqiqiy kislota sonidan kichikroq bo'ladi. Agar reaktsion muxitda 20 % dan kam suv bo'lsa, sovun gidrolizi mavjud emas deb qayd qilingan.

Yog' va moylarni kislota sonini aniqlash uchun indikator va potentsiometrik titrlash usuli ishlatiladi.

### Rafinatsiyalangan moyni kislota sonini aniqlash

**Kerakli reaktiv va asboblar:** 250 ml li konussimon kolba, analistik tarozi, dietilefiri, **96 %** etil spirti, **1 %** li fenolftaleini, **0,5 N** o'yuvchi kalyk eritmasi, yog'.

**Ishning bajarilishi:** Kislota sonini aniqlash uchun **250 ml** hajmli kolbaga **3-5 g** rafinatsiyalangan moy sorlinib, anatilik tarozida o'lchab olinadi. So'ngra oldindan tayyorlab qo'yilgan dietilefiri **va 96 %** etil spirtdan (**2:1**) tashkil topgan **50 ml** neytral aralashmani kolbaga quyamiz. Ustiga fenolftaleinni **1 %** li spirtili eritmasi – indikatordan bir qancha tomchi tomiziladi.

Hosil bo'lgan eritmani doimiy aralashtirib byuretka orqali och pushti rang hosil bo'lguncha o'yuchi ishqorni **0,1 N** spirtili eritmasi bilan titrlanadi.

**Kislota soni quyidagi formula orqali topiladi:**

$$\kappa.c. = \frac{5,611 \cdot \alpha \cdot K}{p}; \quad \text{mg KON/g}$$

Bu yerda: **5,611 – KON ni 0,1 N** eritmasi titri, ml da mg.

**α** -titrlash uchun ketgan **0,1 N** o'yuvchi ishqor eritmasini soni, ml

**K** - titrlashga to'g'rilik kiritish


**R** – Rafinatsiyalangan moy namunasi, g.


### 5 - LABORATORIYA ISHI.

#### ATIR SOVUNIDAGI YOG' KISLOTALARI MIQDORINI ANIQLASH


Sovun bu yuqori molekulalı yog' va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvinish va kir yuvish uchun ishlatiladigan sovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog' kislotalarining natriyli va kaliyli tuzlaridan iborat. Tarkibida uglerod atomi 10 dan kam bo'lgan yog' kislotalaridan olingan sovunlar yuvish qobiliyatiga ega emas.

Sovun, yog' kislotalarini o'yuvchi va karbonatli ishqorlar bilan neytrallash natijasida hosil bo'ladi.





Sovunlanish jarayoni neytral yog' bilan ham boradi



Sovunlanish jarayonini olib borish vaqtida ishqor miqdori nazariy hisoblab olinganiga nisbatan biroz ko'proq bo'lishi kerak. Agar sovunlash jarayonida ishqor yetishmay qolsa, suvda yomon eriydigan nordon sovun hosil bo'lishi mumkin.



Covunlanish jarayonida qatnashayotgan yog' kislotalari va ishqorlarning turiga qarab, olingan sovunlar qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin. To'yingan yog' kislotalaridan qattiq, to'yinmagan yog' kislotalaridan yumshoq sovun hosil bo'ladi. Bundan tashqari natriyli sovunga nisbatan kaliyli sovun yumshoq bo'ladi va suvda yaxshi eriydi, ammo yuvinish jarayonida uni sarfi ko'proq bo'ladi.

Yog'-moy korxonalari ishlab chiqarayotgan sovunlar 3 turga bo'linadi:

1) xo'jalik sovunlari, turli mato va buyumlarni yuvish uchun; 2) atir sovunlari, asosan, yuvinish uchun; 3) sanoat extiyoji uchun va maxsus sovunlar. Xo'jalik sovunlari tarkibida 60, 72 %, atir sovunda 73-80 % yog' kislotalari bo'ladi.

Hozirgi vaqtda yog'-moy korxonalarida asosan xo'jalik va atir sovun ishlab chiqariladi. Kam hollarda kukunsimon, pastasimon va suyuq sovunlar ishlab chiqariladi.

### **Qattiq sovun ishlab chiqarish 2 etapdan iborat:**

1. Sovunning kontsentrlangan massasini tayyorlash (sovunli yelim, atir sovun uchun asos).
2. Massaga tovar formasini berish (mexanik ishlov).

Moylarni qayta ishlash sanoati atir, uy-ro'zg'or va maxsus sovunlarni bo'laksimon, poroshoksimon, pastasimon va suyuq ko'rinishlarda ishlab chiqaradi. Sovun ishlab chiqarish xomashyosi bo'lib o'simlik, hayvon yog'i va moylari, shuningdek soapstok, o'simlik moylaridan olinadigan texnik salomaslar xizmat qiladi. Sovunni sifat ko'rsatkichlarini amaldagi davlat me'yoriy hujjatlaridagi ko'rsatkichlarga to'g'ri kelishini tekshirish uchun ular analiz qilinadi. Sovunni analiz qilish uchun birinchi navbatda sovun bo'laklaridan namuna tayyorlanadi. Analiz qilishga olingan sovun namunasi quyidagicha tayyorlanadi:

Analizga mo'ljallangan sovun bo'lagi 0,1 g aniqlikda tortiladi va sovun bo'lagining o'rtacha og'irligi aniqlanadi.

Analizga olingansovun bo’lagi bo’yi, eni, kengligi bo’yicha bir xil bo’lgan 8 ta teng bo’laklarga bo’linadi va 8 ta bo’lakdan diagonal bo’yicha 2 ta nusxa olinib, qirg’ich yoki pichoq yordamida maydalanadi. Maydalangansovun qirindisi tezda qopqoqli bankaga solinadi. O’rtacha na’muna olish uchun bankadagisovun qirindilarini toza bir yuzaga to’kilib, tezda kurakcha yordamida yaxshilab aralashtiriladi va analizga namuna olinadi.

Olingan namunasovundagi yog’ kislotalari miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi.

***Ishning maqsadi:*** Sovundagi yog’ kislotalarini miqdorini laboratoriya sharoitida aniqlash va bu ko’rsatkichlarni me’yoriy hujjatlardagi ko’rsatkichlar bilan taqqoslash.

#### **4.1. Sovundagi yog’ kislotalarini massa ulushini aniqlash**

Yog’ kislotalariningsovun tarkibidagi foizdagimassa ulushi bilan ularnisovun, bo’lagidagi miqdori (sifat soni grammida, S.s.) farqlanadi.

Birinchi ko’rsatkich –sovun ishlab chiqarishda oraliq va tayyor mahsulotlar tayyorlik darajasini aniqlash uchun ikkinchi ko’rsatkich esa mahsulotni to’liq tovar qiymatini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish amaliyotida yog’ kislotalarni massa ulushini aniqlashda standart tezlashtirilgan va maxsus usullardan foydalaniladi.

##### **4.1.1. Standart usul**

Bu usul tayyor maxsulotni analiz qilish uchun qo’llaniladi.

***Usul printsipi:*** Usulsovunni suvli eritmasini mineral kislota bilan parchalash, ajralgan yog’ kislotalarni vasovunlanmaydigan moddalarni dietil efir bilan ekstraktsiyalash, kislotalarni ishqoriy metall gidroksidi bilan titrlash, efirni va spirtni haydash va qoldiqni doimiy og’irlikkacha quritishga asoslangan.

***Reaktiv va materiallar:*** Sovun namunasi, metiloranj, HCl yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ni 20 % li eritmasi, dietil efiri, NaCl ni 10 % li eritmasi, suvsiz natriy sul’fat, neytrallangan etil spiriti, natriy gidroksidni 0,5 n. li spirtli eritmasi, fenolftalein, 250 ml. li konussimon kolba, 500 ml. li ajratgich voronkalar, suvli hammom.

***Ishning bajarilishi:*** Kolbagasojunamunasidan 5 g. atrofida 0,001 g. aniqlikda tortib olinadi va 60 ml. qaynaguncha isitilgan distillangan suvda eritiladi.

Eritma 35-40°S gacha sovitiladi, 1-ajratgich voronkaga o’tkaziladi va 5 tomchi metiloranj va 20 % li NS1 yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> yo’qolmaydigan pushti rang hosil bo’lguncha quyiladi. Voronka ichidagi aylanma harakatda aralashtiriladi va sovigandan so’ng 50 ml. dietil efiri qo’yiladi.

Sovun eritilgan kolba 2 marta distillangan suv (25 ml.) bilan, bir marta 20 % li NS1 yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasi (5 ml.) bilan va dietil efir (25 ml.) bilan chayiladi.

Suv, kislota va efirlarni 1-ajratgich voronkaga quyiladi.

Voronka ichidagi asta-sekin aralashtirilib (aylanma harakat yordamida) nordon suvli qatlam ozgina tindiriladi, so’ng 2-ajratgich voronkaga quyiladi, unda 30 ml. dietil efiri bilan qayta ishlanadi. Ajratgich 2-voronkada ajralgan suvli qatlamda tindirilgan 3-ajratgich voronkaga o’tkaziladi, efirli ekstrakt esa 2-voronkadan 1-voronkaga o’tkaziladi.

3-voronkadagi suvli qatlamni 3 marta 25 ml. dan dietil efirida ekstraktsiyalanadi, tingen suvli qatlam tashlab yuboriladi va efirli ekstrakt 1-voronkaga o’tkaziladi.

Ajratgich 2-voronka efir bilan chayiladi va 1-voronkaga quyiladi. Yog’ kislotalarni efirli ekstraktlari 1-voronkada 3 marta, 10 % li natriy xlor eritmasi bilan har yuvishda 30 ml. dan olib, metiloranj bo’yicha neytral reaktsiyagacha yuviladi. So’ng, efirli ekstraktlar ustiga 5 g. suvsiz natriy sul’fat solingan qog’ozli fil’tr orqali tortilgan kolbagafil’trlanadi.

1-voronka, fil'tr va cho'kma efir bilan yuviladi. Efir ekstraktdan past haroratda qizdirish yordamida haydaladi va cho'kma 0,5 n. natriy gidroksid eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida neytrallangan 35-40 ml. spirtda eritiladi. Yog' kislotalarni spirtli eritmasi 0,5 n. natriy gidroksid eritmasi bilan 2-3 tomchi fenolftalein qo'shib titrlanadi va spirt qaynayotgan hammomda haydaladi. Kolbani quritish shkafiga qo'yib 120°S da doimiy og'irlikkacha quritiladi.

Birinchi tortishni 2 soatdan so'ng, keyingilarini har 1 soatda amalgalash oshiriladi. Tortish 0,0002 g. aniqlikda bajariladi. 2ta tortishlar orasidagi farq 0,002 g. dan oshmasa quritish tugallangan hisoblanadi.

Yog' kislotalarni massa ulushi YoK (% da) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Yo.K. = (m_1 - VK_0,022/2) 100/m = (m_1 - VK_0,011)100/m;$$

bu yerda:  $m_1$  – quritishdan keyingi qoldiq massasi, g.; V – yog' kislotalar eritmasini titrlashga sarflangan NaOH ni 0,5 n.li spirtli eritmasi hajmi, ml; K – 0,5 n.li NaOH ni spirtli eritmasi titriga tuzatma; 0,022/2 – 1 ml. 0,5 n.li NaOH ni spirtli eritmasiga ekvivalent bo'lgan natriying atom massasi bilan vodorodni orasidagi farq; m – sovun namunasi massasi, g.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq 0,3 % dan oshmasligi kerak. Sovunni sifat soni S.s. quyidagicha topiladi:

$$S.s. = Yo.K. m_2/100$$

**bu yerda:** Yo.K. – yog' kislota miqdori, %;  $m_2$  – sovun bo'lagini o'rtacha massasi, g; yog' kislotalarini sovun bo'lagini nominal og'irligiga nisbatan miqdori (% da) hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$Yo.K. = m_2 YO.K./m_0$$

bu yerda:  $m_2$  – sovun bo'lagini o'rtacha massasi, g.; Yo.K.–yog' kislota massa ulushi, %;  $m_0$  – sovun bo'lagini nominal og'irligi.

#### 4.1.2. Tezlashtirilgan hajmiy usul

**Usul printsipi:** Bu usul sovunni suvli eritmasini mineral kislota bilan parchalash, ajralgan yog' kislotalar va sovunlanmaydigan moddalarni dietil efiri bilan ekstraktsiyalash hamda yog' kislotalarni titrlashga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi,  $H_2SO_4$  ni 20 %-li eritmasi, dietil efiri, NaCl ni to'yingan eritmasi, metiloranj, 96 %-li etil spirti, 0,5 n.li natriy gidroksid eritmasi, fenolftalein, 250 ml. li konussimon kolba, suvli hammom, 500 ml. li ajratgich voronka.

**Ishning bajarilishi:** Kolbaga sovun namunasidan 5 g. atrofida 0,01 g. aniqlikda tortib olinadi va qaynoq suvda eritiladi,  $H_2SO_4$  bilan metiloranj bo'yicha parchalanadi. Eritish va parchalash qaynayotgan suvli hammomda bajariladi. Aralashma sovutilib, ajratgich voronkaga o'tkaziladi. Kolbani (30 ml.) dietil efiri bilan chayiladi va voronkaga quyiladi. Aralashma efir bilan yaxshilab aralashtiriladi va 2 min. davomida tindiriladi. Nordon suvli qatlam to'kiladi, efirli qatlam esa to'yingan NaCl eritmasi bilan metiloranj bo'yicha neytral reaktsiyagacha yuviladi. Efirli ekstrakt kolbaga quyiladi va yarim yok 1/3 qism efir 20-30 ml. spirt bilan ajratish voronkasini chayqab, ekstraktli kolbaga quyiladi.

Kislotalarni spirt-efirli eritmasi NaOH ni 0,5 n.li eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida, hosil bo'lgan pushti rang bir 1 min. davomida yo'qolmay qolguncha titrlanadi.

Yog' kislotalarni sovundagi massa ulushi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Yo.k. = VK 0,02 M_{o'r} 100/(40 m) = 0,05 VKM_{o'r}/m,$$

bu yerda: V - yog' kislotalarni titrlash uchun sarf bo'lган 0,5 n.li NaOH eritmasini hajmi, ml; K – 0,5 n.li NaOH eritmasi titriga tuzatma; M<sub>o·r</sub> – yog' kislotalarining o'rtacha molekulyar og'irligi; m – sovun namunasining og'irligi, g.

#### **4.1.3. Dietil efirli tezlashtirilgan tortish usul**

**Usul printsipi:** Bu usul sovunni suvli eritmada mineral kislota bilan parchalashga, ajralgan yog' kislotalari, sovunlanmaydigan moddalarni dietil efir bilan ekstraktsiyalashga, efirni haydashga va qoldiqni doimiy og'irlikkacha quritishga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi, 20-25 %-li NS1 eritmasi, metiloranj, dietil efiri, 250 ml. li konussimon kolba, 500 ml. li ajratgich voronka, rezina puflagich.

**Ishning bajarilishi:** Sovun namunasi 5 g. atrofida 0,01 g. aniqlikda tortiladi, qaynoq suvda eritiladi va 20-25 %-li NS1 eritmasi bilan metiloranj ishtirokida yog' kislotalari to'liq ajralib chiqquncha (yog'li va suvli qatlamlar tiniq bo'ladi) parchalanadi. 20-25°S gacha sovitilgandan so'ng kolba ichidagi ajratgich voronkaga o'tkaziladi, dietil efir bilan kolba chayqaladi va voronkaga quyladi. Unga 50-70 ml. efir qo'shiladi, aralashtirilib, 3-4 min. tindiriladi. Nordon suvli qatlam to'kiladi, efir qatlami 1-2 min. tindiriladi va yana suv qatlami hosil bo'lsa, uni to'kiladi. Efirli ekstraktini tortilgan kolbaga o'tkaziladi, unga nordon suvli qatlam tomchilari tushmasligi kerak. Voronka 2 marta toza efirda yuviladi va shu kolbaga quyladi. Ekstraktlardan efir haydaladi. Qolgan yog' kislotalari 70°S haroratda, har 3-5 min. kolbaga rezina puflagich yordamida havo kiritilib, doimiy og'irlikgacha quritiladi, bunda har 10-15 min. dan so'ng tortiladi.

Yog' kislotalarningsovundagi massa ulushi Yo.K. (%) da quyidagicha hisoblanadi:

$$Yo.K. = m_1 \cdot 100/m,$$


bu yerda :  $m_1$  va  $m$  – ajralib chiqqan yog' kislotalarining va sovun namunasi massasi, g.

#### **4.1.4. Yuqori chastotali titrlash usuli**


Bu usul sovun tarkibidagi yog' kislotalari bilan bir qatorda sovunning efirda eruvchi komponentlarini (sovunlanmagan yog', nordon sovun, sovunlanmaydigan moddalar, al'degid, keton, uglevodorod va b.)ni aniqlash imkonini beradi.

**Usul printsipi:** Bu usul mineral kislotaning erkin natriy gidroksid, natriy karbonat va bikarbonatni neytrallashga sarflanishini va sovunni parchalashga ketgan mineral kislota sarfini molekulyar massasi bo'yicha yog' kislotalariga nisbatan hisoblangan miqdorini titrometrik aniqlashga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi, 0,1 n. xlорид kislotasining suvli eritmasi, 100 ml. li yassi tubli kolba, suv hammomi, 200 ml. li o'lchash kolbasi, 20 ml. li pipetka, yuqori chastotali titrlash asbobi.



**4-rasm.** Yuqori chastotali titrlash asbobi.



**5-rasm.** Sovunni yuqori chastotali titrlash egri chizig'i.

**Ishning bajarilishi:** Sovun namunasi 2,0-2,5 g. miqdorda 0,0002 g. aniqlikda tortilib kolbaga solinadi, suv hammomida isitilib 30 ml. suv qo'shiladi va aralashtiribsovun eritiladi. Eritma 200 ml. li o'lchash kolbasiga olib o'tiladi, belgisigacha suv qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

Pipetka bilan 20 ml. eritma olinadi, u ostsillo titrator stakaniga solinadi va yuqori chastotali titrlash asbobining yacheykasiga o'rnatiladi. Stakanga, eritma sathi yuqori doirasimon elektroddan 5 mm. ga baland bo'lguncha suv quyiladi.

Eritmani titrlash uchun 0,1 n.li NCI ning suvli eritmasidan foydalaniladi va asbob ko'rsatkichlari byuretkadan

har 0,5 ml. kislota qo'shilganda yozib boriladi. Olingan natijalar asosida titrlashni egri chiziqlari (...rasm) chiziladi va ishqorni neytrallash uchun  $V_1$  sovunni parchalash va ishqorni neytrallash uchun  $V_2$  kislota sarfi alohida-alohida aniqlanadi.

Yog' kislotalarni massa ulushi (olein kislotasi % da) quyidagicha aniqlanadi:

$$Yo.K. = 0,0282 (V_2 - V_1)K \cdot 10 \cdot 100/m = 28,2 (V_2 - V_1)k/m,$$

bu yerda: 0,0282 – olein kislota bo'yicha 0,1 n.li NS1 kislotasi eritmasini titri, g/ml; K – kislota titriga tuzatma; 10 – analiz qilinayotgan sovunni 200 ml. eritmasidan analiz uchun 20 ml. olinganini ifodalovchi koeffitsent; m – sovun namunasini massasi, g.

Parallel aniqlashlar o'rtasidagi farq 0,6 % dan oshmasligi kerak.

#### 4.1.5. Soddalashtirilgan usul

**Usul printsipi:** Usul sovunni suvli eritmada mineral kislota bilan parchalashga, ajralgan yog' kislotalarini dietil efiri bilan ekstraktsiyalashga, efirni haydab, qoldiqni doimiy og'irlikkacha quritishga asoslangan.

**Reaktiv va materiallar:** Sovun namunasi, 20%-li sul'fat kislotasi, dietil efiri, distillangan suv, suvsiz natriy sul'fat, 250 ml. hajmdagi konussimon kolba, suv hammomi, elektroplitka, ajratgich voronka, quritish shkafi.

**Ishning bajarilishi:** Tayyorlangan sovun namunasidan kolbaga 3-5 g. tortib olinib, 60 ml. qaynash darajasigacha isitilgan distillangan suvda eritiladi. Keyin kolbadagi eritma 35-40 °Sgacha sovitilib, 20%-li sul'fat kislotasi quyib, metiloranj ishtirokida aralashtiriladi. Sul'fat kislotasini qo'shish jarayoni to'q qizil rang hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Kolba ichidagi ajralib chiqqan yog' kislotalarini suv hammomida isitiladi. Qizdirish

jarayoni to yog' kislotalari qatlami tiniqlashguncha davom ettiriladi. Kolbadagi yog' kislotalari tiniq holatga o'tgandan keyin, sovitilib, uni ichiga 25 ml. etil efiri quyiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Kolbadagi aralashmani ajratgich voronkaga quyiladi. Ajratgich voronkasiga quyilgandan keyin 2 ta qatlam hosil bo'lismeni kutiladi. Suv qatlami pastga cho'kadi, efir va yog' kislotalarining aralashmasi yuqoriga chiqadi. Pastgi suv qatlami, sovunni sul'fat kislotosi bilan parchalash jarayoni olib borilgan kolbaga quyiladi efir qatlami toza, quruq kolbaga quyiladi. Suv qatlamidan yog' kislotalarini ajratib olish jarayoni yana 2 marta davom ettiriladi, yog' kislotalari va efir aralashmasi alohida kolbaga yig'ilib yuvish uchun ajratgich voronkaga solinadi. Barcha efir va yog' kislotalari aralashmasi distillangan suv bilan neytral reaktsiyagacha yuviladi. Har bir yuvishga 15-20 ml. dan distillangan suv olinadi. Efir aralashmasi neytral reaktsiyagacha yuvilgandan keyin quruq kolbaga quyilib, uning ustiga 5 g. suvsiz natriy sul'fat solinadi va aralashtiriladi. Bundan maqsad efir aralashmasini suv yuqlaridan mustasno qilishdan iborat. Suvdan tozalangan efir aralashmasini quruq, tortilgan sayqallangan kolbaga quyilib, efini, haydash qurilmasi yordamida uchirib yuboriladi. Keyin kolbadagi qolgan yog' kislotalarini 70 °S da quritish shkafida quriladi. Quritish jarayonida namuna dastlab 1 soat, keyin har 15 min. qizdirilgandan keyin sovitilib tortiladi. Quritish har bir 15 minutdan keyingi og'irliliklar farqi 0,005 g. dan kam bo'luncha davom ettiriladi.

Yog' kislotalarining massa ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi (%):

$$X = m_1 \cdot 100/m$$

bu yerda:  $m_1$ - quritilagandan keyin kolbada qolgan qoldiq, g.;  $m$ - analizga olingan sovun miqdori, g.

Sovunning sifat soni esa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$S.s. = X \cdot m_2 / 100:$$

bu yerda  $X$ -yog' kislotalarining miqdori, %;  $m_2$ -sovun bo'lagining o'rtacha og'irligi, g.

Demak, sifat soni deb, 1 dona sovun bo'lagi tarkibidagi yog' kislotalarining miqdoriga aytildi, u esa 74 yoki 78 ga teng bo'lishi kerak, agar bir dona sovun bo'lagining og'irligi 100 g. va uning tarkibidagi yog' kislotalari 80 % bo'lsa, boshqacha aytganda 80% atir sovunining sifat soni 78 g. ga tengdir.

I L O V A  
1-ilova

Paxta chigitining fizik-kimyoiy ko'rsatkichlari (O'zRST 596-93)

CHigit navi	Nuqsonli chigitning massa ulushi, %, ortiq emas	Namlikning massa ulushi, %, ortiq emas	Tukdorlikning massa ulushi, %	
			o'rta tolali paxta navlari	Ingichka tolali paxta navlari
I	1,5	10	5,0-10,5	2,0-6,5
II	3,0	11	6,0-10,5	3,0-7,5
III	11,0	12	7,0-11,0	4,0-8,5
IV	33,0	13	8,0-13,0	4,5-9,0

4-ilova

Paxta chigit shelixasining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari  
(O'z TSH 10-105-97)

Ko'rsatkichlar	Me'yor
Rangi	Ko'kimdir rangdan jigarranggacha
Hidi	Begona hidsiz, qo'lansa hidsiz, chigit shulxasiga xos hid
Mineral aralashmalar (tosh, tuproq va boshqalar)ning massa ulushi, % ortiq emas	0,2
Metall aralashmalarning massa ulushi, %, ortiq emas: - o'lchami 2mm gacha bo'lgan va 2mm o'lchamdagи zarrachalar; - o'lchami 2mm dan katta o'tkir qirrali zarrachalar;	0,1 Ruxsat etilmaydi
Mutloq quruq moddaga qayta hisoblangan erkin gossipolning massa ulushi, % ortiq emas	0,2
Xlor organik pestitsidlar, mg/kg, ortiq emas SHu jumladan: Geksaxloran (izomerlar yig'indisi) DDT (izomerlar va metabolitlar) yig'indisi	0,2 0,05

**Kungaboqar moyining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari.**

1-Jadval

Ko'rsatkichlar	M O Y							
	Rafinatsiyalan-gan		Gidratatsiyalangan			Rafinatsiyalanmagan		
dezodor atsiya langan	Dezodo ratsiya-lan magan	Oliy nav	1 nav	11 nav	Oliy na	1 nav	11 nav	
Rang soni, mg yodda, ≤	10	12	15	20	30	15	25	35
Kislota soni, mg KON, ≤	0,4	0,4	1,5	2,25	6,0	1,5	2,25	6,0
Yog' bo'limgan aralashmalar (cho'kma, massa bo'yicha), %, ≤	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	0,05	0,10	0,20
Fosfori bor moddalar, %, ≤ Stearooleo-letsitin bo'yicha hisoblanganda R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> bo'yicha hisoblanganda	—	—	0,10	0,20	0,25	0,40	0,60	0,80
Namlik va uchuvchan moddalar, % ≤	0,10	0,10	0,10	0,15	0,30	0,20	0,20	0,30

Sovun (sifat analizi)	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Aniqlanmaydi		
Yod soni, g J <sub>2</sub> 100 g da	125- 145	125- 145	125- 145	125- 145	125- 145	125- 145	125- 145	125- 145
Sovunlanmaydi gan moddalar, %, ≤	1,0	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,3
Ekstraktsiya moyining chaqnash harorati, °C, ≥	234	225	225	225	225	225	225	225

**Rafinatsiyalanmagan paxta moyining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

**TU.Uz 86-7-98**

2- Jadval

Ko'rsatkichlar	Moyni navi		
	Oliy	I	II
Hidi	chet hidlarsiz faqat rafinatsiyalanmagan paxta moyiga xos hid.		
1 sm qalinlikdagi qatlamda, qizil birlikda, 35 sariq, ≤	16	60	Me'yorlan Maydi
Kislota soni, mg KON 1 g da, ≤	4	6	12
Yog' bo'limgan aralashmalar (cho'kma og'irlik bo'yicha) %, ≤	0,1	0,2	0,3
Namlik va uchuvchan moddalar, %, ≤	0,2	0,2	0,3
Ekstraktsiya moyining chaqnash harorati, °C, ≥	225	225	225
Yod soni, g J <sub>2</sub> 100 g yog'da.	101 – 116		
Sovunlanmaydigan moddalar, %, ≤	1,5	1,5	1,5

**Rafinatsiyalangan paxta moyini fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

**RST Uz 816 – 98**

3-jadval

Ko'rsatkichlar	Moy				
	Dezodoratsiyalangan		Dezodoratsiyalanmagan		
	davlat standart belgisi bo'lgan oliy nav	1 nav	oliy nav	1 nav	2 nav
Tiniqligi	Tiniq				
Hidi va ta'mi	Hidsiz ta'mi hidsizlan tirilgan moyga xos.			CHet hidlarsiz, rafinatsiyalangan paxta moyi hidi. Ta'msiz.	
				Aniqlanmay di.	

Ranggi qizil birlikda, ≤ 35 – sariqda 35 – 79,9 sariqda	7 --	10 --	7 --	10 ---	--- 16
Kislota soni, mg KON 1g da, ≤	0,2	0,2	0,2	0,3	0,5
Namlik va uchuvchan moddalar, %, ≤.	0,1	0,1	0,1	0,2	0,2
Yog' bo'lмаган моддалар ( cho'kma, og'ирлик bo'yicha) %, ≤	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	0,05
Sovun (sifat analizi)	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
Yod soni, g J <sub>2</sub> 100 g da	101-116	101-116	101-116	101-116	101- 116
Sovunlanmaydigan moddalar, %, ≤	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
Ekstraktsiya moyining chaqnash harorati, °C, ≥	234	232	232	232	232
Perekis soni, mg-ev. Kg yog'ga ketadigan O <sub>2</sub> , ≤	10	10	10	10	Aniq- lanmay di.
Ekstraktsiya moyining tarkibidagi erituvchi benzinni aniqlash, sifat analizi	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q

**Rafinatsiyalanmagan soya moyining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**

**TU Uz 10-111-97**

4 - jadval

Ko'rsatkichlar	Moy	
	1-nav	11-nav
Ta'm va hid	chet hid va ta'mlarsiz, soya moyining hidiga hos	chet hidlarsiz.
Rang soni, mg J <sub>2</sub> , ≤	70	Me'yorlanmaydi
Kislota soni, mg KON 1 g da, ≤	2,0	4,0
Fosfor bor moddalar, %, ≤ stearooleletsitin bo'yicha hisoblanganda.	6,0	6,0
R <sub>2</sub> O <sub>5</sub> bo'yicha hisoblanganda.	0,54	0,54
Namlik va uchuvchan moddalar, %, ≤	0,3	0,3
Yog' bo'lмаган aralashmalar (cho'kma og'irlilik bo'yicha) %, ≤	0,1	0,1
Yod soni, g J <sub>2</sub> 100 g da	120-140	120-140
Sovunlanmaydigan moddalar, %, ≤	1,0	1,0
Ekstraktsiya moyining chaqnash harorati, °C, ≥	225	225

**Rafinatsiyalangan soya moyining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari**  
**GOST 7825-96**  
**5 - jadval**

Ko'rsatkichlar	Moy			
	dezodaratsiya langan	Oqlanmagan	Gidrotatsiyalangan	
			1 - nav	11 - nav
Tiniqlik	Tiniq		tiniq	ozgina hiralikka ruhsat qilinadi
Hidi va ta'mi	Hidsiz, hidsizlanti- rilgan moy ta'mi.		chet hid va ta'mlarsiz gidratatsiyalangan moy hidiga va ta'miga xos.	
Rang soni, mg J <sub>2</sub> , ≤	12	45	50	70
Kislota soni, mg KON 1 g da, ≤	0,3	0,3	1,0	1,5
Namlik va uchuvchan moddalar %, ≤	0,1	0,15	0,15	0,2
Yog' bo'lмаган moddalar	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q

(cho'kma og'irlilik bo'yicha),%				
Fosfori bor moddalar, % ≤ stearooleoletsitin bo'yicha hisoblanganda.	0,05	0,05	0,2	0,3
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> bo'yicha hisoblanganda.	0,004	0,004	0,018	0,026
Sovun (sifat analizi)	Yo'q	---	---	---
Yod soni, g J <sub>2</sub> 100 g da	120-140		120-140	120-140
Sovunlanmaydigan moddalar, % ≤	0,8		1,0	1,0
Ekstraktsiya moyining chaqnash harorati, °C ≥	240	225	225	225
Perekis soni M mol'/kg, 1/20, ≤	10,0	10,0	10,0	---

## MUNDARIJA

Kirish.....	
Texnika havsizligi.....	
1. - Laboratoriya ishi Paxta chigitidagi momiq miqdorini aniqlash.....	
2. - Laboratoriya ishi SHeluxadagi moy miqdorini aniqlash.....	
3. – Laboratoriya ishi Ekstraktsion moyni chaqnash haroratini va cho’kma miqdorini aniqlash.....	
4. – Laboratoriya ishi Rafinatsiyalangan moyni kislota sonini aniqlash.....	
5. Adabiyotlar ro’yxati.....	
6. Ilova.....	

## ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. В.Г. Щербаков «Основы управления качеством продукции и технологической контроль жиров и жирозаменителей» М. Агропромздат 1985г.
2. «Руководство по методам исследования технохимическому контролю и учёту производство в МЖП» Л. ВНИЖ. 1982г. том У1, выпуск 3. 417ст.
3. В.М. Копейковский, А.К. Мосуан и др. «Лабораторный практикум по технологии производство растительных масел» М. 1990г.
4. Y. Qodirov «Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi laboratoriya mashg'ulotlari» Т. TTKI 2002y.
5. Y.Qodirov «O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi» fanidan laboratoriya ishlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent TTKI,

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«KIMYO TEXNOLOGIYA» FAKUL'TETI

«OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

# Технологик физик кимёвий назорат Технологик физик кимёвий назорат

FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARINI

## БАЖАРИШ УЧУН УСЛУБИЙ КҮРСАТМА

NAMANGAN 2020

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta ta'lif vazirligi tomonidan "**Texnologik fizik-kimyoviy nazorat**" fanidan \_\_\_\_\_ yilda tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlandi.

«Oziq ovqat texnologiyasi» kafedrasining 2020\_\_\_\_\_ yilda o'tkazilgan №\_\_\_\_\_  
yig'ilishida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

Institut ilmiy-uslubiy kengashining №\_\_\_\_\_  
yig'ilishi \_\_\_\_\_ yilda ko'rib chiqildi va chop  
etishga ruxsat berildi.

Tuzuvchilar:

PhD. D.O'ktamov

ass O'. Nishonov

Taqrizchi:

dots:L.Mamajonov(NamMQI)

## **Kirish**

Ushbu uslubiy ko'rsatma **5321000-Oziq-ovqat texnologiyasi (yog' moy mahsulotlari)** ta'lim yo'nalishi talabalar uchun mo'ljallangan. "Texnologik va fizik kimyoviy nazorat" fanidan amaliy mashg'ulotlar 14 soat rejalashtirilgan. Ushbu amaliy mashg'ulotlarni rejalar tuzilgan. Talabalar amaliy rejalar asosida tayyorlanib o'z nazariy bilimlarini chuqurlashtirishadi. Talaba amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda soxaga oid darslik va o'quv qo'llanmadan foydalanmay qo'shimcha materiallar, internet ma'lumotlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Talabarlar uchun amaliy mashg'ulot mavzulari bir xaftha oldin beriladi. Talaba amaliy mashg'ulotga nazariy tayyorgarlik ko'rgan xolda kelishi maqsadga muvofiq. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda innovatsion va ilg'or pedagogik texnologiyalar amaliy o'yinlardan foydalanib dars o'tish rejalashtirilgan. Amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish ularni fikrlash doirasini kengaytiradi va o'z mustaqil fikrini bayon etishni tarbiyalab soxaning yetuk mutaxassisi bo'lishlarida o'rni beqiyosdir.

## **1-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Mahsulotni analiz qilish uchun namunalar olish va ularni tahlil qilish usullari.**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga mahsulotni analiz qilish uchun namunalar olish va ularni tahlil qilish usullarini o'rgatish.

### **Umumi tushunchalar.**

**Mahsulot sifati darajasini oshirish.** Mahsulot sifatini me'yorlash darajasi ko'p vaqt o'zgarishsiz qolishi mumkin emas. Fan va texnika rivojlanishi bilan ishlab chiqarish o'sadi, yangi texnologiyalar joriy qilinadi. Mahsulotni kerakli hususiyatlarini ishlatish kengayadi. Uning sifatiga yangi talablar qo'yiladi. Halq xo'jaligida mahsulot sifatini oshishi, aholining shu mahsulotga bo'lган talabini qondiradigan yuqori darajali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iboratligi bilan aniqlanadi.

**Oziq – ovqat mahsuloti sifatini oshishi** bu sotsial - iqdisodiy masalalarni yechish orqali aholi ehtiyojini qondirishni yo'lga qo'yish demakdir. Bunda mehnatkashlarning bo'sh vaqtłari ko'payishi ro'y beradi. Mehnatkashlarni vaqtini tejalishida asosiy rolni mahsulotni qadoqlangan holda ishlab chiqarilishi, tez tayyorlanadigan tayyor mahsulot holda chiqarilishi va aholi uchun qulay qilib qadoqlanishini va ahamiyati kattadir. Bunday mahsulotga talab mehnatkashlarning salomatligini saqlash, ish unumini oshirish, vaqtini tejash imkonini yaratadi.

### **Nazorat savollari.**

1. Mahsulotni analiz qilish xaqida tushuncha.
2. Analiz qilish uchun namunalar olish.
3. Namunalarni tahlil qilish usullari
4. Na'muna olish tartib va meyorlari

## **2-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: O'simlik moylarini ishlab chiqarishni asosiy jarayonlarini nazorat qilish.**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga o'simlik moylarini ishlab chiqarishni asosiy jarayonlarini nazorat qilish haqida umumi tushuncha berish.

### **Umumi ma'lumot**

**Moyli urug'larni saqlashga tayyorlash va saqlashni nazorat qilish.** Yog'-moy sanoatida qayta ishlanayotgan barcha moyli urug'lar korxonalarga to'g'ridan-to'g'ri shirkat va fermer xo'jaliklaridan olib kelinadi. Paxta chigit esa yog' ishlab chiqarish korxonasiiga paxta tozalash korxonalaridan yetkazib beriladi. keltirilgan har bir urug' turkumi o'zining sifat ko'rsatkichlari namlik, nuqsondorlik, moylilik, paxta chigit esa tukdorlikka ega bo'ladi. bular urug' sifatini belgilaydi.

Qabul qilingan har bir urug' turkumidan olingan namunalar analiz qilinadi. Olingan laboratoriya analizi natijalari urug'likning sertifikatidagi ko'rsatgichdan farqli bo'lsa, xomashyo yuboruvchi va qabul qiluvchi tashkilot o'rtaida bu farq o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agar ikkala tomon bir fikrga kelisha olmasa, bu masala arbitraj orqali hal qilinadi.

Moy ishlab chiqaruvchi korxonalarga kelayotgan urug'lar turli namliligi va iflos aralashmalar miqdorining har xilligi bilan xarakterlanadi. Urug'lar yetishtirilgan hududda ob-havo sharoiti va turiga qarab namligi **6 dan 20,0%** gacha, iflos aralashmalar miqdori **1,5** dan **10,0%** gacha bo'ladi. Moyli urug'lardagi aralashmalar quyidagilarga bo'linadi: iflos aralashmalar (mineral va organik), moyli aralashmalar va metall aralashmalar. Mineral aralashmalarga tosh, qum, tuproq va b., organik aralashmalarga barg, o'simlik poyasi, qobiq, lat yegan (mag'izi qora rangli, buzilgan) urug'lar, boshqa yovvoyi va madaniy o'simliklarni urug'lari, puch urug'lar kiradi.

Quritish qoida bo'yicha kritik namlikdan **0,2÷0,5%** kam bo'lguncha olib boriladi. Urug'ning kritik namligi ( $V_{kr}$ ), uning moyliligiga bog'liq va u quyidagi formula bo'yicha aniqlaniladi.

$$V_{kr} = \frac{14,5}{100-M}$$

bu yerda: **M** – absolyut quruq modda hisobidagi urug'dagi moyning massa ulushi, % , **14,5** – urug'ning gel (moysiz) qismini kritik namligi, %

Urug'lar toza, quruq holatda, namligi kritik namlikdan **1-2%** kamroq bo'lsa, yaxshi holatda saqlanadi. Uzoq muddat saqlanadigan urug'larning namligi: kungaboqr – **6-8%**, paxta chigit – **9%**, soya – **12%**, raps – **8%** bo'lishi kerak. Urug'larni saqlashda doim harorat nazorat qilib turiladi.

#### Nazorat savollari:

- 1.Moyli xom-ashyonni tozalsh.**
- 2.Moyli urug'larni konditsiyalash.**
- 3.Presslash usuli bilan yog' olish.**
- 4.Ektsraksiya usuli bilan yog' olish.**
- 5.O'simlik yog'larini birlamchi tozalash.**
- 6.Rafinatsiya qilish usullari.**
- 7.Yog'larni oqlash.**
- 8.Yog'larni dezoratsiyalash.**

### **3-amaliy mashg'ulot**

#### **Mavzu: Urug'larni dastlabki moy olish uchun tayyorlash**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga moy olish uchun mo'ljallangan moyli urug'larni dastlabki moy olish uchun tayyorlash texnologiyasi bo'yicha ma'lumot berish.

#### **Umumiylumot**

**Tayyorlov jarayonlari. Tozalash,namlash, chaqish, mag'zini qobig'idan ajratish va mag'izni yanchish.** Yog'-ekstraktsiya korxonalarida moyli urug'larni qayta ishslash jarayoniga tayyorlov ishlari quyidagilardan iborat: **tortish, iflos aralashmalardan tozalash, namligiga ko'ra konditsiyalash, chaqish, mag'izni qobiqdan ajratish va mag'izni yanchish.**

Mana shu sxema bo'yicha asosiy xom ashyolar (**kungaboqar, paxta chigit, kanakunjut**) qayta ishlanadi. Mag'izni qobiqdan ajratishdan maqsad shuki, moyli urug'lar qobig'i olinayotgan yog'ning va shrotning, shuningdek asosiy uskunalarning unumdorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ba'zi bir moyli urug'lar (**masalan, zig'ir, raps**) **mag'zini qobiqdan ajratmasdan** qayta ishlanadi. Bu hol, bunday urug'larning tuzilishi va qobig'i mag'zidan ajralishining qiyinligi bilan tushuntiriladi.

Texnologik nuqtai nazardan moyli urug'lar ikki qismdan, **mag'iz va qobiqdan** iborat. Ba'zi moyli urug'larda (**paxta chigit, kanakunjut**) mag'iz ustida qobig'i bo'ladi, ayrim moyli urug'lar (**kungaboqar, yeryong'oq, soya**) da qobig'dan tashqari mag'iz ustida yupqa **urug' pardasi** ham bo'ladi. qaysi turdag'i urug'lik bo'lishidan qat'iy nazar barcha moyli urug'larning qobig'i **luzga** deb ataladi, paxta chigitining qobig'i esa **sheluxa** deb nomlanadi. qobig' va mag'izdagi moddalarning miqdori turlicha bo'lib, qobig'da asosan kletchatka yoki tsellyuloza ko'p bo'lib, oz miqdorda yuqori molekulali uglevodlar, mumsimon moddalar, oqsil va suv bo'ladi. qobig'da moyning miqdori juda kam bo'lib bu **botanik moylilik** deyiladi. Moy asosan urug' mag'izida bo'lib,

**paxta chigit mag'izida 34 - 38%,**

**kungaboqar mag'izida esa 60 - 65% ni tashkil qiladi.**

#### **Nazorat savollari.**

- 1. Yog' olinadigan xomashyolar**
- 2. Moyli xomashyolarni tozalash**
- 3. Moyli urug'larni konditsiyalash**

- 4. Urug'larni chaqish va qobig'ini mag'zidan ajratish.**
- 5. Urug'larni mag'zini maydalash**
- 6. Qovurma tayyorlash**

#### **4-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Gidrogenlash jarayonini nazorat qilish.**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga yog'larni gidrogenlash jarayonini ishlashi va bu jarayonni nazorat qilishni o'rgatish.

#### **Umumiy ma'lumot**

**Moylar gidrogenlash jarayoni bo'yicha umumiy tushuncha.** Margarin, konditer va kulinar yog'lari ishlab chiqarish uchun va sovun olish, stearin olish, texnik yog'lar olish uchun yuqori erish haroratiga ega bo'lgan qattiq yog'lar zaruryati tug'iladi. Bu yog'lar suyuq kungabooqar, paxta, soya, raps va boshqa moylarni yog' kislota tarkibidagi qo'shbog'larini vodorod bilan qisman yoki to'liq to'yintirish orqali olinadi.

Gidrogenlanganda yog'lar – salomaslar olish uchun asosiy xom ashyolar bo'lib, kungabooqar, paxta, soya (loviya) raps, pal'ma moylari va hayvon yog'lari xizmat qiladi.

Hozirgi gidrogenlash jarayonlarida katalizator sifatida nikel' – mis katalizatorlari, nikel' - qizil'gur katalizatorlari ishlatilmoqda. Hozirda yana turg'un katalizatorlar yordamida ham gidrogenlash yo'lga qo'yilgan.

Gidrogenlash jarayonida salomaslarning sifat ko'rsatkichlari hozirda amal qilinadigan standartlar bilan tekshiriladi.

Gidrogenlash jarayonidagi texno-kimyoviy nazoratning asosiy vazifasi katalizator va vodorodni sifatini baholash, texnologik ko'rsatkichlarni to'g'ri borishini nazorat qilish, ishlab chiqarilayotgan salomasni amaldagi texnikaviy shartlari va me'yoriy hujjatlarga mos kelishini aniqlashdan va ishlab chiqarishni chiqindilarini analiz qilishdan iborat.

#### **Nazorat savollar**

- 1.Katalizatorlar, ularning gidrogenlashdagi ahamiyat?**
- 2.Vodorod ishlab chiqarish?**
- 3.Gidrogenlash texnologiyasi?**
- 4.Gidrogenlash usullari?**
- 5.Gidrogenlash jarayonining texnologik rejimlari?**
- 6.Gidrogenlangan yog'larning sifat ko'rsatgichlari?**

## **5-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Margarin, konditer va kulinar yog'lari hamda mayonez ishlab chiqarish nazorati.**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga margarin, konditer va kulinar yog'lari hamda mayonez ishlab chiqarish nazorati bo'yicha amaliy bilimlarni o'rgatish.

### **Umumiy ma'lumot**

#### **Margarin, konditer va kulinar yog'lari to'g'risida umumiy tushunchalar.**

Margarin o'zida fizik – kimyoviy sistemani namoyon qiladi, asosiy komponentlardan biri bo'lgan – **suv (disperss faza)**, ikkinchi komponent – **yog'da (dispersion muhit)** mayda tomchi shaklida tarqaladi va «**Suv- yog'**» **emul'siyali** ko'rinishida bo'ladi. Margarin tarkibiga yuqori sifatli yog'lar, sut, tuz, shakar, emul'gatorlar, rang beruvchi moddalar, ta'm beruvchi moddalar, vitaminlar va boshqa komponentlar kiradi.

**Margarinning yog'li qismiga** rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan o'simlik moylari, hayvon yog'lari, oziq-ovqat salomasi va yana pereeterifikatsiyalangan yog'lar kiradi.

**Margaringa qaymoqdek ta'm berish** uchun, unga tabiiy yoki ivitilgan (qatiq) sut qo'shiladi. SHu maqsadda unga aromatizatorlar qo'shiladi, «**suv-yog'**» **emul'siyasini** hosil qilishi uchun emul'gatorlardan foydalilanildi.

**Margaringa qaymoq rangini** berish uchun oziq-ovqat rang beruvchi moddalar, mazaliroq bo'lishi uchun tuz va shakar qo'shiladi. Bundan tashqari, tuz margarinni uzoq saqlash uchun mustaxkamligini oshiradi.

Sanoatda margarindan tashqari yana **qandolat va kulinariya yog'lari, oziq-ovqat kontsentratlari uchun yog'lar, non - bulochka mahsulotlari, hamda mayonezlar ishlab chiqariladi.**

**Mayonezlar** tashqi ko'rinishi konsistentsiyasidan **smetanani** eslatuvchi suvdagi dezodoratsiyalangan o'simlik moyining yuqori disperss emul'siyasini namoyon qiladi.

**Kulinariya va qandolat yog'lari**, oziq-ovqat kontsentratlari uchun yog'lar va non-bulochka mahsulotlari margarindan suvsizligi bilan farqlanib turadi. Ularni tayyorlash uchun rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan yog' va moy va ulardan hosil qilingan salomaslar yoki gidratlangan yog' bilan hosil bo'lgan yog'lar aralashmasi va o'simlik moylaridan foydalilanildi.

### **Nazorat savollari:**

- 1. Margarin mahsuloti assortimenti?**
- 2. Margarin ishlab chiqarish uchun xomashyo?**
- 3. Emulsiya haqida tushuncha?**
- 4. Yog'li faza retsepturasini tuzish?**
- 5. Suv sutli faza retsepturasini tuzish?**
- 6. Retseptura komponentlarini tayyorlash?**
- 7. Margarin ishlab chiqarish texnologiyasi?**
- 8. Qandolatchilik, oshpazlik va nonvoylik yog'lari ishlab chiqarish?**
- 9. Mayonez ishlab chiqarish?**
- 10. Mayonez retsepturasi?**

### **6-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish.**

**Mashg'uoldan maqsad:** Talabalarga glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish to'g'risida umumiy ma'lumot berish.

### **Umumiy ma'lumot**

**Glitserinni olish usullari.** Yog' va moylarning asosiy komponenti bo'lgan triglitserinlarning gidrolizida – glitserin va yog' kislotalari olish texnologik opreratsiyalari parchalanish deyiladi. Glitserin va yog' kislotalari olish xom ashyosi bo'lib tabiiy gidratlangan yog' kislotalari hamda xayvon moylari xizmat qiladi. Bu yog'lar reaktivsiz parchalanadi. Bundan tashqari trigletserinlar gidrolizining komponentli usuli ma'lum, bu usul gidrolizning tezlashtirish (Petrov komponent usuli) va gidrolizning ishqorlar yordamida sovunlanishiga asoslangan.

I–navli texnik glitserin reaktivsiz usulda glitserinli suvlardan olinadi.

II – nav kontaktli glitserin usulida va III – nav esa ishqorlar bilan sovunlash (yog' va moylarni rafinatsiya qilishda hosil bo'ladigan soapstoklardan) usulida olinadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Yog'larni gidrolizi?**

**2.Texnik glitserin olish?**

**3. Distillangan glitserin olish?**

**4.Distillangan yog' kislotalari ishlab chiqarish?**

## **7-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: Sovun ishlab chiqarishni nazorat qilish.**

**Mashg'ulotdan maqsad:** Talabalarga sovun ishlab chiqarishni nazorat qilish to'g'risida umumiy bilimlar berish.

### **Umumiy ma'lumot**

**Sovun ishlab chiqarish va uning nazorati.** Moylarni qayta ishslash sanoati atir sovun xo'jalik uy-ro'zg'or va maxsus sovunlarni bo'laksimon, kukunsimon, pastasimon va suyuq ko'rinishlarda ishlab chiqaradi. Sovun ishlab chiqarish xomashyosi bo'lib o'simlik, hayvon yog'i va moylari, shuningdek ulardan olinadigan salomaslar xizmat qiladi. Odatda moyli xomashyo tarkibiga kiruvchi trigletserinlar parchalanib, ya'ni erkin yog' kislotalariga gidrolizlanib ishqorlar bilan reaktsiyaga kirishadi va yog' kislotalari tuzlarining sovunlarini beradi. Oziq - ovqat moylarining texnik talablarga sarflarini kamaytirish maqsadida sovun ishlab chiqarish uchun hayvonlarning texnik yoglari, salomaslari sintetik yog' kislotalari, kanifollar, tall va naften kislotalari, salomas ishlab chiqarishda xosil bo'ladigan yog' kislotalari va uchuvchan moddalar ishlatila boshladi.

Sovun ishlab chiqarishning texnologik jarayoni ikki asosiy operatsiyadan tashkil topgan: **ishqor ta'sirida yog' kislotalarining tuzlarini xosil qilish** (sovunli asos tayyorlash) va **sovunli asosni qayta ishslash**, ya'ni unga tovar ko'rinishini berish (**sxema**).

### **Nazorat savollari:**

- 1. Sovunning fizik-kimyoviy xossalari?**
- 2. Sovunni yuvish xususiyati?**
- 3. Sovunni ishlab chiqarish uchun xomashyolar?**
- 4. Retseptura tuzish?**
- 5. Xo'jalik va atir sovunlarning asosini tayyorlash?**
- 6. Sovun asosiga mexanik ishlov berish?**

## Mundarija:

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>1-amaliy mashg'ulot:</b> Mahsulotni analiz qilish uchun namunalar olish va ularning tahlil qilish usullari.....	4
<b>2-amaliy mashg'ulot:</b> O'simlik moylarini ishlab chiqarishni asosiy jarayonlarini nazorat qilish.....	6
<b>3-amaliy mashg'ulot:</b> Urug'larni dastlabki moy olish uchun tayyorlash.....	6
<b>4-amaliy mashg'ulot:</b> Gidrogenlash jarayonini nazorat qilish.....	7
<b>5-amaliy mashg'ulot:</b> Margarin, konditer va kulinar yog'lari hamda mayonez ishlab chiqarish nazorati.....	9
<b>6-amaliy mashg'ulot:</b> Glitserin va yog' kislotalari ishlab chiqarishni nazorat qilish.....	10
<b>7-amaliy mashg'ulot:</b> Sovun ishlab chiqarishni nazorat qilish.....	11

## Foydalanimizga yordam beradigan adabiyotlar

1. V.G. Щербаков «Osnovy upravleniya kachestvom produktsii i texnochimicheskij kontrol' jirov i jirozameniteley» M.: Agropromizdat, 1985g. –216s.
2. Qodirov Y., Otayorov J. «Texnologik va fizik-kimyoviy nazorat» fanidan ma'ruza matnlari T. 2000y
3. Ibragimova M., Qodirov Y., Otayorov J. «Texnologik va fizik-kimyoviy nazorat» fanidan ma'ruza matnlari T. 2005y
4. Kopeykovskiy V.M., Mosyan A. i dr. «Laboratornyy praktikum po texnologii proizvodstva rastitel'nyx masel». M. 1990. 192s.
5. Arutyunyan N.S. «Texnologiya pererabotki jirov». –M. Rishepromizdat 1999g. –350C.
6. «Rukovodstvo po metodam issledovaniya, texnicheskemu kontrolyu i uchetu proizvodstva v maslojirovoy promyshlennosti» (redkollegiya Beloborodov V.V. i dr.) L. VNIIJ, II tom. 1965g. –419s.
7. Щербаков V.G. "Texnologicheskiy kontrol' proizvodstva jirov i jirozameniteley" –M. Rishepromizdat. 1996. –158s.
8. Qodirov Y. "Yog'larni qayta ishlash texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari" T. 2002. –133b.
9. Rukovodstva po metodam issledovaniya texnochimicheskemu kontrolyu i uchetu proizvodstva, v maslojirovoy promyshlennosti. (redkollegiya Zaremba G.V. i dr.) L.VNIIJ IV tom. 1982. –417s. vypr. 3.
10. Qodirov Y. «O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi» fanidan laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy qo'llanma T. 1997.
11. «Yog'-moy sanoati korxonalarida xom ashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni hisob-kitobini yuritish bo'yicha yo'rqliqnomasi» T. 2004.
12. «Yog' – moy mahsulotlari ishlab chiqarishdagi xomashyo va materiallar sarfi, chiqindilarini va yo'qolishlari, xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotni saqlash va tashishda tabiiy kamayish me'yor va me'yoriy hujjatlari» t. 2004

